Adabiyotlar tahlili. Biologiyada populyatsiya evolyutsiyasining matematik modeli KSO orqali ifodalanadi. KSO lar nazariyasida oddiy va nostandart masalalar hamda yechilmagan masalalarning ko‘pligi matematik nuqtayi-nazardan katta qiziqish uyg‘otadi. KSO tushunchasi birinchi marta S.N.Bernshteynning [1] asarida qo‘llanilgan. Y.I.Lyubichning [2] asarida ikki jinsli populyatsiyaning matematik modelini (biologik jarayonlar yoritilgan holda) tuzishning sxemasi va uni umumiy yechish usullari keltirilgan. Keyinchalik ushbu yo‘nalishdagi asosiy natijalar S.Ulam [3], H.Kesten [4], N.N.Ganixodjaev [5], U.A.Rozikov [6], N.N.Ganikhodjaev, F.M.Mukhamedov [7], U.A.Rozikov va U.U.Jamilovlarning [8] ilmiy ishlarida keltirilgan.

Dinamik sistemalarni o‘rganish masalalari A.Puankare [9] g‘oyalariga asoslanadi. Yo‘nalish rivojlantirilib, kimyoviy va biologik jarayonlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda [10,11] uzluksiz vaqtli KSO lar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Uzluksiz vaqtli ikki jinsli Volterra tipidagi KSO lar [12] da o‘rganilgan [13-16].

Biologik sistema evolyutsiyasi jarayonida har xil tipdagi individlarning chegaralangan taqsimotini topish muammosi dinamik sistemaning asimptotik xususiyatlarini o‘rganilishiga bog‘liq.

Populyatsiya sonining o‘zgarishi uning dinamikasini tashkil qiladi. Populyatsiyaviy dinamika matematik biologiyaning qismi bo‘lib, o‘z vaqtida populyatsiyaning holatini aniqlashga qaratilgan «matematik poligon» hisoblanadi. Chunki, matematik modellashtrish o‘rganilayotgan jarayon haqida to‘liq ma’lumot olishga, uning o‘sish yoki kamayishi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkoniyat beradi.

Tenglamalarni sifatli tahlil qilish orqali kerakli natijalarni olish mumkin. Jumladan, tenglamalar sistemasini yechimini topmasdan, uning trayektoriyasi va shu kabi xususiyatlari haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin [17].

Populyatsiya o‘zgaruvchan bo‘lgani uchun olimlarni faqat uning soni va zichligining o‘zgarishi emas, balki qanday omillar ta’sirida o‘zgarishi, ya’ni dinamikasi ham qiziqtiradi. Haqiqiy populyatsiyalarda ko‘payish va o‘lim darajasi turli guruhlarda turlicha bo‘ladi. Masalan, hasharotlar tuxum qo‘yadi va dushmanlari lichinkalarni o‘ldirib yuboradi, bundan tashqari, ularga atrof-muhitdagi metabolik mahsulotlar, kannibalizm va zaharlanishlar, yosh bosqichlari va ularning intensivligi ta’sir ko‘rsatadi.

[18-22] maqolalarda populyatsiyaning dinamikasi modelning uzluksiz vaqtli holi uchun o‘rganilgan. Ularda o‘rganilgan matematik modellar boshqa juda ko‘plab turlarning mavsumiy ko‘payishi dinamikasini ifodalashda ijobiy (ko‘payish jarayoni diskret bo‘lganligi uchun) natijalar bermaydi. Ushbu turdagi jarayonlarni impulsli oddiy differensial tenglamalar sistemasini orqali o‘rganish [23] eng ma’qul modellar hisoblanadi va o‘rganilayotgan jarayonni haqiqiy jarayonga yaqin ifodalaydi. Bunda biologik populyatsiya evolyutsiyasining matematik modeli kvadratik stoxastik operatorlar orqali ifodalanadi.

Ikki jinsli populyatsiyaning dinamikasini o‘rganishga bag‘ishlangan [2] asarda uning matematik modelining ta’rifi berilgan va populyatsiyani ifodalovchi kvadratik stoxastik operatorlarning ko‘rinishlari keltirilgan.

[24] maqolada [2] da berilgan KSO ning qism sinfiga tegishli bo‘lgan diskret vaqtli Volterra tipidagi kvadratik stoxastik operatorlar tahlil qilingan va ularni yechish bo‘yicha fundamental natijalar olingan. Ushbu operatorlarning xususiy holi sifatida o‘n oltita chetki operatorlar keltirib chiqarilgan va ularning dinamikasi o‘rganilgan.

Ushbu maqolada [24] da keltirilgan o‘n oltita chetki kvadratik stoxastik operatorning to‘qqizinchisining uzluksiz vaqtli analogi o‘rganilgan. Bu sistema noxiziqli oddiy differensial tenglamalar sistemasini bo‘lib, Volterra-Lotka tenglamalar sistemasiga [10, 11] o‘xshashdir.

Asosiy qism. Diskret vaqtli chetki to‘qqizinchi KSO ning uzluksiz vaqtli analogi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{cases} \dot{x}_1(t) = y_1(t) - x_1(t), \\ \dot{x}_2(t) = y_2(t) - x_2(t), \\ \dot{y}_1(t) = x_1(t)y_2(t), \\ \dot{y}_2(t) = x_2(t)y_2(t) - y_2(t) \end{cases} \quad (1)$$

yoki uning vektor ko‘rinishi $\dot{X}(t) = F(X(t))$ bo‘lib, bu yerda

$$\begin{aligned} X(t) &= (x(t); y(t)) = (x_1(t), x_2(t); y_1(t), y_2(t)), \\ F(X(t)) &= F(x_1(t), x_2(t); y_1(t), y_2(t)) = (f_1, f_2, f_3, f_4)^T, \quad t \geq 0, \end{aligned}$$

$X(t)$ – qandaydir biologik sistemaning holati, $(x_1(t), x_2(t))$ va $(y_1(t), y_2(t))$ ehtimollik taqsimoti juftligi. Masala shartiga ko‘ra,

$$x_1(t) \geq 0, \quad x_2(t) \geq 0, \quad y_1(t) \geq 0, \quad y_2(t) \geq 0.$$

Masalaning qo‘yilishi. Ushbu maqolada (1) sistemani quyidagi

$$\bar{\Omega}_1 = \{(x_1(t), x_2(t)): x_1(t) \geq 0, \quad x_2(t) \geq 0, \quad x_1(t) + x_2(t) \leq 1\},$$

$$\bar{\Omega}_2 = \{(y_1(t), y_2(t)): y_1(t) \geq 0, \quad y_2(t) \geq 0, \quad y_1(t) + y_2(t) \leq 1\}$$

kengaytirilgan sohada sifatli tahlil qilish, xususan, qo‘zg‘almas nuqtalari, analitik va sonli yechimlarini izlash, fazali portretini chizish va olingan natijalarni tahlil qilish masalalari qaraladi.

Qulaylik uchun funksiyalarning argumentini yozmaymiz. (1) sistemani analitik yechimini izlaymiz. Sistemaning ikkinchi va to‘rtinchi tenglamasidan

$$\ddot{x}_2 + \dot{x}_2 = (x_2 - 1)(\dot{x}_2 + x_2)$$

ekanligini topamiz. Tenglamada $\dot{x}_2 + x_2 = p$ deb belgilash kiritamiz va hosil bo‘lgan tenglamani yechib, so‘ngra x_2 o‘zgaruvchiga qaytsak, quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$\dot{x}_2 + x_2 = C_1 e^{(x_2-2)^2/2},$$

bu yerda $C_1 = const$.

Tenglama ko‘paytuvchilarga ajraladigan tenglamalar sinfiga kiradi, undan

$$\int \frac{dx_2}{C_1 e^{(x_2-2)^2/2} - x_2} = t + C_2$$

tenglamani olamiz. Ko‘rinib turibdiki, hozirgi zamonaviy matematik usullar yordamida ushbu tenglikdan x_2 ni elementar funksiyalar orqali ifodalab bo‘lmaydi.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, (1) sistemani sifatli tahlil qilamiz.

Sistema uchta qo‘zg‘almas nuqtaga ega: $M_1(0,1; 0, 1)$, $M_2(0,0; 0, 0)$ va $M_3(c_1, 0; c_1, 0)$.

(1) tenglamalar sistemasini $M_1(0,1; 0, 1)$ qo‘zg‘almas nuqta atrofida chiziqshatiramiz.

$$\begin{aligned} \left. \frac{\partial f_1}{\partial x_1} \right|_{M_1} &= -1, \quad \left. \frac{\partial f_1}{\partial x_2} \right|_{M_1} = 0, \quad \left. \frac{\partial f_1}{\partial y_1} \right|_{M_1} = 1, \quad \left. \frac{\partial f_1}{\partial y_2} \right|_{M_1} = 0, \\ \left. \frac{\partial f_2}{\partial x_1} \right|_{M_1} &= 0, \quad \left. \frac{\partial f_2}{\partial x_2} \right|_{M_1} = -1, \quad \left. \frac{\partial f_2}{\partial y_1} \right|_{M_1} = 0, \quad \left. \frac{\partial f_2}{\partial y_2} \right|_{M_1} = 1, \\ \left. \frac{\partial f_3}{\partial x_1} \right|_{M_1} &= 1, \quad \left. \frac{\partial f_3}{\partial x_2} \right|_{M_1} = 0, \quad \left. \frac{\partial f_3}{\partial y_1} \right|_{M_1} = 0, \quad \left. \frac{\partial f_3}{\partial y_2} \right|_{M_1} = 0, \\ \left. \frac{\partial f_4}{\partial x_1} \right|_{M_1} &= 0, \quad \left. \frac{\partial f_4}{\partial x_2} \right|_{M_1} = 1, \quad \left. \frac{\partial f_4}{\partial y_1} \right|_{M_1} = 0, \quad \left. \frac{\partial f_4}{\partial y_2} \right|_{M_1} = 0 \end{aligned}$$

munosabatlar o‘rinli bo‘lib,

$$A = \begin{pmatrix} -1 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & -1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \end{pmatrix}$$

matritsani hosil qilamiz. (1) sistemani $M_1(0,1; 0, 1)$ qo‘zg‘almas nuqta atrofida turg‘unligini o‘rganamiz. Yangi o‘zgaruvchilar kiritib, $M_1(0,1; 0, 1)$ nuqtani koordinatalar boshiga ko‘chiramiz va hosil bo‘lgan matritsaning xos sonlarini topamiz:

$$\det|A - \lambda E| = \lambda^2(\lambda + 1)^2 - 2\lambda(\lambda + 1) + 1 = 0.$$

Tenglamani yechib $\lambda_{1,2} = (-1 - \sqrt{5})/2 < 0$ va $\lambda_{3,4} = (-1 + \sqrt{5})/2 > 0$ - xos sonlar - ildizlarni aniqlaymiz. Lyapunovning birinchi teoremasiga ko‘ra [25, 72 bet], (1) sistema $M_1(0,1; 0, 1)$ nuqta atrofida noturg‘un bo‘ladi.

$M_2(0,0; 0, 0)$ muvozanat nuqtasida (1) sistemani o‘rganish uchun Lyapunovning ikkinchi teoremasidan [19, 44 bet] foydalanamiz. Chunki, $M_2(0,0; 0, 0)$ muvozanat nuqtada (1) sistemaning karakteristik tenglamasi bitta nol ildizga ega bo‘lganligi uchun, Lyapunovning birinchi teoremasidan foydalanib bo‘lmaydi.

$V(x_1(t), x_2(t); y_1(t), y_2(t)) = x_2(t) + y_2(t)$ Lyapunov funksiyasini tuzib olamiz. Bu funksiya $M_2(0,0; 0, 0)$ muvozanat nuqtasida Lyapunovning ikkinchi teoremasining birinchi va ikkinchi shartlarini qanoatlantiradi [19, 44 bet].

$V(x_1(t), x_2(t), y_1(t), y_2(t))$ funksiyani (1) sistemaga ko‘ra hosilasini hisoblaymiz:

$$\dot{V}(t) = y_2(t) - x_2(t) + x_2(t)y_2(t) - y_2(t) =$$

$$= -x_2(t)(1 - y_2(t)) \leq 0.$$

Demak, (1) sistema $M_2(0,0; 0, 0)$ muvozanat nuqtasida turg'un bo'ladi.

Xuddi, shuningdek, $V(x_1(t), x_2(t); y_1(t), y_2(t)) = x_2(t) + y_2(t)$ Lyapunov funksiyasi yordamida $M_3(1,0; 1, 0)$ muvozanat nuqtasida (1) sistemani turg'un ekanligi isbotlanadi.

Qaralayotgan masalada $(x_1(t), x_2(t); y_1(t), y_2(t))$ ehtimollikni ifodalashini inobatga olib, $x_1(t)$ va $x_2(t)$ hamda $y_1(t)$ va $y_2(t)$ lar bir vaqtning o'zida nolga yaqin bo'lishi nazariy jihatdan qiziqish uyg'otmaydi. Shuni inobatga olib, (1) sistemani $M_3(c_1, 0; c_1, 0)$ qo'zg'almas nuqta atrofida o'rganamiz.

(1) sistema uchun Koshi masalasini qaraymiz. $t = 0$ da


$$x_1(0) = x_1^0, \quad x_2(0) = x_2^0, \quad y_1(0) = y_1^0, \quad y_2(0) = y_2^0 \quad (2)$$

bo'lsin.


$(x_1^0, x_2^0; y_1^0, y_2^0)^T$ boshlang'ich shartlar sifatida quyidagi matritsaning mos ustunlaridagi qiymatlar olinadi:

$$\begin{pmatrix} 0.98 & 0.912 & 0.904 & 0.993 & 0.9904 & 0.9908 & 0.97 & 0.9906 & 0.985 & 0.9903 \\ 0.009 & 0.08 & 0.0096 & 0.001 & 0.0006 & 0.00091 & 0.0023 & 0.00004 & 0.0095 & 0.007 \\ 0.985 & 0.994 & 0.993 & 0.9906 & 0.9915 & 0.997 & 0.9919 & 0.9928 & 0.9907 & 0.9905 \\ 0.005 & 0.0036 & 0.0097 & 0.0084 & 0.0008 & 0.0053 & 0.0001 & 0.0000192 & 0.003 & 0.0065 \end{pmatrix}$$

MathCAD matematik paketida maxsus tuzilgan dastur orqali (1) sistemani (2) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi sonli yechimlarini izlaymiz. (1) sistemaning $\Omega_1 \times \Omega_2$ sohada $M_3(c_1, 0; c_1, 0)$ qo'zg'almas nuqta atrofidagi sonli yechimlarining grafiklari 1,2-rasmlarda keltirilgan. Rasmlarda $x_1(t)$ va $x_2(t)$ hamda $y_1(t)$ va $y_2(t)$ lar (1) sistemaning sonli yechimlarini ifodalaydi.




1-rasm.



2-rasm.

3-rasmda $x_1(t)$ va $x_2(t)$ hamda $y_1(t)$ va $y_2(t)$ larning fazali trayektoriyalari tasvirlangan.




3-rasm.


Endi (1) sistemani $\Omega_1 \times \Omega_2$ sohaning ichida (sistemaning muvozanat holatidan uzoqroqda joylashgan boshlang'ich nuqtalarda) quyidagi boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi sonli yechimlarini izlaymiz:

$$\begin{pmatrix} 0.01 & 0.12 & 0.04 & 0.03 & 0.04 & 0.08 & 0.77 & 0.06 & 0.15 & 0.03 \\ 0.79 & 0.8 & 0.96 & 0.91 & 0.6 & 0.91 & 0.23 & 0.4 & 0.295 & 0.97 \\ 0.05 & 0.44 & 0.03 & 0.06 & 0.15 & 0.27 & 0.019 & 0.028 & 0.07 & 0.05 \\ 0.5 & 0.36 & 0.97 & 0.84 & 0.8 & 0.53 & 0.01 & 0.192 & 0.723 & 0.95 \end{pmatrix}$$

Ularining grafiklari 4-5-raslarda tasvirlangan.




4-rasm.



5- rasm.

6-rasmda $x_1(t)$ va $x_2(t)$ hamda $y_1(t)$ va $y_2(t)$ larning fazali trayektoriyalari tasvirlangan.




6-rasm.


Endi (1) sistemani $x_1 + x_2 = 1$ va $y_1 + y_2 = 1$ bo'lgandagi (2) boshlang'ich shartlarni qanoatlantiruvchi sonli yechimlarini topamiz:

$$X(0) = \begin{pmatrix} 0.01 & 0.21 & 0.2 & 0.17 & 0.34 & 0.28 & 0.67 & 0.41 & 0.65 & 0.37 \\ 0.99 & 0.79 & 0.8 & 0.83 & 0.66 & 0.72 & 0.33 & 0.59 & 0.35 & 0.63 \\ 0.45 & 0.444 & 0.3 & 0.009 & 0.25 & 0.54 & 0.59 & 0.23 & 0.59 & 0.76 \\ 0.55 & 0.556 & 0.7 & 0.991 & 0.75 & 0.46 & 0.41 & 0.77 & 0.41 & 0.24 \end{pmatrix}$$

Aniqlangan sonli yechimlarning grafiklari 7-8-rasmlarda keltirilgan.




7- rasm.



8-rasm.

Shu berilgan boshlang'ich qiymatlarda $x_1(t)$ va $x_2(t)$ hamda $y_1(t)$ va $y_2(t)$ larning fazali trayektoriyalarining grafiklari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



9-rasm.

Shunday qilib quyidagi teorema isbotlandi.

Teorema. (1) sistema $\Omega_1 \times \Omega_2$ sohada $M_1(0,0; 0, 0)$ va $M_3(1,0; 1, 0)$ muvozanat nuqtalarida Lyapunov ma'nosida turg'un, $M_3(c_1, 0; c_1, 0)$ muvozanat nuqtasida Lyapunov ma'nosida noturg'un bo'ladi.

Xulosa. Olingan sonli yechimlar tahlil qilinganda, $M_3(1,0; 1, 0)$ qo'zg'almas nuqta atrofida yechimlar $t \leq 3$ dan keyin o'zaro bir-biriga yetarlicha yaqinlashadi. $x_1 + x_2 = 1$ va $y_1 + y_2 = 1$ bo'lgan holda sonli

yechimlar $t \leq 13$ dan so'ng $M_3(1,0; 1, 0)$ qo'zg'almas nuqtaga intiladi. $\Omega_1 \times \Omega_2$ sohaning ichida esa $t \leq 12$ dan so'ng yechimlarning o'zaro bir-biriga yetarlicha yaqinlashishi aniqlandi. Muallif maqolani tayyorlashda bergan maslahatlari uchun Matematik analiz kafedrasi dotsenti X.R.Rasulovga minnatdorchilik bildiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Бернштейн С.Н. Решение одной математической проблемы, связанной с теорией наследования // Уч. Зап. Научно-Исслед. каф. Укр. отд. Мат., 1924, 1, с. 83 – 115.
2. Lyubich Yu.I. *Mathematical structures in population genetics. Biomathematics*, 22, 1992.
3. Ulam S.M. *A collection of mathematical problems. New York–London, Interscience Publ.*, 1960.
4. Kesten H. *Quadratic transformation: A model for population growth, II. // Advances in Applied Probability*, 2:2 (1970), pp. 179-228.
5. Ганиходжаев Н.Н, Азизова С.Р. *О неоднородных квадратичных стохастических процессах // Докл.АН Уз ССР*, 1990, №4, с.3-5.
6. Rozikov U.A. *Population dynamics, World Scientific, Singapore*, 2020.
7. Ganikhodjaev N.N., Mukhamedov F.M. *Quantum quadratic operators and processes. Springer, LNM 2133*, 2015.
8. Розиков У.А., Жамилов У.У. *F-квадратичные стохастические операторы // Математические заметки*, 83:4 (2008), с. 606-612.
9. Визгин В.П. *Развитие взаимосвязи принципов инвариантности с законами сохранения в классической физике. Москва, Наука*, 1972.
10. Lotka A.J. *Undamped oscillations derived from the law of mass action // J. Am. Chem. Soc.*, 42, (1920), pp. 1595–1599.
11. Volterra V. *Lois de fluctuation de la population de plusieurs especes coexistant dans le meme milieu // Association Franc. Lyon*, 1926, 96–98 (1927).
12. Kesten H. *Quadratic Transformations: A Model for Population Growth, I. // Advances in Applied Probability*, 2:1 (1970), pp. 1–82.
13. Pah C.H., Rosli A. *On a class of non-ergodic Lotka-Volterra operator // Lobachevskii Journal of Mathematics*, 2022, Vol. 43, No. 9, pp. 2591–2598.
14. Savadogo A., Sangare B., Ouedraogo H. *A mathematical analysis of Hopf-bifurcation in a prey-predator model with nonlinear functional response // Advances in Difference Equations*, (2021), 275.
15. Kryzhevich S. *i and et. Bistability in a one-dimensional model of a two-predators-one-prey population dynamics system // Lobachevskii Journal of Mathematics*, 2021, Vol. 42, No. 14, pp. 3486–3496.
16. Rozikov U.A., Solaeva M.N. *Behavior of trajectories of a quadratic operator // Lobachevskii Journal of Mathematics*, 2023, Vol. 44, No. 7, pp. 2910–2915.
17. Петровский И.Г. *Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. Москва, Издатель ЛипПес*, 2020, 271 с.
18. Исаев А.С., Хлебопрос Р.Г., Недорезов Л.В. *Популяционная динамика лесных насекомых. Москва, Наука*, 2001.
19. Rasulov Kh.R. *On a continuous time F - quadratic dynamical system // Uzbek mathematical journal*, 2018, №4, pp.126-130.
20. Rasulov X.R. *Qualitative analysis of strictly non-Volterra quadratic dynamical systems with continuous time // Communications in Mathematics*, 30 (2022), № 1, pp. 239-250.
21. Muzaffarova M.U. *About the dynamics of a dynamic system // Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research*, 4:7, 2023, pp. 77-86.
22. Расулов Х.Р., Раупова М.Х. Яшиева Ф.Ю. *Икки жинсли популяция ва унинг математик модели ҳақида // Science and Education, scientific journal*, 2:10 (2021), 81-96 б.
23. Недорезов Л.В. *Моделирование массовых размножений лесных насекомых. Новосибирск, Наука*, 1986.
24. Rozikov U.A., Zhamilov U.U. *Volterra quadratic stochastic operators of a two-sex population // Ukrainian Math. J.*, 63(7) (2011), pp. 1136-1153.
25. Малкин И.Г. *Теория устойчивости движения. Москва, Наука*, 1966.

Ro‘ziyeva Nilufar Komiljon qizi,

Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti talabasi

ruziyevanilufar04@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilariga natural ko‘rsatkichli daraja tushunchasi nima ekanligi va u qanday tushuntirilishi yoritib berilgan. Natural ko‘rsatkichli daraja qanday vaziyatlarda misolni sodda usulda ishlanishiga yordam berishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, darajani hisoblashda ko‘maklashadigan bir nechta xossalari, ularning kelib chiqishi va ularga mos misollar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: natural son, daraja, ko‘rsatkichli daraja, asos, ko‘paytuvchi, kasr, darajaning qiymati.

УРОВЕНЬ С ЕСТЕСТВЕННЫМ ПОКАЗАТЕЛЕМ

Аннотация. В данной статье школьникам разъясняется, что такое понятие натуральной степени, и как оно объясняется. Было упомянуто, в каких ситуациях уровень естественного индекса помогает упростить пример. Также упоминаются несколько свойств, помогающих при расчёте уровня, их происхождение и соответствующие примеры.

Ключевые слова: натуральное число, степень, показательная степень, основание, множитель, дробь, значение степени.

LEVEL WITH NATURAL INDICATOR

Abstract. This article explains to schoolchildren what the concept of natural exponent is and how it is explained. It was mentioned in what situations the natural index level helps to work out the example in a simple way. Also, several properties that help in calculating the level, their origin and corresponding examples are mentioned.


Keywords: natural number, degree, exponential degree, base, multiplier, fraction, value of the degree.

O‘quvchilarga bir nechta teng sonlarni qo‘shish amali berilgan bo‘lsin. Bu amalni ko‘paytirish amali bilan almashtirishimiz mumkin:

$$\underbrace{7 + 7 + 7 + 7}_{4\text{marta}} = 7 \cdot 4$$

$$\underbrace{a + a + a + \dots + a}_{nmarta} = a \cdot n$$

Kirish. Ko‘p hollarda bir xil sonlarning ko‘paytmasini ham ixchamroq yozuv bilan almashtirish ham bizga ancha qulayliklar olib keladi. Masalan, tomonining uzunligi 5 birlikka teng kvadratni qaraylik. U $5 \cdot 5 = 25$ ta birlik kvadratdan iborat. Tomonining uzunligi 5 birlikka teng kub esa $5 \cdot 5 \cdot 5 = 125$ ta birlik kubni o‘z ichiga oladi.



Bizga ma’lumki, $5 \cdot 5$ ko‘paytma 5^2 (beshning kvadrati), $5 \cdot 5 \cdot 5$ ko‘paytma esa 5^3 (beshning kubi) kabi belgilanadi:

$$5 \cdot 5 = 5^2 \qquad 5 \cdot 5 \cdot 5 = 5^3$$

Asosiy qism. Xuddi shu kabi, ko‘paytuvchilari bir xil sonlardan iborat ko‘paytmani yangi amal darajaga ko‘tarish amali bilan almashtirish mumkin:

$$\underbrace{6 \cdot 6 \cdot 6 \cdot 6 \cdot 6}_{5\text{marta}} = 6^5, \quad \underbrace{\frac{1}{3} \cdot \frac{1}{3} \cdot \frac{1}{3} \cdot \frac{1}{3}}_{4\text{marta}} = \frac{1}{3^4}, \quad (0,2 = (0,2)^1)$$

Umuman, n ta ko'paytuvchining ko'paytmasini belgilsak quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\underbrace{a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a}_{nmarta} = a^n$$

ifoda "a sonining n-ko'rsatkichli darajasi" deb o'qiladi. Ko'pincha, qisqacha qilib "a ning n - darajasi" deb aytiladi.

Demak, a sonning n natural ko'rsatkichli darajasi deb, har biri a songa teng bo'lgan n ta ko'paytuvchining ko'paytmasiga aytiladi:

$$a^n = \underbrace{a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a}_{nmarta} = a^n$$

a son (takrorlanuvchi ko'paytuvchi) darajaning asosi, n son (ko'paytuvchi necha marta takrorlanishini ko'rsatuvchi son) daraja ko'rsatkichi deyiladi.

Masalan,

$$3^4 = 3 \cdot 3 \cdot 3 \cdot 3 = 81,$$

Bu yerda 3- darajaning asosi, 4- daraja ko'rsatkichi, 81 esa 3^4 – darajaning qiymati.

Xususiyl holda, sonning birinchi darajasi deb, shu sonning o'ziga aytiladi:

$$a^1 = a.$$

Masalan, $7^1 = 7$, $13^1 = 13$ $(\frac{1}{3})^1 = \frac{1}{3}$

Darajaning asosi istalgan son bo'lishi mumkin.

Masalan,

$$2^3 = 2 \cdot 2 \cdot 2 = 8;$$

$$\left(\frac{2}{3}\right)^5 = \frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3} = \frac{32}{243};$$

$$(-5)^3 = (-5) \cdot (-5) \cdot (-5) = -125;$$

$$\left(-\frac{2}{5}\right)^4 = \left(-\frac{2}{5}\right) \cdot \left(-\frac{2}{5}\right) \cdot \left(-\frac{2}{5}\right) \cdot \left(-\frac{2}{5}\right) = \frac{16}{625};$$

$$0,3^3 = 0,3 \cdot 0,3 \cdot 0,3 = 0,27;$$

$$(-1)^7 = (-1) \cdot (-1) \cdot (-1) \cdot (-1) \cdot (-1) \cdot (-1) \cdot (-1);$$

$$0^3 = 0 \cdot 0 \cdot 0 = 0;$$

Sonlarni daraja yordamida yozishdan juda ko'p hollarda, masalan, natural sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida yozish uchun foydalaniladi:

$$2895 = 2 \cdot 1000 + 8 \cdot 100 + 9 \cdot 10 + 5 = 2 \cdot 10^3 + 8 \cdot 10^2 + 9 \cdot 10 + 5.$$

10 dan katta bo'lgan har bir sonni $a \cdot 10^n$ shaklida yozish mumkin, bunda $1 \leq a \leq 10$ va n – natural son. Bunday yozuv sonning standart shakli deb aytiladi.

Masalan,

$$3969 = 3,969 \cdot 10^3, \quad 331,23 = 3,3123 \cdot 10^2$$

Natural ko'rsatkichli darajaning xossalari:

Darajaga ko'tarish quyidagi muhim xossalarga ega:

1-xossa:

$$a^m \cdot a^n = a^{n+m}$$

Bir xil asosli darajalarni ko'paytirishganda asos o'zgarimasdan qoladi, daraja ko'rsatkichlari esa qo'shiladi.

Natural ko'rsatkichli darajaning ta'rifiga ko'ra

$$a^m \cdot a^n = \underbrace{(a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a)}_{mmarta} \times \underbrace{(a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a)}_{nmarta} =$$

Ko'paytirishning guruhlash qonuniga ko'ra

$$= \underbrace{(a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a)}_{(m+n)\text{marta}} =$$

Natural ko'rsatkichli daraja ta'rifiga ko'ra

$$= a^{m+n}.$$

Misol: $3^2 \cdot 3^3 = 3^{2+3} = 3^5 = 243$

2-xossa:

$$a^m : a^n = a^{m-n}, m > n, a \neq 0.$$

Bir xil darajali asosli darajalarni bo'lganda asos o'zgarmasdan qoladi, daraja ko'rsatkichlari esa ayriladi.

Shartga ko'ra

$$m > n, a \neq 0.$$

Darajaning birinchi xossasiga ko'ra

$$a^{m-n} \cdot a^n = a^m.$$

Shuning uchun ham

$$a^{m-n} = a^m : a^n.$$

Shunday qilib

$$a^m : a^n = a^{m-n}, m > n, a \neq 0.$$

Misol: $7^5 : 7^3$ shartga ko'ra $5 > 3$

Demak, $7^5 : 7^3 = 7^{5-3} = 7^2 = 49$

3-xossa:

$$(a^m)^n = a^{mn}$$

Darajani darajaga ko'targanda asos o'zgarmasdan qoladi, daraja ko'rsatkichlar esa o'zaro ko'paytiriladi.

Natural ko'rsatkichli darajaning ta'rifiga ko'ra

$$(a^m)^n = \underbrace{a^m \cdot a^m \cdot a^m \cdot \dots \cdot a^m}_{nmarta} =$$

Darajaning birinchi xossasiga ko'ra

$$= \underbrace{a^{(m+m+m+\dots+m)}}_{nmarta} =$$

Ko'paytirishning ta'rifiga ko'ra

$$= a^{mn}.$$

Shunday qilib,

Misol: $(4^2)^3 = 4^{2 \cdot 3} = 4^6 = 4096$

4-xossa:

$$(ab)^n = a^n b^n.$$

Ko'paytmani darajaga ko'targanda har bir ko'paytuvchi shu darajaga ko'tariladi.

$$(ab)^n = \underbrace{(ab) \cdot (ab) \cdot (ab) \cdot \dots \cdot (ab)}_{nmarta} =$$

Ko'paytirishning guruhlash va o'rin almashtirish qonuniga ko'ra

$$= \underbrace{(a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a)}_{nmarta} \times \underbrace{(b \cdot b \cdot b \cdot \dots \cdot b)}_{nmarta} =$$

Natural ko'rsatkichli darajaning ta'rifiga ko'ra

$$= a^n \cdot b^n.$$

Shunday qilib,

$$(ab)^n = a^n b^n.$$

Misol: $(2 \cdot 3)^3 = (2 \cdot 3) \cdot (2 \cdot 3) \cdot (2 \cdot 3) = (2 \cdot 2 \cdot 2)(3 \cdot 3 \cdot 3) = 2^3 \cdot 3^3.$

5-xossa:

$$\left(\frac{a}{b}\right)^n = \frac{a^n}{b^n}; b \neq 0$$

Kasrni darajaga ko'targanda uning surati va maxraji xuddi shu darajaga ko'tariladi.

Natural ko'rsatkichli darajaning ta'rifiga ko'ra

$$\left(\frac{a}{b}\right)^n = \underbrace{\left(\frac{a}{b} \cdot \frac{a}{b} \cdot \frac{a}{b} \cdot \dots \cdot \frac{a}{b}\right)}_{nmarta} =$$

Kasrlarni ko‘paytirish qoidasiga ko‘ra

$$= \frac{\overbrace{a \cdot a \cdot a \cdot \dots \cdot a}^{nmarta}}{\underbrace{b \cdot b \cdot b \cdot \dots \cdot b}_{nmarta}} =$$

Natural ko‘rsatkichli darajaning ta‘rifiga ko‘ra

$$= \frac{a^n}{b^n}$$

Shunday qilib,

$$\left(\frac{a}{b}\right)^n = \frac{a^n}{b^n}; b \neq 0$$

Misol: $\left(\frac{2}{3}\right)^3 = \left(\frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3} \cdot \frac{2}{3}\right) = \frac{2 \cdot 2 \cdot 2}{3 \cdot 3 \cdot 3} = \frac{2^3}{3^3}$

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, maqolada keltirilgan mulohazalar umumta‘lim maktablari, akademik litsey, kasb- hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalarida matematikadan to‘garaklar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu kabi mavzularni o‘rganishda qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, amaliyotda muhim tadbirlarga ega bo‘lgan bir qancha misollar namuna sifatida keltirib o‘tilganligi o‘quvchini shu mavzularni mustaqil o‘rganishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Alimov Sh.A., Xolmuhamedov O.R., Mirzaaxmedov M.A. Algebra 7-sinf darslik
2. Yunusova D. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. 2020 y. 3.Uzluksiz ta‘lim. //Jurnal. 2017 y.
4. Xodjiyev S, A.Ubaydulloyev Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari o‘rganish bo‘yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet <http://erus.uz/index.php/er/article/view/16>.
5. Turdiyev N.Sh , Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari, T. Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, T.: 2015.-160.
6. Abdurahmonov B. Matematik induksiya metodi. Toshkent, 2018 y.
7. Azlarov T., Mansurov X. Matematik analiz, 1-qism. Toshkent. O‘qituvchi. 1994
8. Beshmakov M.N. Algebra i nachala analiza. Ucheb dlya 10-11 kl. Sred. shk.2-ye.izd.- M.:Prosveshenie, 1992. -351 s

FUNKSIYALAR UCHUN TEYLOR FORMULASI HAMDA BA'ZI FUNKSIYALARNI
TEYLOR QATORIGA YOYISH VA UNING AMALIY TATBIQLARI

Solayeva Mehribon Norimonovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
Ataxanova Gulmira G'ayrat qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi
Mamatqulov Fayzullo Shavkat o'g'li,
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada funksiyalarni o'zaro yaqinlashtirish, funksiyani biror nuqta atrofida boshqa ko'phadlar bilan yaqinlashtirish va funksiyalarni biror nuqta atrofida Teylor formulasiga ko'ra Teylor qatoriga yoyish masalasi tahlil qilinadi va bir qator misollar yordamida tadbig'i ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: funksiyaning hosilasi, funksiyaning yuqori tartibli hosilalari, Teylor formulasi qoldiq hadlar, Koshi, Logranj va Peano ko'rinishidagi qoldiq hadlar.

ФОРМУЛА ТЕЙЛОРА ДЛЯ ФУНКЦИЙ И РАЗЛОЖЕНИЕ НЕКОТОРЫХ ФУНКЦИЙ В
РЯД ТЕЙЛОРА И ЕГО ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ

Аннотация. В данной статье мы разберём вопрос взаимного приближения функций, приближения функции другими полиномами вокруг точки, разложения функций в ряд Тейлора по формуле Тейлора вокруг точки, а также рассмотрим его применение, используя ряд примеров.

Ключевые слова: производная функции, производные функции высших порядков, остаточные члены в формуле Тейлора, остаточные члены в форме Коши, Логранжа и Пеано.

TAYLOR'S FORMULA FOR FUNCTIONS EXPANSION OF SOME FUNCTIONS INTO
THE TAYLOR SERIES AND ITS PRACTICAL APPLICATIONS

Abstract. In this article, we will analyze the issue of mutual approximation of functions, approximation of a function with other polynomials around a point, and expansion of functions into a Taylor series according to Taylor's formula around a point, and we will consider its application using a number of examples.

Keywords: derivative of a function, higher-order derivatives of a function, residual terms in Taylor's formula, residual terms in the form of Cauchy, Logrange and Peano.

Kirish. Funksiyani yaqinlashtirish haqida [1]. Funksiya matematik analiz kursida o'rganiladigan asosiy tushuncha bo'lib odatda ba'zi funksiyalarning biror nuqtadagi qiymatini hisoblash masalasi har doim ham ijobiy hal bo'lavermaydi, masalan, $\ln 2, \sin 25^\circ, \sqrt{5}, \dots$ lar shular jumlasidandir. Bunday masalalarni yechimini topishda odatda irratsional ifodalarni taqribiy hisoblash, taqribiy hisoblash uchun formulalar va funksiya hosilasining tadbiquqlaridan foydalaniladi.

Asosiy qism. Bundan tashqari yuqoridagi kabi masalalarning yechimlarini topishda funksiyalarni yaqinlashtirish masalasi bir muncha qo'l keladi. Ya'ni ikkita funksiyani biror nuqtaning atrofida o'zaro yaqinlashtirish masalasi, funksiyalarni Teylor qatoriga yoyishga asos bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun quyida biz ikki funksiyaning yaqinlashishi masalasini tahlil qilamiz.

Berilgan $f(x)$ funksiyani biror $g(x)$ funksiya bilan yaqinlashtirishda quyidagi ikkita holat muhimdir :

1) $f(x)$ funksiya yaqinlashadigan $g(x)$ funksiyani tanlab olish, uning tuzilish jihatdan soddaligi va hisoblash uchun qulayligi .

2) $f(x)$ funksiyaga $g(x)$ funksiyaning yaqinlashishdagi xatolikni aniqlash va uni baholash.

Odatda yaqinlashadigan funksiya sifatida butun ratsional funksiya -ko'phad olinadi :

$$g(x) = P_n(x) = a_0 + a_1(x - x_0) + a_2(x - x_2)^2 + \dots + a_n(x - x_0)^n \quad (1)$$

bunda $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$, va x_0 lar o'zgarmas haqiqiy conlar, $n \in N$.

Ravshanki, ko'phad sodda va hisoblash uchun qulay funksiya [1,2].

2. Ko'phad uchun Teylor formulasi :

$$P_n(x) = a_0 + a_1(x - x_0) + a_2(x - x_0)^2 + \dots + a_n(x - x_0)^n \quad (1)$$

(bunda $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$, va x_0 lar o'zgarimas haqiqiy conlar, $n \in N$) ko'phadni qaraylik . Bu ko'phadni ketma-ket n marta differensiollab topamiz:

$$\begin{aligned} P'_n(x) &= a_1 + 2 \cdot a_2(x - x_0) + 3 \cdot a_3(x - x_0)^2 + \dots + n a_n(x - x_0)^{n-1}, \\ P''_n(x) &= 2 \cdot a_2 + 3 \cdot 2 \cdot a_3(x - x_0) + \dots + n(n - 1)a_n(x - x_0)^{n-2}, \\ P'''_n(x) &= 3 \cdot 2 \cdot a_3 + \dots + n(n - 1)(n - 2)a_n(x - x_0)^{n-3}, \\ &\dots \end{aligned}$$

$$P_n^{(n)}(x) = n \cdot (n - 1)(n - 2) + 2 \cdot a_n \quad (2)$$

Bu (1) va (2) tengliklarda $x = x_0$ deb olinsa, unda berilgan $P_n(x)$ va uning hosila $P_n^{(k)}$ ($k = 1, 2, 3, \dots, n$) ning x_0 nuqtadagi qiymatlari topiladi: [1,3]

$$\begin{aligned} P_n &= a_0, \\ P'_n &= 1! a_1, \\ P''_n &= 2! a_2, \\ &\dots \dots \dots \dots \dots \dots \\ P_n^{(n)} &= n! a_n. \end{aligned}$$

Ulardan

$$\begin{aligned} a_0 &= P_n(x_0), \\ a_1 &= \frac{P'_n}{1!}, \\ a_2 &= \frac{P''_n}{2!}, \\ &\dots \\ a_n &= \frac{P_n^{(n)}}{n!}. \end{aligned} \quad (3)$$

Kelib chiqadi.

Shunday qilib, $P_n(x)$ ko'phadning koeffitsentlari ko'phad va uning hosilalarining x_0 nuqtadagi qiymatlari orqali ifodalanaadi. Koeffitsentlarning bu qiymatlarini (1) ga qo'ysak, unda

$$P_n(x) = P_n(x_0) + \frac{P'_n}{1!}(x - x_0) + \dots + \frac{P_n^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n \quad (4)$$

bo'ladi. Bu ko'phad (1) ko'phaddan koeffitsentlarining yozilish bilan farq qiladi. (4) formula ko'phad uchun Teylor formulasi deb ataladi [1,2].

3. *Ixtiyoriy funksiya uchun Teylor formulasi.* $f(x)$ funksiya (a, b) intervalda aniqlangan bo'lib, u $x_0 \in (a, b)$ nuqtada $f', f'', \dots, f^{(n)}$ hosilalarga ega bo'lsin.

Funksiyaning nuqtadagi hosilalaridan foydalanib, quyidagi

$$P_n(f; x) = P_n(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n$$

ko'phadni tuzaylik. Agar qarlayotgan $f(x)$ funksiya n -darajali ko'phad bo'lsa, unda yuqoridagi (2-banda) aytilganga ko'ra

$$F(x) \equiv P_n(f; x),$$

ya'ni $f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n$ bo'ladi.

Agar $f(x)$ funksiya ko'phad bo'lmasa, ravshanki,

$$f(x) \neq P_n(f; x)$$

bo'lib, ular orsida farq yuzaga keladi. Biz uni $R_n(x)$ orqali belgilaylik:

$$R_n(x) = f(x) - P_n(f; x). \quad (5)$$

Natijada ushbu

$$\begin{aligned} f(x) &= P_n(f; x) + R_n(x), \text{ ya'ni} \\ f(x) &= f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x - x_0) + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x - x_0)^n + R_n(x) \end{aligned} \quad (6)$$

formulaga kelamiz. Bu (6) formula $f(x)$ funksiya uchun Teylor formulasi deb ataladi. $R_n(x)$ esa Teylor formulasi qoldiq hadi deyiladi [1].

$f(x)$ funksiya (a, b) intervalda aniqlangan bo'lsa, u shu intervalda uzluksiz $f'(x), f''(x), \dots, f^{(n)}(x)$ hosilalarga ega bo'lgan. Undan tashqari, (a, b) intervarda bu funksiyaning $(n + 1)$ -tartibli $f^{(n+1)}(x)$ hosilasi ham mavjud bo'lsin. (a, b) intervalda x ning ixtiyoriy qiymatini tayinlab, quyidagi

$$F(t) = f(x) - f(t) - \frac{f'(t)}{1!}(x-t) - \dots - \frac{f^{(n)}(t)}{n!}(x-t)^n \quad (7)$$

Yordamchi funksiya tuzamiz va uni $[x_0, x] \subset (a, b)$ (yoki $[x, x_0] \subset (a, b)$) segmentda qaraymiz. $F(t)$ funksiyaning (7) ifodasidan uning $[x_0, x]$ segmentda uzluksiz bolishini ko'rish qiyin emas. Bu funksiya (x_0, x) intervarda hosilaga ham ega. Haqiqatan ham,

$$F'(t) = -f'(t) - \left[\frac{f''(t)}{1!}(x-t) - f'(t) \right] - \left[\frac{f'''(t)}{2!}(x-t)^2 - \frac{f''(t)}{1!}(x-t) \right] - \dots - \left[\frac{f^{(n+1)}(t)}{n!}(x-t)^n - \frac{f^{(n)}(t)}{(n-1)!}(x-t)^{n-1} \right] = -\frac{f^{(n+1)}(t)}{n!}(x-t)^n$$

Demak,

$$F'(t) = -\frac{f^{(n+1)}(t)}{n!}(x-t)^n \quad (8)$$

Endi $[x_0, x]$ segmentda uzluksiz va (x_0, x) intervalda chekli hosilaga (nolga teng bo'lmagan) ega bo'lgan biror $\Phi(t)$ funksiyani olaylik.

$F(t)$ va $\Phi(t)$ funksiyalarga $[x_0, x]$ segmentda Koshi teoremasini qo'llab topamiz [1,2,3]:

$$\frac{F(x)-F(x_0)}{\Phi(x)-\Phi(x_0)} = \frac{F'(c)}{\Phi'(c)} \quad (9)$$

bunda

$$x_0 < c < x \quad (c = x_0 + \theta(x - x_0), 0 < \theta < 1).$$

Yuqoridagi (7) funksiya uchun

$$F(x) = 0, F(x_0) = R_n(x)$$

Tengliklarga egamiz. Endi (8) tenglikni $t = c$ da

$$F'(c) = -\frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-c)^n$$

Bo'lishini e'tiborga olsak, unda (9) tenglikdan

$$R_n(x) = \frac{\Phi(x)-\Phi(x_0)}{\Phi'(c)} \cdot \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-c)^n \quad (10)$$

$(c=x_0+\theta(x-x_0))$ formula kelib chiqadi.

Taylor formulasi qoldiq hadi uchun (10) formula topiladi. Bu holda $f(x)$ funksiyaning Taylor formulasi quyidagi

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x-x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x-x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x-x_0)^n + \frac{\Phi(x)-\Phi(x_0)}{\Phi'(c)} \cdot \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-c)^n \quad (11)$$

$$(c=x_0 + \theta(x - x_0), 0 < \theta < 1)$$

Ko'rinishida yoziladi.

1° *Koshi ko'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi.* Yuqoridagi qaralgan $\Phi(t)$ funksiya sifatida $\Phi(t) = x - t$ funksiyani olaylik. Bu funksiya $[x_0, x] \subset (a, b)$ segmentda uzluksiz, (x_0, x) intervalda esa chekli $\Phi'(t) = -1$ hosilaga ega. Bu funksiya uchun $\Phi(x)=0$, $\Phi(x_0)=x-x_0$ bo'ladi. Natijada (10) formula quyidagi

$$R_n(x) = \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-c)^n(x-x_0) = \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}[x-x_0-\theta(x-x_0)]^n(x-x_0) = \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-x_0)^{n+1}(1-\theta)^n$$

$$(0 < \theta < 1)$$

Ko'rinishga ega bo'ladi. Qoldiq hadning bu ifodasini (11) ga qo'yib topamiz :

$$f = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!}(x-x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!}(x-x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!}(x-x_0)^n + \frac{f^{(n+1)}(c)}{n!}(x-x_0)^{n+1}(1-\theta)^n \quad (12)$$

Bu (12) formula $f(x)$ funksiyaning *Koshi ko'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi* deb ataladi [1,2].

2° *Lagranj ko 'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi.* Endi $\Phi(t) = (x - t)^{n-1}$ funksiyani olaylik. Bu funksiya ham $[x_0, x] \subset (a, b)$ segmentda uzluksiz. (x_0, x) intervalda esa $\Phi'(t) = -(n-1)(x-t)^{n-2}$ hosilaga ega. Bu funksiya uchun

$$\Phi(x) = 0 \quad \Phi(x_0) = (x - x_0)^{n-1},$$

$$\Phi'(c) = -(n-1)(x-c)^{n-2} \quad (c = (x_0 + \theta)(x - x_0); \quad 0 < \theta < 1)$$

bo'ladi. U holda yuqoridagi (10) formula ushbu

$$R_n(x) = \frac{f^{(n+1)}(x_0)}{n!} (x - x_0)^n \frac{-(x - x_0)^{n-1}}{-(n-1)(x-c)^{n-2}} = \frac{f^{(n+1)}(c)}{(n+1)!} (x - x_0)^{n+1}$$

ko'rinishida olinadi. Qoldiq hadning bu ifodasi (11) ga qo'yib topamiz:

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!} (x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!} (x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!} (x - x_0)^n + \frac{f^{(n+1)}(c)}{(n+1)!} (x - x_0)^{n+1} \quad (13)$$

Bu formula $f(x)$ funksiyaning *Lagranj ko 'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi* deb ataladi.

3° *Peano ko 'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi.* $f(x)$ funksiya Teylor formulasining Peano ko'rinishdagi qoldiq hadni chiqarishda $f(x)$ funksiyaga nisbatan qo'yilgan shartni "yengilashtrish" mumkin.

$f(x)$ funksiya $x_0 \in (a, b)$ nuqtaning biror $U_\delta(x_0) \subset (a, b)$ atrofida $f'(x), f''(x), \dots, f^{(n)}(x)$ hosilalarga ega bo'lib, $f^{(n)}(x)$ hosila esa x_0 nuqtada uzluksiz bo'ladi. Bu funksiya uchun $x \in U_\delta(x_0)$ da ushbu

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!} (x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!} (x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n-1)}(x_0)}{(n-1)!} (x - x_0)^{n-1} + \frac{f^{(n)}(c)}{n!} (x - x_0)^n \quad (14)$$

(bunda c son x_0 bilan x orasida) formula o'rinli.

$x \rightarrow x_0$ da $c \rightarrow x_0$ bo'ladi. $f^{(n)}(x)$ esa x_0 nuqtada uzluksiz. Demak,

$$\lim_{x \rightarrow x_0} f^{(n)}(c) = \lim_{c \rightarrow x_0} f^{(n)}(c) = f^{(n)}(x_0)$$

U holda

$$\frac{f^{(n)}(c)}{n!} = \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!} + \alpha(x)$$

Tengsizlik o'rinli bo'lib $\lim_{x \rightarrow x_0} \alpha(x) = 0$ bo'ladi.

Agar $x \rightarrow x_0$ da $\alpha(x) \cdot (x - x_0)^n = o((x - x_0)^n)$ bo'lishini etiborga olsak, natijada (14) formulaning qoldiq hadi uchun ushbu

$$\frac{f^{(n)}(c)}{n!} (x - x_0)^n = \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!} (x - x_0)^n + o((x - x_0)^n) \quad (15)$$

formulani topamiz. Endi (14) va (15) formulalardan

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!} (x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!} (x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!} (x - x_0)^n + \dots + o((x - x_0)^n) \quad (16)$$

Formula kelib chiqadi. Bu formula $f(x)$ funksiyaning *Peano ko 'rinishidagi qoldiq hadli Teylor formulasi* deb ataladi [1,2].

Yuqoridagi formulalarni tadbirlarini quyida bir qator misollar yordamida tadbirlarini ko'rib chiqamiz va misollarning yechimlarini tahlil qilamiz.

Misol 1: $f(x) = \frac{1}{x}$, $x_0 = 2$ [2,4] funksiyani Teylor formulasi bo'yicha X_0 nuqtaning atrofida $o((x - x_0)^2)$ hadgacha yoyilsin

Yechish: Ushbu misolning yechimini topish uchun, quyidagi

$$f(x) = f(x_0) + \frac{f'(x_0)}{1!} (x - x_0) + \frac{f''(x_0)}{2!} (x - x_0)^2 + \dots + \frac{f^{(n)}(x_0)}{n!} (x - x_0)^n +$$

$+ o((x - x_0)^n)$ formulaga qo'yamiz. Buning uchun berilgan Teylor formulasiga ko'ra quyidagilarni hisoblaymiz.

$$f(x_0) = \frac{1}{2}$$

$$f'(x) = -\frac{1}{x^2}, f'(x_0) = -\frac{1}{4}$$

$f''(x) = \frac{2}{x^3}, f''(x_0) = \frac{2}{8} = \frac{1}{4}$ larni topamiz va yuqoridagi formulaga qo'yamiz va quyidagini keltirib chiqaramiz.

$$\begin{aligned} f(x) &= \frac{1}{2} - \frac{1}{4}(x-2) + \frac{1}{2!}(x-2)^2 + \dots + o((x-2)^n) \\ &= \frac{1}{2} - \frac{1}{4}x + \frac{1}{2} + \frac{1}{8}x^2 - \frac{1}{2}x + \frac{1}{2} + \dots + o((x-2)^n) = \frac{1}{8}x^2 - \frac{3}{4}x + \frac{3}{2} + o((x-2)^n) \end{aligned}$$

Misol 2: $f(x) = xe^{2x}$, $x_0 = -1$ [2,5] funksiyani Teylor formulasi bo'yicha x_0 nuqtaning atrofida $o((x-x_0)^2)$ hadgacha yoyilsin

Yechish: Berilgan funksiyaning ham berilgan nuqta atrofida yoyish uchun xuddi yuqoridagi kabi Teylor formulasidan foydalanamiz va quyidagilarni hisoblaymiz.

$$f(x_0) = f(-1) = -1 \cdot e^{-2} = -\frac{1}{e^2}$$

$$f'(x) = e^{2x} + 2xe^{2x}, f'(-1) = e^{-2} - 2e^{-2} = -e^{-2} = -\frac{1}{e^2}$$

$$f''(x) = 2e^{2x} + 2e^{2x} + 4xe^{2x} = 4e^{2x} + 4xe^{2x}, f''(-1) = 4e^{-2} - 4e^{-2} = 0$$

Ushbu natijalarni Teylor formulasiga qo'yib,

$$f(x) = -\frac{1}{e^2} - \frac{1}{e^2} \cdot (x+1) + \frac{0}{2!} \cdot (x+1) + o((x+1)^n) = -\frac{1}{e^2} \cdot x - \frac{2}{e^2} + o((x+1)^n) \text{ ni topamiz.}$$

Demak, yuqorida berilgan funksiyaning $x_0 = -1$ nuqta atrofidagi yoyilmasi $f(x) = -\frac{1}{e^2} \cdot x - \frac{2}{e^2} + o((x+1)^n)$ ga teng bo'lar ekan.

Misol 3: $f(x) = x^2e^{-2x}$, $x_0 = -1$ [2,6] funksiyani Teylor formulasi bo'yicha x_0 nuqtaning atrofida $o((x-x_0)^2)$ hadgacha yoyilsin.

Yechish: huddi yuqoridagi ikkita misolda bajarilgan barcha ishlarni bajarib, Teylor formulasiga qo'yiladi va ushbu

$$f(-1) = (-1)^2 \cdot e^{-2 \cdot (-1)} = e^2$$

$$f'(x) = 2x \cdot e^{-2x} - 2x^2e^{-2x}, f'(-1) = -2e^2 - 2e^2 = -4e^2$$

$$f''(x) = 2e^{-2x} - 4xe^{-2x} - 4xe^{-2x} + 4x^2e^{-2x} = 2e^{-2x} - 8xe^{-2x} + 4x^2e^{-2x},$$

$$f''(-1) = 2e^2 + 8e^2 + 4e^2 = 14e^2$$

$$\begin{aligned} f(x) &= e^2 - 4e^2(x+1) + \frac{14e^2}{2}(x+1)^2 + \dots + o((x+1)^n) = e^2 - 4e^2x - 4e^2 + 7e^2x^2 + \\ &14e^2x + 7e^2 + \dots + o((x+1)^n) = 7e^2x^2 + 10e^2x + 4e^2 + \dots + o((x+1)^n) \text{ natija hosil bo'ladi.} \end{aligned}$$

ADABIYOTLAR:

1. Azralorov T., Mansurov H. *Matematik analiz 1-qism*. – Toshkent, O'qituvchi, 1994.
2. Sadulayev A., Xudoyberganov G., Vorisov A., Mansurov H., Shoimqulov B., Tuychiyev T., Sultonov N. "Matematik analizdan misol va masalalar to'plami" 1-qism.
3. Sh.R.Xurramov *Oliy matematika. I jild. Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2018*
4. Solayeva Mehribon Norimonovna *Teaching the concept of limit with the help of pedagogical research, interdependence of disciplines and methods of pedagogical practice" European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 5, 2020, Part II ISSN 2056-5852*
5. Солаева М.Н., Эшқораев Қ.А., Сейтов А.Ж. Баъзи бир мисолларни ажойиб лимитлар ёрдамида ноанъанавий услублардан фойдаланиб ечиши усуллари Муаллим ҳам узлуксиз таълим 1-1 2020 йил 109-113 бетлар.
6. Solayeva M. N., Seytov A. J. *Maktab o'quvchilariga ketma- ketlik va funksiya limitini o'rgatishdagi ba'zi misollarni ishlashning innovatsion uslublari Ilmiy axborotnoma 2020-yil, 4-son ISSN 2091-5446.*

CHEGARALANMAGAN SOHADA TRIKOMI TENGLAMASI UCHUN NOLOKAL
CHEGARAVIY SHARTLI CHIZIQLI TESKARI MASALA

Turakulov Xamidullo Shamsidinovich,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, PhD,
Qo‘qon universiteti dotsenti, PhD
hamidtsh87@gmail.com

Annotatsiya. Chegaralanmagan parallelepiped ko‘rinishdagi sohada uch o‘lchamli Trikomi tenglamasi uchun nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalani umumlashgan yechiminining yagonaligi va mavjudligi o‘rganilgan. Yagonalik va mavjudlik teoremlarini isbotlash uchun Furiye almashtirishi, " ε -regularizatsiya" va aprior baholar usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: uch o‘lchovli Trikomi tenglamasi, nolokal tipdagi chegaraviy masala, " ε -regularizatsiyasi", aprior baholar usullari, ketma-ket yaqinlashish, Furiye almashtirishi.

О ЛИНЕЙНОЙ ОБРАТНОЙ ЗАДАЧЕ С НЕЛОКАЛЬНЫМИ КРАЕВЫМИ
УСЛОВИЯМИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ТРИКОМИ В НЕОГРАНИЧЕННОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы корректности одной линейной обратной задачи для трёхмерного уравнения Трикоми в области неограниченного вида параллелепипеда. В этой статье задача рассматривается следующими методами: « ε — регуляризации», априорных оценок, последовательностью приближений с применением преобразования Фурье доказаны теоремы существования и единственности обобщённого решения одной линейной обратной задачи с нелокальными краевыми условиями в определённом классе интегрируемых функций.

Ключевые слова: трёхмерное уравнение Трикоми, линейная обратная задача с нелокальными краевыми условиями, корректность задачи, методы « ε — регуляризации», априорные оценки, последовательность приближения, преобразования Фурье.

A NONLOCAL BOUNDARY CONDITIONAL LINEAR INVERSE PROBLEM FOR THE
TRICOMI EQUATION IN AN UNBOUNDED FIELD

Abstract. This article discusses the correctness of one linear inverse problem for the three-dimensional Tricomi equation in a prismatic unbounded domain. For this problem, the existence and uniqueness theorems for a generalized solution to one linear inverse problem with a semi-nonlocal boundary condition in a certain class of integrals functions are proved by the methods of " ε — regularization", a priori estimates, a sequence of approximations using the Fourier transform.

Keywords: three-dimensional Tricomi equations, linear inverse problem with a semi-nonlocal boundary condition, problem correctness, methods " ε — regularization", a priori estimates, sequence of approximation, Fourier transforms.

Введение и постановка задачи. В процессе исследования нелокальных задач была выявлена тесная взаимосвязь задач с нелокальными краевыми условиями и обратными задачами. К настоящему времени достаточно хорошо изучены обратные задачи для классических уравнений таких как, параболические, эллиптические и гиперболические типы. [1,2,14,22]. Для уравнений смешанного типа, как первого, так и второго рода в ограниченных областях изучено в работах. [6-9,21].

Значительно менее изученными являются обратные задачи для уравнений смешанного типа (в частности, для уравнения Трикоми) в неограниченных областях [11,12]. Частично восполнить данный пробел мы и попытаемся в рамках этой работы. В данной работе для исследования однозначное разрешимости обратных задач для трёхмерного уравнения Трикоми в неограниченной призматической области предлагается метод, который основан на сведении обратной задачи к прямым нелокальным краевым задачам для семейства нагруженных интегро-дифференциальных уравнений Трикоми в ограниченной прямоугольной области [4,5].

Напомним, что нагруженным уравнением принято называть уравнение с частными производными, содержащее в коэффициентах или в правой части значения тех или иных функционалов от решения уравнения [17],[23].

В области

$$G = (-1,1) \times (0,T) \times R = Q \times R = \{(x,t,z); x \in (-1,1), 0 < t < T < +\infty, z \in R.\}$$

рассмотрим трёхмерное уравнение Трикоми:

$$Lu = xu_{tt} - \Delta u + a(x,t)u_t + c(x,t)u = \psi(x,t,z), \quad (1)$$

где $\Delta u = u_{xx} + u_{zz}$ - оператор Лапласа. Здесь $\psi(x,t,z) = g(x,t,z) + h(x,t) \cdot f(x,t,z)$, $g(x,t,z)$ и $f(x,t,z)$ - заданные функции, а функция $h(x,t)$ подлежит определению. В дальнейшем для решения поставленных задач нам необходимо ввести несколько определений функциональных

пространств и обозначения. Обозначим через $\hat{u}(x,t,\lambda) = (2\pi)^{-1/2} \int_{-\infty}^{+\infty} u(x,t,z) e^{-i\lambda z} dz$

преобразование Фурье по переменной z , функции $u(x,t,z)$, а через

$$u(x,t,z) = (2\pi)^{-1/2} \int_{-\infty}^{+\infty} \hat{u}(x,t,\lambda) e^{i\lambda z} d\lambda$$

обратное преобразование Фурье. Теперь с помощью преобразования Фурье определим пространство $W_2^{l,s}(G)$ с нормой

$$\|u\|_{W_2^{l,s}(G)}^2 = (2\pi)^{-1/2} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} (1 + |\lambda|^2)^s \cdot \|\hat{u}(x,t,\lambda)\|_{W_2^l(Q)}^2 d\lambda, \quad (A)$$

где s, l - любые конечные положительные целые числа.

Через $W_2^l(Q_1)$ (при $l=0, W_2^0(Q) = L_2(Q)$) определяются пространства Соболева со скалярным произведением $(u, \mathcal{G})_l$ и нормой:

$$\|\mathcal{G}\|_l^2 = \|\mathcal{G}\|_{W_2^l(Q)}^2 = \sum_{|\alpha| \leq l} \int_Q |D^\alpha \mathcal{G}|^2 dx dt.$$

Здесь

α - мультииндекс, D^α - обобщённая производная по переменным x и t .

Очевидно, что пространство $W_2^{l,s}(G)$ с нормой (A) является Гильбертовым пространством [13,15-18, 20].

Линейная обратная задача. Найти функции $(u(x,t,z), h(x,t))$, удовлетворяющие уравнению (1) в области Q , такие что, функция $u(x,t,z)$ удовлетворяет следующим нелокальным краевым условиям:

$$\gamma D_t^p u|_{t=0} = D_t^p u|_{t=T}, \quad (2)$$

$$\eta D_x^p u|_{x=-1} = D_x^p u|_{x=1}, \quad (3)$$

при $p = 0, 1$, где $D_t^p u = \frac{\partial^p u}{\partial t^p}$, $D_x^0 u = u$, γ, η - некоторые постоянные числа, отличные от

нуля, величины которых будут уточнены ниже,

Далее будем считать, что $u(x, t, z)$ и $u_z(x, t, z) \rightarrow 0$ при $|z| \rightarrow \infty$, $u(x, t, z)$ абсолютно интегрируема по z на R при любом (x, t) в \bar{Q} (4)

по дополнительному условию $u(x, t, \ell_0) = \varphi_0(x, t)$, где $\ell_0 \in R$ (5)

и с функций $h(x, t)$ принадлежит классу:

$$U = \{(u, h) \mid u \in W_2^{2,s}(G); h \in W_2^2(Q), s \geq 3\}.$$

Определение 1. Обобщённым решением задачи (1)-(5) будем называть функцию $u(x, t, z) \in U$, удовлетворяющую уравнению (1) почти всюду, с условиями (2)-(5)

Пусть все коэффициенты уравнения (1) достаточно гладкие функции в области G , и пусть выполнены следующие условия относительно коэффициентов и правой части уравнения (1), и заданной функции $\varphi_0(x, t)$:

Условие 1: периодичность: $a(x, 0) = a(x, T); c(x, 0) = c(x, T)$, для всех $x \in [-1, 1]$.

нелокальные условия: $\gamma \cdot g(x, 0, z) = g(x, T, z), \gamma \cdot f(x, 0, z) = f(x, T, z)$,

гладкость: $f(x, t, \ell_0) = f_0(x, t) \in C_{x,t}^{0,1}(Q), |f_0(x, t)| \geq \eta > 0; f \in W_2^{3,s}(G), g \in W_2^{1,s}(G)$.

Условие

2:

$$\varphi_0(x, t) \in W_2^4(Q); \gamma D_t^q \varphi_0|_{t=0} = D_t^q \varphi_0|_{t=T}, q = 0, 1, 2; \eta D_x^p \varphi_0|_{x=-1} = D_x^p \varphi_0|_{x=1}, p = 0, 1.$$

Abstract. This article examines the principles of the process of radical polymerization of monomers with O-, N-, S-, halogen-containing heterocyclic groups. The kinetics of radical polymerization of 6-bromo-BOMA was studied. The kinetics of radical polymerization of 6-bromine-BOMM have been studied. The importance of research in the field of high molecular weight compounds for improving their properties and durability in various fields of application is discussed. The polymerization process of 6-bromine-BOMM by a free radical mechanism in organic solvents with radical initiators is considered. The main focus is on determining the kinetic parameters of the reaction from the initial sections of the curves, which allows for a more complete understanding of the processes occurring during polymerization. The analysis of these parameters allows us to draw conclusions about the potential properties of polymers and their suitability for specific purposes in various industries. This approach is an important step towards creating materials with specified characteristics and increasing their effectiveness in various areas of the national economy.

Keywords: monomer, polymer, solvent.


6-BROM BOMMNING RADIKAL POLIMERIZATSIYA JARAYONINI TADQIQ QILISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O-, N-, S-, galogenli geterotsiklik guruhlar bilan monomerlarning radikal polimerlanish jarayonining tamoyillari ko'rib chiqiladi. 6-bromo-BOMM ning radikal polimerlanish kinetikasi o'rganib chiqildi. Yuqori molekulyar birikmalar sohasida ularning xossalari va chidamliligini yaxshilash uchun turli sohalarida qo'llash sohasidagi tadqiqotlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Radikal inisiatorlar bilan organik erituvchilarda 6-bromo-BOMM ning erkin radikal mexanizmi bilan polimerlanish jarayoni ko'rib chiqiladi. Asosiy masala sifatida grafiklarning boshlang'ich holatlarida reaksiyaning kinetik parametrlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu polimerlanish jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlarni to'liqroq tushunish imkonini beradi. Ushbu parametrlarni tahlil qilish polimerlarning potentsial xossalari va ularning sanoatning turli sohalarida aniq maqsadlarga muvofiqligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv ma'lum xususiyatlarga ega materiallarni yaratish va xalq xo'jaligining turli sohalarida ularning samaradorligini oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Kalit so'zlar: monomer, polimer, erituvchi.

Введение. Основной задачей в исследовании области высокомолекулярных соединений, является улучшение физико-химических, механических и биофизиологических свойств полимеров, а также прогнозирование их долговечности при использовании в различных отраслях народного хозяйства. Решение этой задачи сложно из-за разнообразия строения и свойств макромолекул и условий эксплуатации полимерных материалов.

В обзорных работах показано, что синтез и исследование процесса полимеризации мономеров винилового и акрилового ряда путём введения в боковую или основную цепь макромолекул функционально активных групп приводит к улучшению физико-химических свойств полимеров. Исходя из вышеизложенного, авторы [1] синтезировали мономер 2-тиобензтиазол (мет)акрилат взаимодействием щелочнометаллической соли 2-меркаптобензтиазола с (мет)акрилилхлоридом в гетерогенной среде в присутствии органического растворителя по схеме:



где, R – H, CH₃ Me – Na, K.


Далее этими же авторами исследован процесс полимеризации 2-тиобензтиазол-метакрилата. Установлено, что мономер хорошо полимеризуется в присутствии радикальных инициаторов в среде органических растворителей, а общая скорость полимеризации описывается уравнением:

$$W = K * [I]^{0.56} * [M]^{1.1+0.05}$$


Относительно небольшое отклонение порядка реакции по мономеру, инициатору, объясняется участием молекул 2-тиобензтиазолметакрилата в актах передачи цепи за счёт бензтиазольных групп. Найденное значение суммарной энергии активации процесса составляет 67,87 кДж/моль.

Установлено, что с увеличением содержания метакрилилхлорида в исходной смеси сомономеров в случае сополимеризации его метилметакрилатом наблюдается заметное уменьшение скорости в интервале концентрации метакрилилхлорида от 0,1 до 2,0 мол%, далее наблюдается равномерное снижение. Определения константы относительной активности сомономеров в системе МАХ: ММА r₁=0,20; r₂=0,45, а системе МАХ: ХП r₁= 0,10; r₂= 0,31. Очевидно, это обусловлено участием подвижного атома хлорангидридной группы в актах передачи цепи.


Для улучшения термостабильности авторы [2] синтезировали сополимеры с небольшим содержанием (до 0.2 моль %) метакрилилхлоридных звеньев при их последующем взаимодействии с натриевой солью 2-меркаптобензтиазола синтезировали и исследовали сополимеры со стабилизирующими звеньями в основной цепи макромолекул. Реакция протекает по схеме:



в случае сополимера хлоропрена и метакриллхлорида реакция проводится в бензольном растворе:



Синтезированы сополимеры метилметакрилата с 2-тиобензтиазолметилметакрилатом по схеме:



Методика исследования. Для синтеза и исследования полимеров использовались свежеперегранные мономеры, очищенные предварительной обработкой от примесей. Чистоту мономеров и растворителей контролировали по показателям преломления, значениям температур кипения и плавления, методами тонкослойной, газожидкостной и препаративно-жидкостной хроматографии[3].

В качестве растворителей и осадителей использовали: ацетон, бензол, диоксан, диметилформамид, диметилсульфоксид, тетрагидрофуран, хлороформ, метил, этил и изопропиловые спирты, гексан. Чистоту растворителей контролировали по температурам кипения, показателям преломления и газожидкостной хроматографии. Значения констант растворителей практически соответствовали литературным данным.

Бензоксазолинон технический - твёрдое порошкообразное вещество грязно-белого цвета очищали путём кипячения в водном растворе в присутствии активированного угля. Температура плавления 414-415 К.

6 - бромбензоксазолинон синтезировали по следующей методике: к раствору 5 г (0,037 моль) безоксазолинона 50 мл хлороформа добавляют 6 г (0,0375 моль) брома в 20 мл хлороформа при T = 20°C и перемешивают, осадок отделяют, промывают хлороформом и высушивают. Получают 7,5 г (94,67%) 6 - бромбензоксазолинона-2. Выход количественный.

6 -бром- гидроксиметилбензоксазолинон - мелкокристаллическое вещество практически нерастворимое в воде и хорошо растворимое в этаноле и диоксане.

Синтезированный мономер 6-бром-БОМА представляет собой бесцветное вещество с желтоватым оттенком. Хорошо растворим в диоксане, диметилформамиде (ДМФ), диметилсульфоксиде (ДМСО) и хлороформе. Плохо растворим в спиртах и практически не растворим в воде. Состав и строение мономера подтверждены результатами элементного анализа (таблица1).

Таблица 1.
Состав и температура плавления синтезированного мономера 6-бром-БОМА

Содинение	Брутто формула	Температура плавления К	Содержание, %			
			C	H	N	B _r
6-бром БОМА	C ₁₂ H ₁₀ O ₄ NBr	366-367	45,89	5,30	4,55	247
			46,15	3,21	4,49	264

ПРИМЕЧАНИЕ: В числителе приведены найденные значения, а в знаменателе - вычисленные значения

Кинетику радикальной полимеризации 6-бром-БОММА исследовали гравиметрическим и дилатометрическими методами. Дилатометрический метод основан на изменении объёма реакционной смеси[6]. Образование полимера обусловлено увеличением плотности, а, следовательно, уменьшением объёма реакционной смеси, что происходит по мере превращения мономера в полимер.

Для очистки от загрязнений и нейтрализации щёлочности стекла ампулы и дилатометры перед применением обрабатывали в течение 24 часов свежеприготовленной хромовой смесью, затем многократно промывали водой и сушили в термостате при 383 393 К. После этого определённый объём реакционной смеси загружали в дилатометр, присоединяли к вакуумной установке, замораживали в жидком азоте откачивали.

Кинетика полимеризации изучалась гравиметрическим методом. Для полимеризации очищенные мономеры с инициатором помещали в стеклянные ампулы, присоединяли их к вакуумной установке, где дозировали путём многократного замораживания и размораживания, при остаточном давлении. Далее запаянные ампулы помещали в термостат, где поддерживалась температура с точностью 273 ± 02 К. Через определённые промежутки времени ампулы вскрывали, полученные полимеры переосаждали из диоксановых растворов изопропиловым спиртом, сушили до постоянной массы в вакуумно-сушильном шкафу при комнатной температуре. Состав полимеров вычисляли по данным элементного анализа на азот и на бром.

Характеристическая вязкость растворов полимеров измеряли в капиллярных вискозиметрах типа Уббелодде по известной методике, допускающий последовательное разбавление исследуемого раствора в самом вискозиметре.

ИК- спектроскопические исследования проводились на спектрофотометре "Specord 75 IR" в интервале длины волн 500-4000 н.м. для чего порошкообразное исследуемое вещество таблетировали с бромистым калием.


Электронные спектры поглощения снимались на спектрофотометре СФ-466 с использованием кварцевых кювет толщиной 0,1 см. Растворы мономера и их смеси готовились диметилформамиде, диоксане. В диапазоне 200-350 н.м. спектры записывались на самописце, а в диапазоне 350-450 н.м. регистрировались по шкале спектрофотометра.

Термическую деструкцию полимерных образцов проводили методом дифференциально-термогравиметрического анализа на дериватографе.


Анализ собранных литературных данных [7-9] указывает на то, что мономеры и полимеры на основе гетероциклических соединений с конденсированными ароматическими ядрами, содержащие атомы галогена, серы, азота, кислорода обладают повышенной термо-, свето-, стабильностью и улучшенными физико-механическими эксплуатационными[10], а также биологически активными свойствами.

В связи с этим синтез и исследование процесса радикальной полимеризации 6-бром-2-оксо-3-бензоксазолметакрилата представляет несомненный теоретический и практический интерес.

Мономер 6-бром-БОМА получен взаимодействием N-галогенметилпроизводных бензоксазолонина с солями щелочных металлов метакриловой кислоты в среде сухого ацетона по схеме:



где Me – Na, K Hal – Cl, Br
или этерификацией 6-бромметилолпроизводных бензоксазолинона с метакриловой кислотой.



Однако, процесс этерификации из-за высокой активности мономера сопровождается частичной полимеризацией, что снижает выход целевого продукта. Реакцию этерификации проводили в присутствии катализатора серной кислоты с последующим добавлением последнего. Из такой сложной системы выделить мономер очень трудно. Поэтому независимо от многостадийности первый путь синтеза является более практически приемлемым в связи с отсутствием выше указанных недостатков и простотой аппаратного оформления синтеза.

Мономер идентифицирован УФ-, ИК-, ПМР-спектроскопическими и и Масс-спектрометрическим методом.

УФ-спектры бензоксазолинона, и алкил-2- алкилоксибензоксазолинона практически неразличимы, и характеризуется максимумом поглощения.

В УФ спектре 6-бром-БОМА отмечается максимум полосы поглощения при $\lambda_{\max}=289\ 291$ н.м., который при замещении водорода в шестом положении ароматического кольца бромом смещается в более длинноволговую область. (рисунок 1).

В ИК - спектре обнаружены полосы поглощения, которые интерпретировать следующим образом: 1725 - 1800 см Относится к карбонильной группе конденсированных бензоксазолиноновых и метакрилоильных радикалов, 1640 см⁻¹ относящийся к характеристической частоте поглощения C = C связи, 3100, 1400, 915 см относя к валентным колебаниям связи непредельной группы (CH₂=CH), 1200 1100 см относится к валентным колебаниям --C- связи, 850 - 1000 см характеризующий скелетное колебание 1,2,4- трёх замещённого конденсированного кольца бензоаксазолинона.

ПМР - спектр 6-бром-БОМА содержит сигналы при (8) 7,2-7,5 М.Д., Соответствующие протонам ароматические ядра; 5,7-6,10 м.д. метиленовой группы двойной связи CH₂ и протонам - CH₂-0- группы; 1,83 м.д. относящиеся к протонам CH₃ группы метакрилового радикала (рис.2).

Масс-спектр подтверждает структуру 6-бром-2-оксо-3-бензоксазолил- метилметакрилата: (M+ 312). Структура и пути образования наиболее характеристических фрагментов приведены на рисунке 3 (а и б).




Рисунок 1. УФ-спектры 2-оксо-бензоксазолилметакрилата (I) и 6-бром-2-оксо-3-бензоксазолилметакрилата (2).





Рисунок 2. ПМР - спектры 6-бром-2-оксо-3-бензоксазолилметакрилата






Рисунок 3. Масс-спектр 6-бром-2-оксо-3-бензоксазолилметакрилата

Полученные результаты и их обсуждение. Полимеризацию 6-бром-БОМА осуществляли по свободно радикальному механизму в среде органических растворителей в присутствии радикальных инициаторов. Кинетические параметры реакции определяли по начальным участкам кривых (до 12% конверсии).

ЛИТЕРАТУРА:

1. Яриев О.М., Алимова М.Г., Джалилов А.Т., Аскарлов М.А. Исследование сополимеризации хлоропрена с хлорангидридом метакриловой кислоты// Узб.хим.журн. Деп.ВНИИТИ. № 2151-75.
- 2.Яриев О.М., Джалилов А.Т., Едгоров Н.Н. Исследование сополимеризации хлорангидрида метакриловой кислоты с метилметакрилатом// Узб.хим.журн.1976. № 5. С.29-31.
3. Яриев О.М.,Мустафоев Х.М., Мавланов Б.А. Особенности радикальной полимеризации N, α-бензоксазолтионметилметакрилата. Деп.Рук. УзНИИТИ Ташкент. №1662, Уз.-1992.
4. Яриев О.М.,Мустафоев Х.М.,Бешимов Б.М., Мавланов Б.А. Внутримолекулярная стабилизация полиметилметакрилата и полистирола N, α-метакриловыми производными 2-меркаптобензоксазолтионом. Деп.Рук. УзНИИТИ Ташкент. №1663, Уз.-1992.
5. Мустафоев Х.М., Яриев О.М.,Кодиров Т.Дж., Мавланов Б.А. Исследование процесса сополимеризации 6-бром,2-оксо-3-бензоксазолилметилметакрилата с акриламидом N-винилпирролидоном. Ред.колл.узб.хим.жур. Ташкент,Деп. В УзНИИТИ №1950. Уз.93.
6. Мустафоев Х.М.,Яриев О.М.,Кодиров Т.Дж., Мавланов Б.А. Радикальная сополимеризация 6-бром, 2-оксо-3-бензоксазолилметилметакрилата с N-винилпирролидоном./ Ред.колл.узб.хим.жур. Ташкент,Деп. В УзНИИТИ №1950. Уз.93.
7. Мустафоев Х.М., Яриев О.М., Мавланов Б.А. Синтез и исследование радикальной полимеризации 6-бромбензоксазолилметилметакрилата./ Узбекский химический журнал. - 1994.№2.-с.61-63.
8. Худойназарова Г.А.,Ёриев О.М., Мавланов Б.А.,Мусаев С. Синтез и исследование сополимеров 6-Br-бензоксазолтионилметилакрилата со стиролом./ Пластические массы. -2000. -№ 10. –с.16-17.
9. Худойназарова Г.А.,Ёриев О.М., Мавланов Б.А. Copolymerization of styrene with benzoxazolthionylmethacrylates and benzoxazolthion-metylacrylates./ Ist international chemistry conference of chemistry University of Peshawar-Pakistan, 10-14 April. -2001.-p.184.
10. Мавланов Б.А. Исследование радикальной полимеризации гетероциклических эфиров метакриловых кислот./ Научный вестник Бухарского государственного университета. -2002, №2.-с.67-71.

TARKIBIDA ALKALOIDLAR BO‘LGAN KOFEIN SAQLOVCHI DORIVOR O‘SIMLIKLAR

*Boymurodov Eson Suyunovich,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti*

Annotatsiya. Uzoq muddatli evolyusion rivojlanish natijasida nafaqat inson va atrof-muhit, birinchi navbatda, o‘zib borayotgan dunyo o‘rtasida eng yaqin hayotiy munosabatlar o‘rnatildi. Fitopreparatlar va dorivor o‘simliklar xazinasini boyitish maqsadida tarkibida alkaloid saqlovchi o‘simliklardan yangi, samarali fitopreparatlar yaratish maqsadida xalq orasida va an’anaviy tabobatda ishlatiladigan dorivor o‘simliklarni hamda tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o‘simliklarning boshqa turlarini o‘rganib tibbiyotda qo‘llash mumkinligini yanada kengaytirish maqsadida o‘simliklarni qo‘llashning samaradorligini o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: purin alkaloidlari, kofein, vitaminlar, *Thea sinensis L, Coffea arabica L, Coffea liberica, Hex paraguariensis, Theobroma cacao L., Sterculia platanifolia L.*

**СОДЕРЖАЩИЕ АЛКАЛОИДЫ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ,
СОХРАНЯЮЩИЕ КОФЕИН**

Аннотация. В результате длительного эволюционного развития установились теснейшие жизненные связи не только между человеком и окружающей средой, но прежде всего между растущим миром. В целях пополнения базы фитопрепаратов и лекарственных растений, создания новых эффективных фитопрепаратов из растений, содержащих алкалоиды, возможно изучение лекарственных растений, применяемых в народной и традиционной медицине, и других видов лекарственных растений, применяемых в медицине. В статье будет изучена эффективность использования растений с целью дальнейшего расширения.

Ключевые слова: пуриновые алкалоиды, кофеин, витамины, *Thea sinensis L, Coffea Arabica L, Coffea liberica, Hex paraguariensis, Theobroma cacao L., Sterculia platanifolia L.*

CAFEINE-CONTAINING MEDICINAL PLANTS CONTAINING ALKALOIDS

Abstract. As a result of Long-Term Evolution, the closest life relationship was established not only between man and the environment, primarily the growing world. Fresh from alkaline retaining plants in the composition in order to enrich the treasure of phytopreparations and medicinal plants, in order to create effective phytopreparations, we will study the effectiveness of the application of plants in order to further expand their application in medicine by studying the medicinal plants used among the people and in traditional medicine, as well as other types of medicinal plants used in medicine.

Keywords: purine alkaloids, caffeine, vitamins, *Thea sinensis L, Coffea arabica L, Coffea liberica, Hex paraguariensis, Theobroma cacao L., Sterculia platanifolia L.*

Kirish. Tibbiyot tabiatga taqlid qilish san'atidir. Asrlar davomida mevalar- sabzavot ekinlari va boshqa dorivor o‘simliklar turli mamlakatlarda amaliy tibbiyotda qo‘llanilgan. Insonning o‘zi tabiatning bir qismidir. Uning hayoti evolyusion va tarixan atrof-muhit bilan chambarchas bog‘liq. Oila a‘zolaridan birida birinchi kasallik belgilari (bosh og‘rig‘i, yo‘tal, yuqori isitma holsizlik) kuzatilganda ularga, birinchi navbatda, yordam berishga harakat qilishadi. Hozirda keng tarqalgan mevalar, o‘simliklarda ko‘plam vitaminlar alkaloidlar mavjud. Uy sharoida ushbu o‘simlik va mevalardan foydalanish mumkun. Arterial qon bosimi tushgan, yoki ko‘tarilganda, jismoniy holsizlik bo‘lgan vaqtda, nafas qisishi hamda tana xarorati tushipketgan holatlarda, tarkibida kofein, teofillin saqlovchi o‘simliklardan tayorlanadigan vositalarni qo‘llaymiz.

Asosiy qism. Purin alkaloidlariga dioksimurin-ksantinning trimetilli va dimetilli unurlari: kofein, teobromin, teofillin va boshqa alkaloidlar kiradi. Kofein alkaloidini birinchi marta turli o‘simliklardan ajratib olib, uni choyda - tein, guaranada - guaranin va kofeda - kofein deb atalgan. E.Fisher XIX asr oxirida kofeinning kimyoviy tuzilishini aniqlagandan so‘ng 3 xiI nom bilan yuritiladigan tein, guaranin hamda kofein bitta alkaloid ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Keyinchalik bu birikma bir nom bilan kofein deb ataldi. Tibbiyotda bu guruhga kiradigan alkaloidlardan, asosan, kofein qisman teobromin va teofillin ishlatiladi.

Kofein markaziy nerv sistemasini qo'zg'atish, teobromin va teofillin esa siydik haydash ta'siriga ega. Kofein qizdirilganda - uchuvchan modda. Mahsulotda kofein bor-yo'qligini mikrovozgonka (mikrosublimate) usuli bilan aniqlash mumkin. Agar mahsulotda kofein bo'lsa, mikrovozgonka natijasida nina shaklidagi ingichka, oq kristallar hosil bo'ladi. Bu kristallar mikroskop ostida ko'riladi. Kofein turli oilalarga kiruvchi o'simliklardan bo'lsa-da, bu o'simliklarning hammasi ham alkaloid olish uchun mahsulot bo'la olmaydi. Kofein va teobromin alkaloidlari quyidagi o'simliklarda bo'ladi: Paullina cupana, Thea sinensis L., Cola vera K., Cola acuminata, Coffea arabica L., Coffea liberica, Hex paraguariensis, Hex cassine Mich., Theobroma cacao L., Sterculia platanifolia L. Qadim zamonlardan beri tarkibida kofein bo'lgan o'simliklar mahalliy xalq tomonidan organizmning umumiy tonusini ko'tarish uchun (markaziy nerv sistemasini qo'zg'atishda) ishlatib kelinadi. CHOY BARGI - FOLIA THEAE -Choy bargining tarkibida 2-5 foiz kofein, teofillin, teobromin alkaloidlari hamda ksantin, adenin, izatin va boshqa organik asoslar bo'ladi. Choy bargida alkaloidlardan tashqari, 20-28 foizgacha pirokatexin guruhiga kiradigan oshlovchi moddalar, flavonoidlar (kempferol, kversetin, miritsetin, kversimeritrin, giperin va boshqalar), fosforli organik birikmalar, temir va marganetsli nukleoproteidlari, nikotin va pantoten kislotalar, 0,01 foiz efir moyi bor. Urug'i tarkibida 9-10 foiz steroid saponinlar va 22-35 foiz yog' bo'ladi. Choy bargining oshlovchi moddalari «choy tanini», asosan, (75-78 foiz) katexinlar va ulaming gallat efirlaridan hamda oz miqdorda boshqa tanidlardan tashkil topgan. Ishlatilishi: Kofein markaziy nerv sistemasini qo'zg'atuvchi xususiyatga ega. Kofein narkotiklar bilan zaharlanganda, yuqumli kasalliklar natijasida yurak faoliyatining pasayishida hamda nafas markazi susayishida, qon aylanishining chuqur buzilishida (qon tomirlari kasallanganida), nerv sistemasini charchaganda va bosh og'riganda organizmning umumiy tonusini ko'taruvchi dori sifatida ishlatiladi. Teobromin alkaloidi esa ko'krak qisishi, ateroskleroz, gipertoniya kasalliklarini davolashda va siydik haydovchi dori sifatida ishlatiladi. Teofillin alkaloidi qon tomirini kengaytiruvchi (ayniqsa, yurak qon tomiri kasalligida) va yurak hamda buyrak kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Choy katexinlarining yig'indisi (ayniqsa, epikatexin) vitamin P ta'siriga ega bo'lib, gemorrogik diatezda (qon ketishi bilan xarakterlanuvchi kasallik), organizm shishgan vaqtida, ko'zga qon quyilganda va boshqa kasalliklarda ishlatiladi. Bargning oshlovchi moddalari preparati ich ketishi va boshqa me'da-ichak kasalliklarida foyda beradi. Dorivor preparatlari. Kofein (kukun (poroshok), tabletka holida chiqariladi), kofein natriy benzoat va kofein natriy salisilat (kukun (poroshok), tabletka va eritma holida chiqariladi), metilkofein (kukun (poroshok) va tabletka holida chiqariladi), teofillin (tabletka, eritma holida chiqariladi) va shamcha tarkibiga qo'shiladi. Bulardan tashqari kofein va teofillin alkaloidlari turli murakkab preparatlar tarkibiga kiradi.

Coffea arabica L.-Yangi kofe urug'larida kofein (0,65-2,7%), yog' (taxminan 12%), oqsil (13%) va shakar (8%) mavjud. Issiqlik bilan ishlov berishdan so'ng shakar miqdori 2-3% gacha kamayadi; kofelangan tanin kislotasi - 4-5% gacha; yog' miqdori 15% gacha, azotli moddalar 14% gacha, kofein 1,3% gacha ko'tariladi. Bundan tashqari, qovurilgan urug'larda PP va piridin vitaminlari mavjud; fenolik birikmalar, sirka kislotasi saqlaydi. HERBA ACONITI SOONGARICI RECENS; PARPI TUGANAGI - TUBER ACONITI- Ildiz tunganak tarkibida 2,35 foizgacha, alkaloidlar Gumladan, 0,6 foiz akonitin, 0,24 foiz zangorin va 0,1 foiz monoatsetil zangorin) bo'ladi. O'simlikning yer ustki qismi ham zahar bo'lib, tarkibida 0,5 foizgacha alkaloidlar saqlaydi. Mahsulot alkaloidlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Ko'p atomli aminospirtlarning o'simlik kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efirlari - akonitinlar. Bu birikmalar nihoyatda zaharli. 2. Sof holdagi aminospirtlar - atizinlar. Asosiy alkaloidi bo'lgan akonitinning gidrolizlanishi natijasida kam zaharli akonin, benzoat va sirka kislotalar hosil bo'ladi. Jung'or parpisi tunganagidan akonitindan tashqari yana zangorin, atsetilzangorin, norzangorin va boshqa alkaloidlar ajratib olingan. Ildiz tunganakda alkaloidlardan tashqari kraxmal va organik kislotalar bo'ladi. Ishlatilishi. Parpi o'simligining preparati og'riq qoldiruvchi vosita sifatida bod, nevrologiya, tish og'rig'i, migren va boshqa kasalliklarda ishlatiladi (teriga surtiladi). Bu o'simlik preparati nihoyatda zaharli bo'lganidan keyingi vaqtlarda deyarli ishlatilmaydi. Dorivor preparati. Quritilmagan yer ustki qismi va tunganaklarining nastoykalari. Tunganak nastoykasi radikulit, nevril, lumbago va boshqa kasalliklarda ishlatiladigan akofit preparati, o'simlikning yer ustki qismi hamda tunganak nastoykalari anginani davolashda ishlatiladigan anginol (exinor) preparati tarkibiga kiradi. Bu preparatlar ilgari ishlatilgan. Parpining yana bir turining yer ustki qismidan dorivor preparat olinadi va tibbiyot amaliyotida ishlatiladi. Kakao yoki shokolad daraxti, yoki kakao haqiqiy (lat. Theobroma cacao) - Teobroma (Theobroma) jinsidagi doimo yashil daraxtlar turi. Ilgari bu jins Sterculiaceae oilasiga kiritilgan bo'lsa, endi u Malvaceae (Malvaceae) oilasining Byttnerioideae katta oilasiga kiradi. O'simlik Janubiy Amerikaning subekvatorial mintaqalaridan kelib chiqqan bo'lib, qandolat sanoatida (asosan, shokoladning asosiy tarkibiy qismi sifatida) va tibbiyotda ishlatiladigan urug'larni olish uchun butun dunyo bo'ylab ikkala yarim sharning tropiklarida etishtiriladi. "Kakao" so'zi kakao daraxtining urug'lari va ulardan olingan kukun deb ham ataladi; ichimlikning o'zi ham xuddi shunday nomga ega.

Theobroma bicolor va *Theobroma subincanum* *Theobroma* jinsining boshqa turlari ham "kakao" ichimligini ishlab chiqarish uchun yetishtiriladi. Issiq ichimlik va shokolad kabi to'yimli makaron olish uchun Janubiy Amerikada teobromaning yana bir turi — kupuas (Theobroma grandiflorum) etishtiriladi. Bu o'simliklarning mevalarida teobromin tonik moddasi mavjud. Firmiana oddiy (lat. Firmiana simplex) o'simlik; Malvalar oilasining Firmiana jinsidagi tur. Ilgari bu tur Sterculiaceae (Sterculiaceae) oilasiga kirgan; APG II tasniflash tizimida Malvaceae (Malvaceae) oilasining Sterculioideae (Sterculioideae) kichik oilasiga tegishli. Oddiy firmiana barglarida quyidagilar mavjud: efir moyi (0,07 %), qatronli moddalar (4-5 %), organik kislotalar (2,5% gacha), taninlar (4% gacha), polisakkaridlar (9-10 %), askorbin kislotasi (0,9—1,2 %), alkaloidlarning izlari mavjud. O'simlik urug'larida kofein, teobromin, boshqa alkaloidlarning izlari, organik kislotalar (6,4%), yog'li moy (26%), ko'p miqdorda xolin va betain mavjud. Firmiana yovvoyi o'sadigan mamlakatlarda uning yog'ochlari eng yaxshi qog'oz navlarini olish uchun xom ashyo, qobig'i esa arqon tayyorlash uchun material bo'lib xizmat qiladi. Xitoyda kofein o'z ichiga olgan urug'lar kofe o'rmini bosuvchi sifatida iste'mol qilinadi. Umuman olganda, kimyoviy va fiziologik jarayonlar inson va o'simlik organlari, bir xil birlashtirilgan hayot fabrikasi paydo bo'ladi. Tabiat reseptlariga ko'ra, minglab o'simliklar, mevalar ular biz uchun ishlaydi. Ular o'nlab biologik faol yoki shifobaxsh moddalardan (vitaminlar, organik kislotalar, fermentlar, makro va mikroelementlar va bir qator boshqalar), inson tanasining o'sishi va rivojlanishi uchun zarur omillardir. Gippokrat aytganidek "Sizning ovqatingiz dori bo'lishi kerak va sizning dori-darmoningiz oziq-ovqat bo'lishi kerak". Qadimgi shifokorlar meva, rezavorlar, mevalarning dorivor xususiyatlaridan keng foydalanishgan, o'simliklar dori sifatida, ular tabiiy shaklda ishlatilgan. Kofein-bu inson tanasining ishlashi aktiv bo'lishi uchun zarur bo'lmagan moddadir. Kofein bizga oziq-ovqat energiyasini bermaydi. Aslida, kofein faqat mavjud energiya zaxiralaridan yanada samarali foydalanishga yordam beradi, buning o'rniga tanani yuklaydi. Kofein ko'plab oziq-ovqat va ichimliklarda, birinchi navbatda, qahva, choy va energetik ichimliklarda, kola va shokoladda mavjud. Shuningdek, sotuvda kofein o'z ichiga olgan shirinliklar, saqichlar, planshetlar va boshqalar mavjud. Kofein loviya, barglar va mevalarda yuzdan ortiq o'simliklarda uchraydi. Kofeinning eng yuqori konsentratsiyasi qahva o'simlikining loviya va barglari, choy, Yerba Mate, Guarana rezavorlari, kolada va kakaoda uchraydi. Pishirilgan qahva yoki filtrlı qahva 100 g yoki 100 ml uchun kofein miqdori taxminan 50-70 mg. kofe ichimliklarida kofein miqdori 100 g yoki 100 ml 20-30 mg. Energetik ichimliklarda kofein miqdori 100 g yoki 100 ml 20-55 mg, Kolada kofein miqdori 100 g yoki 100 ml da 10-13 mg ni tashkil qiladi, Qora choy kofein miqdori 100 g yoki 100 ml da 15-47 mg, yashil choyda 10-17 mg, sutli shokoladda 20-25 mg, qora shokoladda 65-75 mg kofein mavjud. Markaziy va periferik A1 va A2 adenzin retseptorlarini raqobatbardosh tarzda bloklaydi. Medulla oblongata markazlarini (nafas olish va vazomotor), shuningdek, markazni rag'batlantiradi n. vagus, miya yarim korteksiga bevosita qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi. Yuqori dozalarda orqa miya reflekslarini kuchaytirish orqali orqa miyada neyronlararo o'tkazuvchanlikni osonlashtiradi. Aqliy va jismoniy ko'rsatkichlarni oshiradi, aqliy faoliyatni, jismoniy faollikni rag'batlantiradi, reaksiyalar vaqtini qisqartiradi, charchoq va uyquchanlikni vaqtincha kamaytiradi. Nafas olishni tezlashtiradi va chuqurlashtiradi. Oshqozonning sekretor faolligini oshiradi. Proksimal va distal buyrak tubulalarida natriy va suv ionlarining reabsorbsiyasining pasayishi, shuningdek, buyrak tomirlarining kengayishi va buyrak glomerularida filtrlashning ko'payishi tufayli o'rtacha diuretik ta'sirga ega. Kofein tananing Markaziy asab tizimiga eng ko'p ta'sir qiladi. Kofein tezda so'riladi va uning ogohlantiruvchi ta'siri iste'mol qilinganidan 15-30 minut o'tgach boshlanishi va bir necha soat davom etishi mumkin. Iste'mol qilingan kofein 30-120 daqiqada qonga to'liq so'riladi va qon oqimi orqali miyaga etkaziladi. Kattalarda kofeinning 50 foizini tanadan olib tashlash uchun taxminan to'rt soat vaqt ketadi. Bu vaqt juda katta farq qiladi va yoshga, odamning tana vazniga, qabul qilingan dori-darmonlarga va boshqalarga bog'liq. Rag'batlantiruvchi ta'sir tufayli kofeinni ko'p miqdorda iste'mol qilish asabiylashish, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, qo'zg'aluvchanlik va uyqusizlik, uyqu buzilishiga olib kelishi mumkin. Trombotsitlar agregatsiyasini va gistaminning chiqarilishini kamaytiradi. Asosiy metabolizmni oshiradi: glikogenolizni oshiradi, lipolizni oshiradi. Kuniga 400 mg gacha kofeinni muntazam iste'mol qilish kattalardagi yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshirmasligi ma'lum. Shu bilan birga, har kuni kofein iste'mol qilmaydigan odamlarda kofein ta'sirida qon bosimining o'rtacha ko'tarilishi (sistolik va diastolik) va kofein miqdoriga qarab yurak urish tezligiga ta'siri kuzatilgan. Bradikardiya (yurak urish tezligi daqiqada 60 martadan past) yoki taxikardiya (daqiqada 100 martadan yuqori). Kofein yuqori dozalari bosh aylanishi, qon aylanishining buzilishi, aritmiya va qon bosimining pasayishi bilan namoyon bo'lishi mumkin. Qahvani yaxshi ko'radiganlar, filtrlanmagan usulda tayyorlangan kofe ichimliklarida, masalan, fransuz matbuotida juda ko'p kafestol borligini yodda tutishlari kerak. Kafe stoli qon zardobidagi xolesterin miqdorining oshishi bilan bog'liq. Kofein asab va yurak-qon tomir tizimidan tashqari boshqa organlarga ham ta'sir qiladi: kofein nafas olish tezligini oshiradi, kofein buyraklar orqali natriy va suvning chiqarilishini oshiradi, kofein oshqozonda xlorid kislota ishlab chiqarishni rag'batlantiradi,

kofeinni iste'mol qilgandan so'ng, siydikda kaltsiyning ko'payishi ham kuzatildi. Kofeinni ko'p iste'mol qilish ovqat hazm qilish tizimida ko'ngil aynishi, qusish, qorin og'rig'i yoki diareyaga olib keladigan buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kofeinni haddan tashqari iste'mol qilish bolalar, homilador ayollar, emizikli ayollar, oshqozon yarasi bo'lgan bemorlar yoki yuqori qon bosimi, yurak etishmovchiligi va aritmiya kabi yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan odamlar uchun sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi. Homiladorlik paytida kofeinni iste'mol qilish chaqaloqning tug'ilish vaznining past bo'lishiga olib kelishi mumkun. Uzoq vaqt davomida o'rtacha kofe ichish (kuniga taxminan 3 stakan) sog'liqqa ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Qahva yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirish bilan bog'liqligi aniqlandi. Shuningdek, kofe ichish 2-toifa diabet rivojlanish xavfini kamaytirishi mumkinligi aniqlandi. Qahva tarkibidagi antioksidantlar yallig'lanishni kamaytirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Bundan tashqari, qahvaning saraton o'smalari, Parkinson va Altsgeymer kasalliklarining ayrim turlarini oldini olishga ijobiy ta'siri bo'yicha tadqiqotlar mavjud. Filtrlanmagan qahva va shirin kofeinli ichimliklarni iste'mol qilishni cheklash kerak. Salbiy ta'sirlar filtrlanmagan qahva, shirin kofe ichimliklar va boshqa kofeinli ichimliklarni (masalan, energetik ichimliklar) kofeindan tashqari shakar iste'mol qilish natijasida yuzaga keladi. Filtrlanmagan qahva ichimliklari, masalan, frantsuz matbuotida pishirilgan qahva, ko'p miqdorda kafestolni o'z ichiga oladi, bu qon zardobidagi xolesterin miqdorining oshishi bilan bog'liq. Turli xil choylarda (o'simlik choylaridan tashqari) kofeinning xilma-xilligi va tayyorlash usuliga qarab sezilarli miqdorda kofein bo'lishi mumkinligi sababli, kechqurun choy ichishni cheklash yoki kofeinsiz choyi tanlash maqsadga muvofiqdir. Kofein suvning chiqarilishini va yurak urish tezligini oshirganligi sababli, jismoniy faollik paytida energetik ichimliklar kabi kofeinli ichimliklardan saqlanish kerak. Kofeinning terlash va siyishni kuchaytiruvchi xususiyatlarining kombinatsiyasi kuchli suvsizlanishga olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida yurak urishi va tana haroratining oshishiga olib keladi. Agar siz kofeinni kamaytirmoqchi bo'lsangiz, birinchi qadam yuqori kofeinli ichimliklardan past kofeinli yoki kofeinsiz ichimliklarga o'tish bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, iste'mol miqdori va yoki chastotasini kamaytirish kerak. Kofeinni muntazam iste'mol qilish unga nisbatanqaramlikni oshirishi mumkin. Shuning uchun kofeindan voz kechish, o'z navbatida, yoqimsiz hislar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kattalarda kofeinni olib tashlashning turli belgilari tasvirlangan: bosh og'rig'i, uyquchanlik, depressiya, tashvish, charchoq, asabiylashish va konsentratsiyaning buzilishi. Olib tashlash alomatlari foydalanishni to'xtatgandan keyin 1-2 kundan hatto bir haftagacha davom etishi mumkin. Qahvani istemol qilgandan so'ng ko'p miqdorda suyuqlik istemol qilish kerak. Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, kofeinning ta'sir qilish mexanizmidagi uning fosfodiesteraza fermentiga depressant ta'siri muhim rol o'ynaydi, bu siklik adenozin monofosfat (SAMF) ning hujayra ichidagi to'planishiga olib keladi. Siklik adenozin monofosfat mediator moddasi (ikkilamchi mediator) sifatida qaraladi, uning yordamida turli xil biogen dorivor moddalarning fiziologik ta'siri amalga oshiriladi. Siklik amf ta'siri ostida glikogenoliz, lipoliz jarayonlari kuchayadi, turli organlar va to'qimalarda, shu jumladan, mushak to'qimalarida va Markaziy asab tizimida metabolik jarayonlar rag'batlantiriladi. Oshqozon sekretsiasini kofein bilan stimulyatsiya qilish, shuningdek, oshqozon shilliq qavatida siklik amf tarkibining ko'payishi bilan bog'liq deb ishoniladi (shuningdek, qarang: teofillin, simetidin).

Xulosa. Kofeinning ogohlantiruvchi ta'sirining neyrokimyoviy mexanizmidagi uning o'ziga xos "purin" yoki miyaning adenozin retseptorlari bilan bog'lanish qobiliyati muhim rol o'ynaydi, buning uchun purin nukleozid — adenozin endogen agonist hisoblanadi. Kofein molekulasini va adenozinning strukturaviy o'xshashligi bunga yordam beradi. Adenozin miyadagi qo'zg'alish jarayonlarini kamaytiradigan omil sifatida ko'rilganligi sababli, uni kofein bilan almashtirish ogohlantiruvchi ta'sirga olib keladi. Kofeinni uzoq muddat qo'llash bilan miya hujayralarida yangi adenozin retseptorlari paydo bo'lishi mumkin va kofeinning ta'siri asta-sekin kamayadi. Shu bilan birga, kofeinni to'satdan to'xtatish bilan adenozin barcha mavjud retseptorlarni egallaydi, bu charchoq, uyquchanlik, depressiya va boshqalar bilan inhibitsioning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Xolmatov, H. X. (1995). *Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. – Toshkent.*
2. Xolmatov, H. X., & Habibov, Z. H. (1967). *Farmakognoziya [Darslik].*
3. Ibragimov, A. A., & Odilova, N. (2023). *Dastarbosh–tanacetum vulgare l. o'simligining botanik tavsifi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi, turli xil kasalliklarni davolashda dastarboshdan foydalanish. Hayka u технология в современном мире, 2(14), 69-70.*
4. Xolmatov, H. X., Habibov, Z. X., & Olimxo'jaeva, N. Z. (1991). *O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. Toshkent, "Ibn Sino" NMB.*
5. Murdaxayev Y.M. *O'zbekistonda dorivor o'simliklar. – Toshkent, 1990.*

БУХОРО ВОҲАСИДАГИ СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАР ТАҲЛИЛИ*Назарова Севара Мустакимовна,**Бухоро давлат университети доценти. қ-х.ф.ф.д. (PhD)**s.m.nazarova@buxdu.uz*

Аннотация. Мақолада Бухоро воҳасида тарқалган асосий суғориладиган тупроқларнинг таснифи, жумладан, эскидан суғориладиган ботқоқ-ўтлоқи, ўтлоқи тақир, тақирсимон, тақир, тақир-ўтлоқи, қумли-чўл, бўз-жигарранг, бўз-жигарранг ўтлоқи тупроқ типлари атрофлича баён қилинган.

Калим сўзлар: ўтлоқи чўл ва ўтлоқи тақир тупроқлар, ўрта ва енгил қумоқли, агрофизика, сизот сувлар, бўз жигарранг, гидроморф.

АНАЛИЗ ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ БУХАРСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В статье подробно описана классификация основных орошаемых почв, распространённых в Бухарском оазисе, в том числе староорошаемые болотно-луговые, бесплодные, бесплодно-луговые, песчано-пустынные, серо-бурые, серо-бурые луговые типы почв.

Ключевые слова: травянистые пустынные и травянистые пустынные почвы, средние и лёгкие пески, агрофизика, фильтрационные воды, серо-коричневые, гидроморфные.

ANALYSIS OF IRRIGATED SOILS OF BUKHARA OASIS

Abstract. The article describes in detail the classification of the main irrigated soils distributed in the Bukhara oasis, including old irrigated swamp-meadow, barren, barren-meadow, sandy-desert, gray-brown, gray-brown meadow soil types.

Keywords: grassy desert and grassy barren soils, medium and light sand, agrophysics, seepage waters, gray-brown, hydromorphic.

Кириш. Бухоро вилояти Зарафшон дарёсининг куйи оқимида жойлашган бўлиб. Бутун воҳа бўйича кенг ва қиска дарё ётқизикларида ҳосил бўлган майдонлардан иборат. Дарёнинг кенг қисмида Бухоро куйи қисмида эса Қорақўл воҳалари жойлашган.

Бухоро воҳаси Навойи – Конимех Хазаранинг туртиб чиққан Автобача ва Қизилтепа плотасининг учламчи ётқизикларига кириб боради.

Бу воҳанинг узунлиги 80 км, максимал кенглиги 50 кмни ташкил этади. Шарқда Хазаранинг туртиб чиққан, жанубий ғарбда Жангара бўйини, шимолда Қизилқум ва Автобача плотаси жанубда ва жанубий ғарбда Куюкмозор, Қизилтепа ва Девхона плотаси билан чегараланади.

Қорақўл воҳаси катталиги жиҳатидан бирмунча кичик ва ёши жиҳатидан ёш Зарафшон дарёсининг қуйида Жангара бўйинини Қорақўл плотасига кириб бориш жойида ривожланган. Воҳа шимолий – шарқдан Қорақўл плотаси, Жангара бўйини билан шимолдан Қизилқум қумлари ва Қорақўл платоси, жанубий - ғарбдан Зарафшон воҳасини Амударёнинг ўрта оқимидан ажратиб турувчи Сундукли қумлари билан чегараланади.

Асосий қисм. Бухоро вилояти қишлоқ хўжалигини табиий районлаштирилиши бўйича Ўрта Осиё чўл провинцияси жанубий Қизилқум ва шимолий Қизилқум округларининг субтропик чўл худудига киради.

Жанубий Қизилқум округида суғориладиган текис худуд жойлашган бўлиб Зарафшон дарёсининг ҳавза ва ҳавза олди ҳамда Бухоро ва Қорақўл дарёларининг қадимги чиқиш ирмоғи текислигини ўз ичига олади.

Объект сифатида худуднинг қолган қисмини Қизилқум чўли ишғол қилади. Чўл минтақаси Бухоро ва Қорақўл ирмоқларида асосан эскидан суғориладиган аллювиал ўтлоқи, ўтлоқи чўл ва ўтлоқи тақир тупроқлар тарқалган. Вилоятда кенг тарқалган ўрта ва енгил қумоқли механик таркибли ва суғориш билан банд бўлган эскидан суғориладиган ўтлоқи тупроқлар қишлоқ хўжалиги асосий экинлари учун мақбул агрофизик тартиботларни (сув, озика ва ҳаво алмашилиши ва ҳақозо) вужудга келтирса, Бухоро вилоятида кенг тарқалган тақирсимон, тақирсимон ўтлоқи ва сур тусли кунғир тупроқларда аксинча қийин мелиоратив ҳолатларни вужудга келтиради. Чунки бу тупроқлар учун хос

бўлган хусусиятларнинг у ёки бу даражада шўрланганлиги ва гипслашганлигидир. Маълумки, шўр ювиш жараёни оғир механик таркибли, айниқса, гипслашган тупроқларда жуда секин кетади.

Бухоро вилоятида учрайдиган агрофизик ва мелиоратив хоссалари ва тартиботлари жиҳатидан ёмон бўлган турли даражада ва қалинликдаги гипслашган тупроқлар жами майдони 2519 гектарни ташкил қилиб, шундан 1388 гектари кучсиз, 202 гектари ўртача ва 929 гектари кучли гипслашган тоифаларга киради.

Бухоро вилоятининг суғориладиган ҳудуди суптропик чўл минтақасига мансуб бўлиб, Зарафшон округининг Марказий Осиё провинциясига киради.

Бухоро вилояти чегарасида чўл минтақасининг гидроморф, автоморф ва оралик тупроқларни учратиш мумкин, улар турли ёшдаги ва генезисли ётқизикларда ҳосил бўлган. Энг кўп тарқалган суғориладиган ўтлоқи (эскидан янгидан суғориладиган ва янгидан ўзлаштрилган) тупроқлар. Улар қарийб ҳамма геоморфологик айирмаларда учрайди. Сизот сувлари 1-2 м (3) м чуқур яъни замин қатлами интенсив нам шароитда ҳосил бўлади.

Ирригация тармоқларида сув бўлган вегетация даврида суғориш ва шўр ювишда сизот сувлари чуқурлигини юқори жойлашганлигини гувоҳи бўламиз. Доимий ёки даврий сизот сувларнинг тепага қараб капилляр намланишдан пастга қараб капилляр намланишга нисбатан устунлик қилган шароитда ўтлоқи тупроқларни шўрланиши содир бўлади. Шу сабабли ўтлоқи тупроқлар фойдаланилганда яхши ишловчи коллектр – зовурлар билан таъминланган бўлиши зарур. Бу шароитни ҳамма геоморфологик айирмаларда амал қилиниши керак.

Суғориладиган ўтлоқи тупроқлар шўрланиш даражаси бўйича турлича; шўрланмаган ва кучсиз шўрлангандан кучли шўрлангунгача. Буларнинг ҳаммаси аниқ мелиоратив шароитни яъни сизот сувлари оқими сув ўтказувчанлик ва ўтказмайдиган қатламларни мавжудлиги ва уларнинг жойлашиш чуқурлиги ҳамда коллектр-зовур тизимлари билан таъминланганлиги билан ифодаланади.

Бухоро воҳасининг юқори қисми Зарафшон дарёси ирмоғининг ўрта ва айниқса, қўйи қисмига нисбатан мелиоратив шароити яхши. Худди шундай фикрни Қорақўл воҳаси тўғрисида ҳам айтиш мумкин.

Суғориладиган ўтлоқи, айниқса, аллювиал тупроқлар бутун кенглик бўйича механик таркибини турли – туманлиги билан, шу билан бирга вертикал кесма бўйича ҳам ажралиб туради.

Суғориш манбаларига яқин жойлашган ерларнинг механик таркиби бирмунча енгил, улардан узоқлашган сари оғирлашиб боради. Эскидан суғориладиган ўтлоқи тупроқларнинг юзаси агроирригация ётқизиклари билан қопланган, шу сабабли уларнинг таркиби бир хил. Агроирригация ётқизикларнинг қалинлиги 1-3 м гача. Механик таркибига кўра улар одатда ўрта – ва оғир кумоклидир.

Чўл худудининг бошқа тупроқларига нисбатан эскидан суғориладиган ва янгидан суғориладиган ўтлоқи тупроқларда гумус (1,1-1,4 %) ва азот (0,08-0,12 %) миқдори бирмунча юқори. Агроирригация ётқизикларда ҳосил бўлган тупроқларда аста – секин ва чуқур гумуснинг кириб бориши унинг заҳирасини тупроқ кесмасида оширади. Буларнинг ҳаммаси кўп йиллик деҳқончилик маҳсулидир. Кам маданийлашган ва енгил механик таркибли тупроқларда органик модда миқдори кам. Айниқса, суғориладиган қадимги аллювиал ва диллювиал – пролювиал ётқизикларнинг юза қатламларида ҳосил бўлган ўтлоқи тупроқлада унинг миқдори кам. Бу ерда ўтлоқи тупроқлар табиий унимдорлиги жуда паст бўлган суғориладиган кумли, бўз жигарранг ёки тақир тупроқларнинг эволюция ўзгариши натижасида ҳосил бўлган.

Суғориладиган ўтлоқи тупроқларнинг таркибида фосфатлар миқдори кам (3 дан 90 мг/кг гача) ва калий билан кам ва ўртача таъминланган. Тупроқларда гипс миқдори жуда кам (0,12 -0,25 %), шу сабабли шўртобланиш жараёнини ривожланишига қаршилик қила олмайди. Шунга кўра илдиз озикланиш қаватидан пастда айрим ҳолларда шўртобланиш жараёни намоён бўлади, натрий ва магний ионини сингдириш мажмуасига кириши кўзатилади. Шўртобланиш тупроқ сув ўтказувчанлигини камайтириб, суғоришдан кейин тупроқни парчаланишига ва бошқа ноҳуш ҳолатларни вужудга келтиради.

Тупроқларда карбонатлик ҳолати кесма бўйича бир хилда 8,8 -9,3 %. Умуман олганда, суғориладиган ўтлоқи тупроқлар юқори ишлаб чиқариш қобилиятига эга бўлган Бухоро вилоятининг қимматли ер фондини ташкил қилади.

Зарафшон дарёсининг қадимги ва ҳозирги давр ирмоқларида ҳамда унинг соҳил ва биринчи соҳил олди террасаларида тарқалган ўтлоқи тупроқлар ичида кичкина массивлар тарихида ботқоқ-ўтлоқи тупроқлар учрайди, уларнинг қатта қисми суғорилади. Бу тупроқлар пасткам ерларда сизот сувлари чуқурлиги 0,5-1 м, кучли шўрланиш жараёни шароитида ҳосил бўлади. Шу сабабли бу тупроқлар нафақат ботқоқланишга, шўрланишга ҳам мойил.

Эскидан суғориладиган ботқоқ - ўтлоқи тупроқлар биринчи соҳил олди террасасида учраб кам миқдорда шўрланган, қолган суғориладиган ботқоқ - ўтлоқи тупроқлар ўрта ва кучли даражада шўрланган.

Бу тупроқлар механик таркибига кўра оғир ва ўрта кумоклидир, аммо қадимги Зарафшон ирмоғи атрофида энгил кумокли - кумлоқлилар ҳам учрайди. Ботқоқ - ўтлоқи тупроқларнинг юқори қатламларида гумус миқдори 3 % атрофида ялпи фосфор ҳамда калий захиралари бўйича камбағал.

Шундай қилиб, суғориладиган ўтлоқи тупроқлар ичида ботқоқ-ўтлоқлар учрагандай воҳанинг чека қисимларида куруқ ташландиқ айрим ерларда кучли шўрхоклашган тупроқлар учрайди. Улар рельефнинг пастқам жойларини эгаллаган ва шу сабабли қийин мелиоратив шароитда жойлашган. Ташландиқ ҳолатда улар бирмунча шўрсизланган, аммо кейинчалик қайтадан суғорилиб фойдаланиш натижасида интенсив шўрланиш содир бўлади. Асосан, тузлар кесманинг юқори қатламида тўпланади. Бу тупроқлар гумусга камбағал (0,5 – 0,7 %). Механик таркибига кўра улар турлича: оғир кумоқдан кумлоқгача.

Ўтлоқи тақир тупроқлар Бухоро вилоятининг Зарафшон ирмоғининг фақат юқори қисмида тарқалган. Улар ўтлоқи тупроқларнинг бирмунча юқори рельефи қисмида ҳосил бўлган бўлиб, нисбатан сизот суви таъсирида кам намланади, унинг чуқурлиги 3 -4 (5) м. Максимал сув бериш даврида ва сувдан фойдаланишда сизот сувлари вақтинча 1 – 2 м гача кўтарилиши мумкин. Бухоро воҳасининг ўтлоқи тақир тупроқларининг ҳаммаси эскидан суғориладиган. Бу тупроқлар кесмасининг юқори қисми 1 -2 м гача агроирригация ётқизиқлари билан қопланган бўлиб, улар ўрта ва оғир кумоклидир. Юқорида жойлашагн майдонларда нисбатан сизот сувини оқими яхши бўлиб, ўтлоқи тупроқларга нисбатан ўтлоқи-тақир тупроқларда шўртобланиш жараёни кучсиз кечади. Шу сабабли улар кам шўрланган ва ювилган. Ўртача ва кучли шўрланган тупроқлар кам майдонларни эгаллаган. Шўрланиш типи сульфатли, кам ҳолатларда хлорид – сульфатли. Эскидан суғориладиган ўтлоқи тақир тупроқларни ҳайдалма қатламида 0,5 – 1,1 % гумус ва 0,04 – 0,12 % азот миқдори бўлиши мумкин. Кесма бўйича пастга қараб уларнинг миқдори камайиб боради. Ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчи калий миқдори билан кам ва ўртача таъминланган. Бу тупроқларда гипс миқдори жуда кам (0,08 – 0,42 %). Карбонатлар миқдори 7,4 дан 9,2 % гача тебранади.

Қадимги аллювиал ва пролювиал текислигининг суғориладиган худуди чегарасида тақирсимон тупроқлар учрайди. Уларнинг сизот суви чуқурлиги 5 м дан чуқур жойлашганда ҳосил бўлади. Табиий шароитда тупроқ кесмаси юзасида кучли қатқалоқ ҳосил бўлади, қатқалоқ ости ва зичлашган иллювий қатлами ажралади. Ундан пастда тупроқ ҳосил бўлишида кам ўзгарган ётқизиқ қатлами жойлашган.

Тақирсимон тупроқлар гидроморф тупроқларни эволюция занжири ривожланишини охирида уларнинг қурпиши ва саҳроланиши маҳсули ҳисобланади. Тақирсимон тупроқларининг яқин ўтмишдаги ўтлоқи тақирсимонлар ҳисобланади. Тақирсимон тупроқлар кесмасида кўкиш ва занг доғлари учраши уларни аввалги ҳолатида гидроморф шароитида бўлганидан далолат беради. Суғориладиган тақирсимон тупроқларга қишлоқ хўжалиги экинларини кўп вақт таъсир қилмаганлиги асосан янгидан ўзлаштирилган ва суғорилганлиги сабабли бўз тупроқлардан кесманинг юқори қавати билан фарқ қилади, яъни ҳайдов қаватини мавжудлиги бошқа суғориладиган билан бўз тупроқлар ўртасида кўзга ташланадиган фарқ йўқ.

Механик таркибига кўра тақирсимон тупроқлар асосан ўрта ва оғиркумоклидир. Пастга қараб қаватли қатлам жойлашган бўлиб, бирмунча энгил таркибли. Тақирсимон тупроқларнинг юқори қатламида гумус миқдори 0,6 - 0,8 % ни ташкил этади. У гидроморф ривожланиш поғонасидан ўтганлигини кўрсатади. Азот миқдори 0,05 – 0,07 % ни ташкил қилади. Карбонатлар миқдори унинг механик таркибига қараб ўзгаради ва 8 дан 13% гача тебранади. Бу тупроқларда гипс миқдори кам (0,136 -2,286 %).

Суғориладиган тақир тупроқлар, асосан, ўртача бўз-кўриқлари кучли даражада шўрланган, шўрланиш типии сульфат ва хлорид-сульфатли. Кўп давр суғорилиши натижасида сизот сувлари чуқурлигини 3 – 5 м гача кўтарилишига олиб келади. Бу цитологик – геоморфологик шароитларига боғлиқ ҳолда ёки ўзлаштирилиш даврининг охирида (янгитдан ўзлаштирилган тупроқлар тоифаси) ёки маданийлаштириш даврида (янгитдан суғориладиган тупроқлар тоифаси) содир бўлади.

Суғориш ва тупроқ-заминнинг капилляр намланиши таъсирида тупроқда гидротемик тартиботни тубдан ўзгаришига сабаб бўлади. Шу сабабли микробиологик фаоллик ривожланади ва органик моддани тезда ишланишига замин яратилади. Суғориладиган тақирсимон тупроқларда тесқари жараён бошланади – ўтлоқланишга қайтиш. Бу даврда тупроқларда тақирсимон ва ўтлоқи белгилари намаён бўлади. Тупроқлар ўткинчи – тақирсимон – ўтлоқига айланади.

Тақирсимон – ўтлоқи тупроқлар ривожланиш даврининг бошланишида тақирсимонлардан кам фаркланади. Тупроқга органик моддани миқдорини тушишини кўпайишига ва микробиологик фаолиятини кучайишига қарамасдан улар кам гумуслигича (0,7 – 0,8 %) қолади. Улардаги азот миқдори 0,06 – 0,07 %ни ташкил қилади. Механик таркибига кўра изоҳланаётган суғориладиган тақирсимон – ўтлоқи тупроқлар енгил кумоқли кўрик-бўз ташландиклари эса ўрта – оғир кумоқли ва шағалли 0,4- 1 м дан тошчалар учрайди, карбонатлар миқдори 8 – 10 %. Уларнинг миқдори қатламларнинг механик таркибини ўзгариши билан боғлиқ. Тақирсимон – ўтлоқи тупроқларнинг шўрланиш даражаси кучсиз ва ўртача. Тузларнинг таркибида сульфатлар устунлик қилади.

Қумли – чўл тупроқлари қум устида ўсимлик билан қопланганда ҳосил бўлади, эфимер ўтлар ўзининг илдизлари билан чириндили қатлам ҳосил қилади. Уларнинг қалинлиги чиринди остки қавати билан бирга 12-15 смни ташкил қилади. Чириндили рангланиш айрим ҳолларда 25-30 смгача бўлади. Тупроқнинг бу қатламида, асосан, ҳамма чиринди тўпланган, унинг миқдори 0,5 % гача, азот эса 0,04-0,05% , фосфор - 140-0,145% ни ташкил қилади.

Пастга томон ўткинчи қатлам карбонат яралмалари билан бирга, ундан кейин юмшоқ қум қатлам бошланиб улар тупроқ ҳосил қилувчи она жинс вазифасини ўтайди. Улар кўпинча шамол таъсирида парчаланган аллювий, пролювий ёки илдиз қумлари ҳисобланади. Сизот сувлари чуқурлиги 5 м дан чуқур. Қумли-чўл тупроқлар шўрланмаган ёки кучсиз шўрланган.

Кейинги даврларда қумли-чўл тупроқларини суғорма деҳқончиликда ўзлаштирилмоқда. Ерларни текислашда тупроқ юзасидаги чириндили қатлам йўқолади, қумли-чўл тупроқлар хусусиятларини юқотади. Амалда қумларни ўзлаштириш содир бўлиб, жуда кам миқдордаги органик мода йўқолади. Шамол эрозиясини олдини олиш ва уларни маҳсулдорлигини ошириш учун бу тупроқларга мажмуали махсус тадбирлар ўтказиш зарур, уларни лойқа сувлар билан суғориш, сидират экинлар экиш, оғир механик таркибли бентонит, глуконит ва шунга ухшаш ўғитлар қуллаш зарур. Бу тупроқларни ўзлаштириш коллектор-зовурлар тизими ўтказилган ҳолда амалга ошириш керак, акс ҳолда бу тупроқларни ўзлаштириш сувнинг сизилиши юқорилиги сабабли сизот сувларининг тез кўтарилишига олиб келади.

Суғориладиган қумли-чўл тупроқлар ўрта ва кучсиз даражада шўрланган. Доимий суғориш ва сизот сувларининг 3-4 м гача кўтарилиши қумли-чўл тупроқларининг гидротермик тартиботини ўзгартириб ва уларда чўл-ўтлоқи тупроқ ҳосил бўлиш жараёни содир бўлади. Гумус ва ўсимлик озик моддаларининг захирасига камбағал бўлган чўл-ўтлоқи тупроқларда шўрланиш жараёнини кучайиши бошланади. Уларнинг ичида ўрта ва кучли шўрланган айирмалари устунлик қилади. Зарафшоннинг Бухоро ва Қорақўл воҳалари чеккаларида айрим массивлар ҳолида воҳа чўл –ўтлоқи тупроқлари тарқалган.

Суғориш ҳудудининг чеккаларида бўз-жигарранг тупроқлар тарқалган. Улар сизот сувларининг чуқур жойлаши шароитида (10м дан чуқур) делювий-пролювий кенг тўлқинсимон текисликларда ва элювий учламчи плато ётқизикларида ҳосил бўлган. Бўз-жигарранг тупроқлар қадимги аллювиал текисликларида ҳам учрайди. Улар бу ерда қадимги аллювиал текисликлари ёшидан бир мунча катта текислик юзасида ҳосил бўлган. Ҳамма ҳолатда ҳам тупроқ ҳосил қилувчи жинслар турли механик таркибга ва дағал скелетли шағал тошли жинслардан иборат. Жойларда майда заррачалар тагида 1 метргача қалинликдаги майда тошчалар ётади. Тупроқ кесмасининг айрим жойлари куйи қатламларида гипсли қатламлар учрайди.

Бўз-жигарранг тупроқлар кесмаси қисқалиги билан фаркланади аммо кесма тўлиик ифодаланган, генетик қатламларга аниқ ажраган. Механик таркибига кўра бўз-жигарранг тупроқлар турли-тумандир: қумлоқи-қумдан оғир кумоқгача. Чиринди миқдори бу тупроқларда кам. Механик таркибига қараб унинг юқори қатламларида 0,2 дан 0,6% гача тебранади. Пастки қатламларда унинг миқдори 0,2-0,3%. Карбонатлар кесма бўйича 3дан 6% гача. Табиий ҳолатда бу тупроқлар юзасидан шўрланган эмас, аммо шўртобланишган. Тузлар миқдори 0,3-0,6 м чуқурликда 1-2% гача.

Янгитдан суғориладиган ўтлоқи бўз-жигарранг тупроқлар суғориш натижасида 25 йилдан ошиқ, янгитдан суғориладиган бўз-жигарранг тупроқларни таснифли белгилари куйидагилардан иборат: ҳайдов қатламининг юзаси куруқ, қумлоқли ёки енгил кумоқли скелет аралашмалар миқдори 20 дан 40% гача. Майда заррачалар миқдори камайиб қум пайдо бўлади. 1 метр пастдан тошчали ётқизик ҳосил бўлади. Кесма бўйича кам миқдорда гипс кристаллари ва занг доғлар учрайди. қатламларнинг бирдан иккинчисига ўтиши аниқ эмас, кесма қумлоқ, қум ва шағаллар билан аралаш ҳосил бўлган. Сизот сувлар чуқурлиги 3-4 м. Янгитдан суғориладиган бўз-жигарранг тупроқларнинг ҳайдов қатламида 0,35 дан 0,78 % гача, азот миқдори 0,036 дан 0,087% гача. Пастга қараб гумус миқдори кўпинча сақланади. Ҳаракатчан фосфор ва алмашинувчи калий билан кам таъминланган. Кесма бўйича карбонатлар миқдори 5-6 %. Гипс миқдори 0,23 дан 0,74% гача. Механик таркиби

бўйича янгитдан суғориладиган бўз-жигарранг тупроқлар, асосан, қумлоқли ва енгил қумоқли. Бу тупроқлар ил заррачаларининг камлиги ва кўп миқдорда майда қум заррачаларидан иборат. Бу тупроқлар юзасидан бошланадиган кучли тошлоқлиги ва скелетлиги билан (20-40% гача) ажралиб туради. Тупроқ сув ўтказувчанлиги юқори янгитдан суғориладиган ўтлоқи бўз жигарранг тупроқлар кам шўрланган, жойларда ювилган. Кесма тузларнинг тақсимланиши бир хил. Тупроқ шўрланиш типи хлорид-сульфатли.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Бухоро воҳасида суғориладиган ер майдонларининг асосий қисмини ўтлоқи тупроқлар ташкил қилиб, ундан ташқари эскидан суғориладиган ботқоқ-ўтлоқи, ўтлоқи тақир, тақирсимон, тақир, тақир-ўтлоқи, қумли-чўл, бўз-жигарранг, бўз-жигарранг ўтлоқи тупроқ типлари тарқалган бўлиб, улар турли механик таркибли ва турли даражада шўрлангандир.

АДАБИЁТЛАР:

1. *Атлас почвенного покрова Республики Узбекистан. – Ташкент, 2010.*
2. *Қурвантаев Р., Мусурмонов А. Тупроқ физикаси. – Гулистон, 120 б.*
3. *Почвы Узбекистана. – Ташкент: Фан. 1975. – 222 с.*
4. *Кузиев Р.К., Сектеменко В.Е. Почвы Узбекистана. – Ташкент: 2009. – 351 с.*

МЕВА ВА САБЗАВОТЛАРНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Зарипов Гулмурот Тоҳирович,
Бухоро давлат университети профессори
g.t.zaripov@buxdu.uz
Назарова Севара Мустақимовна,
Бухоро давлат университети доценти
s.m.nazarova@buxdu.uz
Жамолитдинова Юлдуз Шавкатовна,
Бухоро давлат университети магистри

Аннотация. Ушбу мақолада қизил сабзидан экстракт олишда ферментатив жараён билан органик кислоталарни экстракциялаш жараёнининг умумлаштирилган ҳолати ҳақида маълумот берилди. Шунингдек, фермент билан ишлов берилган шарбатни филтрланиши тезлиги аниқланади. Таъкидлаш лозимки, олинган натижалар асосида табиий хом ашёлардан экстракт ва композит тайёрланаётганда гидролитик ферментлардан фойдаланиши технологик жараёнларга ижобий таъсир этиб сифатли маҳсулот ишлаб чиқарилган. Таҳлилларга кўра, турли кислота ёрдамида ҳар хил экстракция давомийлигида олинган экстрактларнинг қуруқ моддалари аниқланган, сабзининг етилиши билан унинг таркибидаги полисахарид ва моносахаридлар, триглицерид ва протейн ҳамда минерал моддалар миқдори ошиши ва витаминлар ҳамда кислоталикнинг оз бўлса-да етилган сабзида камайиши таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: мева-сабзавотчилик соҳаси, озиқ-овқат хавфсизлиги, экстракция жараёни, технологик схема, алкоғолсиз ичимликлар, витаминлар, кислоталик.

ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ ФРУКТОВ И ОВОЩЕЙ

Аннотация. В данной статье процесс извлечения органических кислот ферментативным способом проведён в обобщённом состоянии. Определена скорость фильтрации ферментативно обработанного сока. На основании полученных результатов использование гидролитических ферментов при приготовлении экстрактов и композитов из природного сырья положительно повлияло на технологические процессы, и получен качественный продукт.

По данным анализа определено сухое вещество экстрактов, полученных при разной продолжительности экстракции с помощью разных кислот, увеличено количество полисахаридов и моносахаридов, триглицеридов, белковых и минеральных веществ в моркови, увеличено количество витаминов, и кислотность снизилась у моркови с небольшой кислотностью.

Ключевые слова: плодоовощная промышленность, безопасность пищевых продуктов, процесс экстракции, технологическая схема, безалкогольные напитки, витамины, кислотность.

TECHNOLOGIES OF FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING

Abstract. In this article, the process of extracting organic acids with an enzymatic process was carried out in a generalized state. The rate of filtration of enzyme-treated juice was determined. Based on the obtained results, the use of hydrolytic enzymes during the preparation of extracts and composites from natural raw materials had a positive effect on the technological processes, and a quality product was produced. According to the analysis, the dry matter of the extracts obtained at different extraction durations with the help of different acids was determined, the amount of polysaccharides and monosaccharides, triglycerides, protein and mineral substances in the carrot was increased, and the amount of vitamins and acidity decreased in the carrot with a small amount of acidity.

Keywords: Fruit and vegetable industry, food safety, extraction process, technological scheme, soft drinks, vitamins, acidity.

Қириш. Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар доирасида мева ва сабзавотларни қайта ишлаш саноатининг ишлаб чиқариш потенциалидан самарали фойдаланиш масалалари ҳам долзарб масалалар сифатида илгари сурилмоқда. Буларни инобатга олиб, жорий

этилган композитлар ва экстрактлар асосида озик-овқат саноатида янги турдаги маҳсулотларни ишлаб чиқариш технологиясини яратиш мақсадга мувофиқ.

Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлашни тўғри ташкил этиш, фан-техника ва илғор технологияларни тадбиқ этиш, хориж тажриба ютуқларини ўрганиб ишлаб чиқаришга кенг жорий этиш, улардан озик-овқат маҳсулотлари жумладан, алкоғолсиз ичимликлар ишлаб чиқариш масалалари ҳам атрофлича ёритилган.

Бугунги кунда мамлакатимизда мева ва сабзавот етиштириш ва уни қайта ишлаш соҳасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Айниқса, мамлакатимизда пахта ва ғалла ер майдонларининг ҳамда ўзлаштирилмаган ерларнинг мева ва сабзавотчиликка ихтисослаштирилиши маҳсулотларни қайта ишлаш соҳасининг ривожланишида муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Мева ва сабзавотларни етиштириш уларни сақлаш ва ўз вақтида қайта ишлаш мақсадида бир қатор қонунлар ва фармойишлар қабул қилинмоқда.

Асосий қисм. Республикаимизда бу соҳани жадал ривожлантириш мақсадида бир қанча қарор ва норматив ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 ноябрдаги “Республикада 2019-2020- йилларда мева ва сабзавот маҳсулотларини қуритиш қорхоналарини ташкил этишнинг манзилли дастури ишлаб чиқилган”(3).

Бундан ташқари, мева-сабзавотчилик соҳасида маҳсулот ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сақлаш, хизмат кўрсатиш ва сотиш (экспорт қилиш) жараёнларини ўзаро интеграция қилиш, кластерлар (кооперация) фаолиятини ривожлантириш, озик-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва экспорт ҳажмини ошириш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 15 декабрдаги ПҚ-52-сон “Мева-сабзавотчилик соҳасини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, тармоқда кластер ва кооперация тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида Қарорида ҳам етарлича эътибор қаратилган.

Ўлкаимизда мавжуд маҳаллий мева ва сабзавот шарбатларидан биологик фаол моддаларга бой бўлган ноанъанавий композицияларни қўшиб, турли хил алкоғолсиз ичимликлар ишлаб чиқариш технологияларини жорий этиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Мева ва сабзавотлардан алкоғолсиз ичимликлар учун композитлар тайёрлашда ҳам ашёни сифати ва экологик хавфсизлиги муҳим аҳамиятга эгадир. Маҳсулотни сифати ҳам ашё сифатига, кимёвий таркибига ва танланган технологик схемага боғлиқ. Танланган технологик схема шундай бўлиши керакки, у асосан ҳам ашё таркибидан инсон организми учун керак бўлган биологик фаол моддаларни ва микроэлементларни экстракцияга ўтишига имкон бериши керак.

Экстракция жараёнини жадаллаштиришнинг бир неча усуллари мавжуд. Биз ўзимизнинг тадқиқот ишларимизда композит тайёрлашда экстракция жараёнини жадаллаштиришнинг икки (органик кислоталар ва гидролитик ферментлар ёрдамида экстракциялаш) усулини ўрганиб чиқдик. Олинган натижалар қуйидагича таҳлил қилиб чиқилди.

Қизил сабзи мевасининг паренхим хужайраси бошқа мевалардан фарқи ўлароқ мустаҳкам пектин-целлюлозали хужайра қобиғи билан қопланган бўлиб, хужайра шарбатини ажратиш бир мунча ноқулайликларни келтириб чиқаради. Шарбатни тўлиқ ажратиш олиш учун хужайра қобиғини ва протоплазмани бузиш ва суюқликни хужайра ташқарисига эркин чиқишига имкон яратиш керак. Механик куч таъсирида сабзини юқори даражада янчиб амалга ошириш мураккаб бўлиб, кўп энергия талаб қилиш билан бирга шарбатнинг кимёвий таркибини кескин ўзгартиради. Жараёни нормал шароитда олиб бориш учун пектин-целлюлозали қобиғни бузишни нормал шароитда физик-кимёвий ёки ферментатив усуллар билан амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Сабзини электр майдалагичда янчиб олинган шарбатни механик ва кимёвий таркибини аниқланди. Қизил сабзини механик таркиби 1- жадвалда келтирилган.

1-жадвал.

Қизил сабзининг механик таркиби

Таркибий қисми	Ўлчов бирлиги	Миқдори
Умумий вазни	г/кг	1000
Пўстлоғи	г/кг	85-120
Эти	г/кг	880-915
Шарбати	мл/кг	560
Турпи («выжимка»)	г/кг	315
Шарбатдаги қуруқ моддалар миқдори	% (гр)	8 (44,8)
Турпи (выжимкаси) таркибида қолган, сувда эрийдиган	г/кг	8,1

қурук моддалар миқдори

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, оддий механик усулда майдалаш, сабзи меваси таркибидаги шарбатнинг тўлиқ ажратиш олишга имкон бермайди. Шунинг учун олинаётган шарбатни миқдори 56 % ни, уни таркибидаги қурук моддалар миқдори 44,8 г ташкил этди. Бунга сабаб қўлланилаётган майдалаш усули хужайра қобиғини тўлиқ бузишга имкон бермайди. Сабзи турпи (выжимкаси) қайтадан ҳарорати 70 С сув билан 20-30 минут давомида инкубация қилиниб, сувга ўтган қурук моддалар миқдори аниқланганда, сабзи турпида экстракция бўладиган 8,1 г қурук моддалар қолиб кетганлиги аниқланди.

Сабзи шарбати таркибидаги кимёвий моддаларнинг миқдори эса уни етилиш ва йиғиб олиш даврига боғлиқ.

Турли даврларда етиштирилган тоза сабзининг истеъмол қилинадиган қисмининг кимёвий таркибини 2- жадвалда келтирилган.

2-жадвал.

Турли даврларда етиштирилган сабзининг кимёвий таркиби


Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	Сабзи йиғиб олинган ой			
		Апрель	Май	Июнь	[136] маълумоти бўйича
Намлиги	%	94,6	93,4	88,86	
Полисахаридлар	г/кг	11,2	13,3	16,7	17,0
Шу жумладан: целлюлоза	г/кг	8,8	12	15	
Пектин моддалари	г/кг	2,4	1,3	1,7	
Моносахаридлар (Бертран бўйича)	г/кг	34,0	56,6	64,0	67,0
Узум кислотасига ҳисобланган органик кислоталар	г/кг	3,4	2,7	1,6	1,9
Триглицеридлар	%	0,08	0,10	0,15	
Протеин	г/кг	8,72	10,6	12,7	
Минерал моддалар	мг/кг	3269,1	3336,9	3518,8	2897,0
Шу жумладан: фосфор	мг/кг	481,5	495	520	
Кальций	мг/кг	455,7	459,2	490	510
Натрий	мг/кг	183,2	187,1	197	
Магний	мг/кг	376,6	384,7	392	380
Калий	мг/кг	1767	1805	1900	2000
Темир	мг/кг	5,1	6,0	6,8	7,0
Витаминлар	мг/кг	70,0	71,6	73,6	75,3
Шу жумладан: «С»	мг/кг	53,0	52,0	50,0	51,0
«В» гуруҳи	мг/кг	1,14	1,24	1,20	1,10
«РР»	мг/кг	4,10	6,02	8,90	10,0
β- каротин	мг/кг	11,66	12,8	13,5	13,2

Жадвалдан кўриниб турибдики, сабзи тўла пишган даврида унинг намлиги дастлаб етилган сабзига нисбатан камроқ, унинг таркибидаги қурук моддалар миқдори кўпроқ.

Қизил сабздан алкоғолсиз ичимлик учун композит тайёрлаш мақсадида сабзини майдалагичдан ўтказдик. Майдаланган сабзи таркибидаги экстрактив моддаларни экстракция қилиб ажратиш олиш учун дастлаб экстрагентнинг табиати, унинг экстракцияга тайёрланган маҳсулотга нисбатан мутаносиблиги, экстракция ҳарорати ва давомийлиги каби технологик омилларнинг оптимал катталикларини аниқлаш лозим.

Экстрактив моддалардан ранг ва ҳид берувчи моддалар хужайралараро бўшлиқда жойлашган бўлиб, бошқа биологик фаол моддалар ферментлар, протеин, гликоген, бевосита паренхим хужайра ичида жойлашган. Хужайралараро бўшлиқдан ва хужайра ичидан экстрактив моддаларни максимал экстракция қилиш учун протоплазматик мембранани емиртириш лозим.

Х.Т.Саломовнинг олиб борган илмий ва амалий изланишлари натижасида ўсимлик хужайрасининг протоплазматик мембранаси пектин моддаларининг ер-ишқорий металллар (калций, магний) билан ҳосил қилган протопектинлар тузилганлиги аниқланган. Ер-ишқорий металллар учун танловчи анион бўлиб оксалат ион хизмат қилади. Оксалат ионнинг миқдори озик-овқат маҳсулотлари таркибида чегараланганлиги сабабли экстрактив моддаларни экстрактга максимал ўтказиш учун бошқа органик ва озик-овқат маҳсулотларига рухсат этилган минерал кислоталардан фойдаланишни мақсад қилиб қўйдик. Шундай қилиб, экстракцияни органик кислоталардан лимон ва мой кислоталарини, минерал кислоталардан ортофосфат кислотасини ҳамда солиштириш мақсадида шовул кислотасини изланиш учун қабул қилиб олдик. Пектин моддаларини ўсимлик маҳсулотларидан экстракция қилиш учун экстрагент сифатида энг яхши самара органик ва минерал кислоталарининг $C=0,5\%$ ли эритмаси берганини назарда тутиб биз ҳам айнан $0,5\%$ -ли эритмалардан фойдаландик. Экстракция ҳароратини $t=70^{\circ}C$, давомийлигини эса $t=5$ дақиқадан $t=30$ дақиқача ҳар $t=5$ дақиқали интервалда қабул қилдик. $t=70^{\circ}C$ -ли ҳарорат озик-овқат маҳсулотларида ферментлар, витаминлар ва бошқа биологик фаол моддаларнинг емирилишига олиб келмайди. Майдаланган сабзи ва экстрагент эритмасининг мутаносиблиги (гидромодул)ни $\Gamma=1:5$ қабул қилдик [130]. Турли кислота ёрдамида ҳар хил экстракция давомийлигида олинган экстрактларнинг қуруқ моддаларини аниқладик. Тадқиқотлар натижалари 1- расмда график шаклида келтирилган.



Экстракция давомийлиги (дақиқа)

1-расм. Турли кислота таъсирида вақт (τ) давомийлигида экстракция қилинганда қуруқ моддаларнинг экстрактга чиқиш (%) ўзгариши

Ўзгариш чизиқларидан кўриниб турибдики, энг яхши экстрагент шовул кислотасининг $0,5\%$ эритмаси бўлиб, у 20 дақиқа ичида экстрактга $2,1\%$ қуруқ моддалар ҳосил қилади. Бошқача қилиб айтганда, сабзининг истеъмол қиладиган қисмидаги қуруқ моддаларнинг $71,8\%$ -ни экстрактга ўтказди:

$$K_m = \Gamma \times \varepsilon / (100 - W) \quad (1)$$

$$K_m = \Gamma \times \varepsilon / (100 - W) = 5 \times 1,6 \times 100 / (100 - 88,86) = 71,8\%$$

Бу ерда: K_m - қуруқ моддаларнинг экстрактга чиқиш даражаси, %

Γ - гидромодул

ε - экстрактдаги қуруқ моддалар, %

W - сабзи истеъмол қилинадиган қисмининг намлиги, %

Қуруқ моддаларни экстрактга ўтказиш хусусияти бўйича иккинчи ўринда лимон кислотаси туради. Лекин бу кислота шовул кислотаси каби қуруқ моддаларни экстракция қилиши учун жараён 5 дақиқача узаяди. Мой ва ортофосфор кислотаси қутилган натижани бермайди.

Шунинг учун изланишларимизга экстрагент сифатида лимон кислотасининг эритмасидан фойдаланилди.

Сабзидаги қуруқ моддаларни экстракция қилишнинг оптимал давомийлигини аниқлаш учун t , C , $\Gamma = \text{Сонст}$ бўлган ҳолда экстракция жараёнини $70^{\circ}C$ да, $1:5$ гидромодулда алоҳида-алоҳида $10, 15, 20, 25, 30$ дақиқа давомида олиб борилди. Экстракция жараёни тугагач, аралашма совутилиб, муҳитдан экстракт ажратиб олинди ва ундаги қуруқ моддалар миқдори рефрактометриқ усулда аниқланди.

Ўзгариш чизиғидан кўриниб турибдики, экстракция жараёни $70^{\circ}C$ да, $1:5$ гидромодулда, $0,5\%$ -ли лимон кислотаси эритмаси билан 25 дақиқа давомида олиб борилганда, сабзининг истеъмол қилинадиган қисмидаги экстрактив моддаларни экстрактга етарли даражада ўтказиши кузатилди.

Шундай қилиб, сабзининг истеъмол қилинадиган қисмидан куруқ моддаларни экстракция қилиб олиш учун экстрагент сифатида лимон кислотасининг 0,5%-ли эритмасидан фойдаланиб, жараёни 25 дақиқа давомида, 1:4 гидромодулда, 70°C ҳароратда олиб бориш мақсадга мувофиқ.

Қизил сабзининг истеъмол қилинадиган қисмидан тайёрланган экстрактнинг кимёвий таркиби ўрганилди. Ўрганиш натижалари 3-жадвалда келтирилган.

3-жадвал.

Қизил сабздан ичимлик тайёрлаш учун ажратиб олинган экстрактнинг кимёвий таркиби

Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	Миқдори
Куруқ моддалар	%	1,99
Моносахаридлар	%	2,0
Полисахаридлар	%	0,08
Шу жумладан: целлюлоза	%	0,07
Пектин моддалари	%	0,01
Протеин	г/дм ³	2,9
Триглитсеридлар	г/дм ³	0,3
Органик кислоталар	г/дм ³	5,10
Минерал моддалар	мг/дм ³	680
Шу жумладан: фосфор	мг/дм ³	101,2
Калсий	мг/дм ³	88,4
Натрий	мг/дм ³	34,0
Магний	мг/дм ³	82,4
Калий	мг/дм ³	353,6
Темир	мг/дм ³	20,4
Витаминлар	мг/дм ³	15,2
Шу жумладан: «С»	мг/дм ³	11,0
«В» гуруҳи	мг/дм ³	0,3
«РР»	мг/дм ³	0,9
В- каротин	мг/дм ³	3,0

Жадвалдан кўриниб турибдики, қизил сабздаги биологик фаол моддаларнинг асосий қисми экстрактга ўтган. Органик кислоталарнинг улуши экстрактдаги лимон кислотаси ҳисобига ошган. Моносахаридлар полисахаридлар гидролизи натижасида кўпайган. Триглитсеридларнинг кислотали муҳитда ёмон эриши натижасида уларнинг улуши камайган. Сабздан тайёрланган композитсиянинг аминокислоталар таркиби аниқланди. Олинган натижалар 4-жадвалда келтирилган.

4-жадвал.

Қизил сабзи композитсиядаги аминокислоталар таркиби ва миқдори

Аминокислоталар номи	Ўлчов бирлиги	Миқдори
Лизин	мг/дм ³	37
Треонин	мг/дм ³	26
Систин	мг/дм ³	29
Валин	мг/дм ³	33
Изолейсин	мг/дм ³	35
Лесин	мг/дм ³	15
Тирозин	мг/дм ³	-
Фенилаланин	мг/дм ³	-
Метионин	мг/дм ³	22
Гистидин	мг/дм ³	18
Аргинин	мг/дм ³	-
Аспарагин кислотаси	мг/дм ³	41
Глутамин кислотаси	мг/дм ³	45
Пролин	мг/дм ³	19
Аланин	мг/дм ³	-

Шундай қилиб, қизил сабзидан тайёрланган композицияда 11 та аминокислота аниқланиб, ундан олтитаси алмашмайдиган аминокислоталар тоифасига киради.

Бундан ташқари сабзининг етилиши билан унинг таркибидаги полисахарид ва моносахаридлар, триглицерид ва протеин ҳамда минерал моддалар миқдори ошади. Витаминлар ва кислоталилик оз бўлса-да етилган сабзида камаяди. Тўла етилган сабзининг ҳосилдорлигини ошишини назарда тутган ҳолда витамин ва кислоталиликнинг унчалик кўп бўлмаган массивий улушида камайишини эътиборга олмаса ҳам бўлади. Шунинг учун илмий изланишимизда тўла даражада етилган сабзидан фойдаланишни мақсадга мувофиқ деб топдик.

Хулоса қилиб айтганда, қишлоқ хўжалик маҳсулотларидан турли хилдаги композитлар ва экстрактларни тайёрлаб озиқ-овқат саноатида қўллаш, композитлар ва экстрактларнинг физик-кимёвий таркиби, хусусиятлари ва чиқимлари технологик шароитларда, жумладан, ҳарорат, давомийлик, фаоллик, мутаносиблик ва экстракциялаш жараёнига боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР:

1. Zaripov G. T., Nazarova S. M. *The USE of local vegetables raw materials in the production of the soft drinks* //The American journal of applied sciences. АКШ. – 2020. – Т. 2. – №. 10.

2. Zaripov G. T., Beshimov Y. S., Normurodov B. R. *Effect of concentration of alkaline solutions in production of paper semi-finished products from local raw materials* //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 45-49.

3. Қобилова Н.Х. *Мева ва сабзавотларни қайта ишлаш саноатининг ишлаб чиқариш потенциалидан самарали фойдаланиш истиқболари*. “Экономика ва социум” журнали. 2 сон. www.iuup.ru2022.

4. Пакровский А.А. *Химический состав пищевых продуктов*. –М.: Пещевая промышленность, 1976 -227 с

5. Зарипов Г.Т. *О биологически ценных компонентах тыквы и моркови* //Узбекский биологический журнал. –Ташкент, 2000 -№3 –с.56-58

6. Зарипов Г.Т. *Технология приготовления безалкогольного напитка на основе местного растительного сырья* // Проблемы интенсификации интеграции науки и производства: Сб.трудовМеждун. науч.-практ. конф. – Бухара, 2006. - С. 301-302.

7.Эгамбердиев Н.Б., Саломов Х.Т., Зарипов Г.Т. *Стабилизация безалкогольных напитков с использованием хлопкового пектина* // Тезисы Республиканской научно-технической конференции «Научно-практические аспекты комплексной переработки хлопчатника».-Ташкент, 1989.

8. Zaripov G. T., Beshimov Y. S., Normurodov B. R. *Effect of concentration of alkaline solutions in production of paper semi-finished products from local raw materials* //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 45-49.

9. Зарипов Г. Т., Саломов Х. Т., Мажидов К. Х. *Безалкогольный напиток, богатый биологически активными веществами* //Пиво и напитки. – 2005. – №. 3.

10. Зарипов Г. Т., Саломов Х. Т., Мажидов К. Х. *Безалкогольный напиток, богатый биологически активными веществами* //Пиво и напитки. – 2005. – №. 3.

11. Зарипов Г. Т. и др. *Изменение качества риса-зерна при послеуборочном дозревании* //Хранение и переработка сельхозсырья. – 2003. – №. 11. – С. 68-69.

12. Зарипов Г. Т. и др. *Кулинарные достоинства некоторых сортов риса, выращиваемых в Республике Узбекистан* //Хранение и переработка сельхозсырья. – 2003. – №. 10. – С. 64-65.

BOG‘DORCHILIKDA MAQBUL SUG‘ORISH TEXNIKASI ELEMENTLARINI QO‘LLASH

Sarimsaqov Maqsudxon Mo‘sinovich,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti,
q.x.f.d., prof.v.b., kafedra mudiri,
Xoliqov Sharifbek Dilmurod o‘g‘li,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti
Rasulberdiyev Jahongir Xasan o‘g‘li,
“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti magistranti
ingenering67@gmail.com

Annotatsiya. *Usbu maqolada, intensiv bog‘dorchilikda suv va yer resurslaridan samarali foydalanishda tomchilatib sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasi elementlarini qo‘llashning afzalliklari, sug‘orish texnikasi elementlarining suv iqtisodi hamda olma hosildorligiga ta‘siri to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *intensiv bog‘, tomchilatib sug‘orish, tuproqning namlanish chuqurligi, suv sarfi, sug‘orish me‘yori, suv iqtisodi, oziq-ovqat, meva, olma hosildorligi.*

ПРИМЕНЕНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ПРИЕМЛЕМОГО ОРОШЕНИЯ В САДОВОДСТВЕ

Аннотация. *В этой статье рассматриваются преимущества использования капельного орошения и элементов техники полива при эффективном использовании водных и земельных ресурсов в интенсивном садоводстве, а также влияние элементов техники полива на экономию воды и урожайность яблок.*

Ключевые слова: *интенсивный сад, капельное орошения, глубина увлажнения почвы, расход воды, норма полива, экономия воды, продовольствия, фрукта, урожайность яблок.*

APPLICATION OF ELEMENTS OF ACCEPTABLE IRRIGATION TECHNIQUES IN GARDENING

Annotation. *This article discusses the advantages of using drip irrigation and irrigation technology elements in the effective use of water and land resources in intensive gardening, as well as the impact of irrigation technology elements on water saving and apple yields.*

Keywords: *intensive garden, drip irrigation, soil moisture depth, water consumption, irrigation rate, saving water, food, fruit, apple yield.*

Kirish. Bugungi kunda respublika miqyosida mevali bog‘ maydonlarini kengaytirish, tez hosilga kiruvchi intensiv bog‘dorchilikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holati va unumdorligini yaxshilash kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Dunyo bo‘yicha yiliga 83,5 mln. tonnadan ziyod olma yetishtirilmoqda. «Bu sohada Xitoy, AQSh, Turkiya davlatlari yetakchilik qilmoqdalar. Shuningdek, olmani yetishtirish va eksport qilishda ham yetakchilik qilayotgan davlatlarda umumiy olma bog‘larining 90-95 foizini past bo‘lyi payvandtaglar, ya‘ni intensiv olma bog‘lari tashkil etadi». Mazkur bog‘larni sug‘orishda asosan tomchilatib sug‘orish tizimlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida 6,769 mln. gektardan ziyod ekin maydonlarida tomchilatib sug‘orish usulidan foydalanilmoqda. Shunday ekan, intensiv bog‘larni tomchilatib sug‘orishda maqbul sug‘orish usuli va texnikasi elementlarini ilmiy asoslash, tomchilatib sug‘orish me‘yor va muddatlarini belgilash hamda intensiv olma bog‘larining mavsumiy suv iste‘molini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2026-yilga qadar respublika bo‘yicha suv tejamkor texnologiyalar qo‘llanilgan maydonlar ko‘lamini 34,8 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Suv resurslari taqchilligi davrida sug‘orishni tejamkor texnika va texnologiyalar bilan modernizatsiyalashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi. «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi»da «...suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish, ishonchli ishlashi va xavfsizligini ta‘minlash, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarilishini tashkil etish, resurs

tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini tuproq-iqlim sharoiti va ekin turiga qarab takomillashtirish, samaradorligini oshirish va yangilarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot hamda loyiha-konstruktorlik ishlarini kengaytirish, yangi ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish ishlarini rag'batlantirish...» bo'yicha qator dolzarb masalalar belgilab berilgan.

Mavjud muammo. So'nggi yillarda yer yuzida global iqlim o'zgarishi, havo haroratining keskin ko'tarilishi, sug'orma dehqonchilik mintaqalari uchun qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Birinchi navbatda, sug'orma dehqonchilik hududda suv resurslarining mavjudligi, ularning mintaqa bo'yicha taqsimlanish hamda suv bilan ta'minlanishiga bevosita bog'liqdir.

Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston berk mintaqa hududida joylashgan bo'lib, asosiy suv manbasi transchegaraviy Amudaryo va Sirdaryo daryolari hisoblanadi. Mamlakatimiz dehqonchiligi uchun mazkur daryolardan yiliga 51 km³ suv olinib, 4300 ming gektardan ziyod maydonlarda dehqonchilik yuritilib kelinmoqda. Ushbu yerlarning 44,7 foiz qismi esa turli darajada sho'rlangan tuproqlardan iborat. Bu holat mazkur maydonlarda qishloq xo'jaligi ekinlaridan ko'zlangan hosilni yetishtirish imkoniyatini chegaralaydi. Umumiy sug'oriladigan yerlarning o'rtacha mahsuldorligini ta'minlash uchun esa 55,3 foiz unumdor yerlardan yuqori va sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ta'minlash va buning uchun qishloq xo'jaligida eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash ko'lamini kengaytirish talab etiladi.

Sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishda, yuqori daromadli ekin turlarini joylashtirish, barqaror hosil olishni ta'minlaydigan agrotexnologiyalarini amaliyotga joriy etish, ekinlarni sug'orishda suv tejamlorligini ta'minlovchi texnika va texnologiyalarni tatbiq etish, shu yo'l bilan xo'jalikning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Mevali bog' va tokzorlarni parvarishlash, o'g'itlash, sug'orish va boshqa agrotexnik tadbirlarni o'tkazish, ko'chatlarni ekish sxemasi, ularning me'yor va muddatlarini aniqlash borasida mamlakatimizning bir qator olimlari: M.M.Sattorov, Sh.T.Yusupov, N.V.Artamonov, S.Gavrilov, B.D.Mirzoxidov, Sh.Ya.Eshpo'latov, A.Qalandarov, A.A.Maxmudov, D.Mamadaliyev, U.Saydaliev, V.V.Kuznesov, B.Mirzoxidov, A.U.Aripov, R.M.Karimov, O.K.Afanasev, K.I.Baymetov, B.Sh.O'lmasboev, T.E.Ostanaqulov, S.X.Narzieva, A.X.Xamroxodjaev, D.M.Musaev, E.T.Toshmatov, B.X.G'ulomov, X.B.Shaumarov, J.N.Fayziyevlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarining qator olimlari: V.I.Rubgov, M.G.Agayev, V.N.Sukachev, T.A.Robotnov, Yu.L.Kudasov, K.G.Karichev, V.I.Budogovskiy, V.K.Smikov, G.U.Alekseyevlar hamda xorij olimlaridan G.S.Boosie, C.Rop, Trotr, S.Vertheist, P.Shutocher, K.Maurer, M.C.Parru, Man Oosten, Engerton, D.V.Ficher, L.C.Luckvill, D.J.Avru, P.J. Camer, E.V.Verpeij, D.J.Avery, H.V.Barlov, C.A.Priestrey, S.Veinbant, A.C.Dickson, R.C.Hatton, D.N.Madds, A.P.Preston, L.Vitterlinder, R.L.Norton, M.N.Vestwood, T.Forrest, H.Ferensio, R.Harald, D.K.Kindsaidlar turli davrlarda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O'zbekiston sharoitida tez hosilga kiruvchi intensiv bog'dorchilik sohasini rivojlantirish, yuqorida sanab o'tilgan qator muammolarning yechimini topishga qaratilgan muhim hisoblanadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) oziq-ovqat narxlari indeksiga ko'ra, hozirda jahon miqyosida, ayniqsa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqalarida, oziq-ovqat narxlari rekord darajada qimmat. EastFruit axborot-tahliliy platformasida e'lon qilingan FAO eksperti Andrey Yarmakning tahlillariga ko'ra, 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, sabzavot va mevalar narxi yanada keskin oshishi va tarixiy rekordlarni yangilashi ehtimollari juda yuqori ekanligi ta'kidlangan.

Statistika agentligining keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-113-son qarorida belgilab berilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash yuzasidan 2023-yil mamlakatimiz dehqon va fermer xo'jaliklari dalalaridan 3 mln 145 ming 117 tonna meva va rezavorlar yetishtirish prognoz qilingan bo'lib, 3 mln 121 ming 700 tonna, yoki 2022-yilga nisbatan 4,1% yuqori hosil yetishtirilgan. Bu sohada Andijon (696,8 ming t), Farg'ona (403,8 ming t), Samarqand (373,4 ming t) va Buxoro (366,7 ming t) viloyatlari bog'bonlari yuqori natijalarga erishganlar. 2024-yilning yanvar-fevral oylarida esa 150,1 mln dollar qiymatida (251 ming 200 t) meva va rezavor eksport qilingan.

Ilmiy tadqiqot uslublari. 2018-2019-yillar mobaynida Andijon viloyatlarining irrigatsiya eroziyasiga moyil, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida, intensiv olma bog'larni tomchilatib sug'orish usulida sug'orish texnikasi elementlari, sug'orish me'yori va muddatlarini belgilash, bog'larning mavsumiy suv iste'molini aniqlash hamda minimal suv sarfini ta'minlovchi sug'orish texnikasi elementlarini ishlab chiqish borasida tadqiqotlar o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot natijalari. Andijon viloyati Asaka tumani joylashgan hududi bo'yicha, Farg'ona vodiysining shimolda Tyanshan, janubda Xisor-Oloy tog' tizmalari bilan o'ralgan botiq bo'lib, shimoliy-g'arbdan Qurama va Chotqol tizmalari, shimoliy-sharqdan Farg'ona tizmasi bilan chegaralanadi.

Vodiyning yer yuzasi to'rtlamchi davrning allyuvial va prolyuvial - allyuvial cho'kindilardan iborat bo'lib, tuprog'i xilma-xil, och tusli bo'z tuproqlar dengiz sathidan 400-800 metr balandlikdagi maydonlarda uchraydi. Vodiyning 40,2 foiz maydoni bo'z tuproqlardan iborat.

Chor atrofi tog' tizimlari bilan o'ralgan Farg'ona vodiysining iqlimi ham keskin beqaror. Uning shakllanishida g'arbdan esadigan shamollar muhim o'rin tutadi. Bu shamollar asosan tez-tez esib, goho nam havo keltirsa, goho quruq havo keltiradi. Iyul oyidagi havoning eng yuqori harorati 42 °S, yanvardagi o'rtacha harorat -3 °S, eng past harorat -23-26 °S atrofida bo'ladi. Atmosfera yog'inlari miqdori vodiyning g'arbida 80-100 mm, sharqida 150-200 mm, shimolida 200-300 mm, tog' oldi tumanlarida 400-500 mm gacha yetadi.

Viloyatning ushbu hududlari bog'dorchilik, ayniqsa olma yetishtirish uchun juda qulay tuproq iqlim sharoitiga ega. Shuningdek, hudud yerlari asosan katta nishabliklarga ega, Asaka adir massivida joylashgan bo'lib, qishloq xo'jaligi ekinlari asosan nasoslar yordamida suv bilan ta'minlanadi.

Asaka tumanidagi intensiv olma bog' maydonlari joylashgan hudud katta nishablikka ega, eroziyaga chalinuvchan donador, qum va shag'al yotqiziqli och tusli bo'z va o'tloqi-bo'z tuproqlardan iborat bo'lib, tez namlanish hamda yuvilish xususiyatiga ega, suv o'tkazuvchanligi yaxshi. Mazkur tuproq sharoitida tomchilatib sug'orish usulining xo'jalikda qo'llanilayotgan sug'orish tartibi nazorat qilib qabul qilindi. Ushbu hududlarda tuproqning maqbul hisobiy qatlamini namlik bilan ta'minlash uchun 16-18 soat vaqt yetarli hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda suv resurslaridan samarali foydalanish hamda intensiv mevali bog'larni doimiy maqbul namlik bilan ta'minlab turish maqsadida tuproqning namlanish qatlami chuqurligini 0,8 m qilib belgilandi.

"Avtosanoat Agro" agrofirmasining intensiv olma bog'larida olib borilgan izlanishlar natijasida tuproqning 0,8 m qatlamini ChDNS ga nisbatan 75-80-70% tartibda belgilash, vegetatsiya davomida 1,0 m tuproq qatlamini namlik bilan ta'minlab sug'orilgan (nazorat) variantga nisbatan 16,4% sug'orish suvini iqtisod qilishni hamda olma hosildorligini 11,0 foiz yuqori bo'lishini ta'minladi.

"Kamalak rangli jilolar" MChJ ga qarashli intensiv olma bog'larida olib borilgan tajribalarda ham yuqoridagi tartib qo'llanilganda mavsumiy suv sarfi 6,4 foizga iqtisod qilinib, olma hosildorligini 12,5 foizga ko'tarishga erishildi.

1-jadval.

Sug'orish texnikasi elementlarining sug'orish me'yori va olma hosildorligiga ta'siri (TST ni qo'llash, 2 yilda o'rtacha)

Tar. №	Sug'orish oldi tuproq namligi, ChDNS ga nisbatan % hisobida	Tuproqning namlanish chuqurligi, m	Mavsumiy suv me'yori, m ³ /ga	Iqtisod qilingan suv miqdori, %	Olma hosildorligi, t/ga	Qo'shimcha hosil, ±
"Avtosanoat Agro" Agrofirmasi (6 yillik bog')						
1	70-70-65	1,0	2870	-	23,4	-
2	75-80-70	0,8	2400	16,4	26,3	+2,9
"Kamalak rangli jilolar" MChJ (3 yillik bog')						
1	70-70-65	1,0	2940	-	6,4	-
2	75-80-70	0,8	2530	13,9	7,2	0,8

Xulosa va tavsiyalar. Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida intensiv olma bog'larni ChDNS ga nisbatan 75-80-70% tartibda, tuproqning 0,8 m hisobiy qatlamini namlik bilan ta'minlab tomchilatib sug'orish tavsiya etiladi, ushbu usulda mavsumiy sug'orish me'yorini o'rtacha 16,6 foizga iqtisod qilish hamda olma hosildorligini 12,45 foizga yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-noyabrdagi PQ-3405-sonli "2018-2019-yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi PQ-3893-sonli "2018-yilda respublikada ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hamda ularni eksportga yetkazib berish hajmlarini ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4486-sonli "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son «O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва: Агрпромиздат, 1985. 122-131 с.
6. Духовный В.А., Хорст М.Г. Переход к ИУВР в низовьях рек Амударьи и Сырдарьи. Узбекистан. – Ташкент, 2011. – 11 с.
7. Духовный В.А. Капельное орошение – перспективы и препятствия». Сб. научных трудов по капельному орошению НПО «САНИИРИ». – Ташкент, 1995. – 32 с.
8. Ikromov T. tahriri ostida. Bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish: pakana va yarim pakana (intensiv) mevali bog'larni tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda yuqori talabga ega bo'lgan, yuqori hosildor uzum navlarini yaratish. – Toshkent: "Tafakkur", 2016. – 103 b.
9. Mamatov S.A. Mevali daraxtlarni tomchilatib sug'orish rejimi bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2015. 24 b.
10. Nurmatov Sh.N., Mirzajonov Q.M., Avlyaqulov A.E., Bezborodov G.A., Axmedov J.A., Tashaev Sh.J., Niyozaliev B.I., Xoliqov B.M., va b. Shamsiev A.S. tahriri ostida. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. – Toshkent. O'zPITI, 2007. 147 b.
11. Pakana bo'yli olma yetishtirish. 100 kitob to'plami, 49-kitob. "Agrobank" ATB. "Nashriyot" uyi "Tasvir" Colorpack MChJ. 2021.
12. Isaev, S., Sarimsakov, M., Sarimsakova, M., Turdaliev, A., Abdukhakimova, K., & Mirzaeva, M. (2023). Application of water-saving irrigation technologies of intensive apple orchards in the irrigated regions of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 389, p. 03052). EDP Sciences.
13. Musinovich, S. M. (2023, June). Drip irrigation intensive apple orchards and seasonal water consumption. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 6, pp. 8-14).
14. Musinovich, S. M., Khaitmuratovich, K. I., & Tulkunovna, U. Z. (2021). Application Of Water-Saving Technologies In Gardening Uzbekistan. *The American Journal of Agricultural and Biomedical Engineering*, 3(08), 1-8.
15. Hou, Y., Wang, Z., Ding, H., Li, W., Wen, Y., Zhang, J., & Dou, Y. (2019). Evaluation of suitable amount of water and fertilizer for mature grapes in drip irrigation in extreme arid regions. *Sustainability*, 11(7), 2063.
16. Khamidov, F. R., Imomov, S. J., Abdisamatov, O. S., Sarimsaqov, M. M., Ibragimova, G. K., & Kurbonova, K. I. (2020). Optimization of agricultural lands in land equipment projects. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 1021-1023.
17. Musinovich, S. M., Khaitmuratovich, K. I., & Raximovna, K. K. (2021). Innovative Irrigation Technology. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 514-520.
18. Sarimsakov, M. M., Abdisamatov, O. S., & Umarova, Z. T. (2020). Influence of elements of irrigation equipment on irrigation erosion. *Irrigation and Melioration*, 2020(2), 7-10.
19. Sarimsaqov, M.M. O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqasida intensiv olma bog'larni sug'orishning suv tejamkor texnologiyalarini ilmiy-amaliy asoslari (sug'oriladigan tipik bo'z va o'tloqi allyuvial, o'tloqi bo'z va och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)./ Qishloq xo'jaligi fanlari doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi Avtoreferati. Toshkent, 2023. 60 b.
20. Shoxo'jayev Z.S. Suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishda xorijiy tajribalar va uni mamlakatimiz qishloq xo'jaligiga tatqiq etish natijalari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal. Volume 2/issue 2. 2022. P 803-805.*

MUSIQIY WEB-SAYTNING TUZILISHI VA UNING XUSUSIYATLARI

*Qurbonova Dilnora Nuriddin qizi,
Buxoro davlat universiteti talabasi
dilnoraqurbonova3@gmail.com*

Annotatsiya. Bu maqolada musiqiy saytning qanday ko‘rinishi va ishlashi haqida, saytlarni foydalanuvchilar uchun yaxshi va osonroq qilishga yordam berishi haqida ma’lumot berilgan. Biz bu saytga ko‘proq insonlarni jalb qilishni muhokama qilganmiz. Qiziqqan har qanday kishi saytimizning kodini GitHub sahifamizdagi sayt bo‘limidan yuklab olishi mumkin. Kodimizni foydalanishini osonroq qilish uchun, barcha fayllar alohida papkalarga ajratilgan. Asosiy sayt kodi "index.html" nomli faylda joylashgan, unga saytning kodlari tushunishga oson bo‘lishi uchun sharhlar qoldirganmiz.

Kalit so‘zlar: CSS, musiqa, JavaScript, HTML, CMS tizimi, Multimediya, Google Analytics, SoundCloud, YouTube.

СТРУКТУРА МУЗЫКАЛЬНОГО САЙТА И ЕЁ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В этой статье рассказывается о том, как выглядит и работает музыкальный сайт, а также о том, как он помогает сделать сайты лучше и проще для пользователей. Мы уже обсуждали привлечение большего количества людей на этот сайт. Любой желающий может скачать код нашего сайта на нашей странице GitHub в разделе сайта. Чтобы наш код был проще в использовании, все файлы разделены на отдельные папки. Основной код сайта- "index.html", в котором мы оставили всплывающие подсказки для кодов сайта, чтобы их было легко понять.

Ключевые слова: CSS, музыка, JavaScript, HTML, система CMS, мультимедиа, Google Analytics, SoundCloud, YouTube.

MUSIC WEBSITE STRUCTURE AND ITS FEATURES

Abstract. This paper explores how a music website looks and works, aiming to help make webpages better and easier for users. We also share tips on getting more people to visit our website. Anyone interested can get the website's code from our GitHub page mentioned in the website section. To make our code easier to use, we've sorted all the files into folders. The main website code is in a file named "index.html," with simple comments added to help understand it better.

Keywords: CSS, music, JavaScript, HTML, CMS system, Multimedia, Google Analytics, SoundCloud, YouTube.

Kirish. Web-sayt atamasi har kuni bir necha marta qulog‘imizga chalinadi. Ushbu so‘z internet manzil ekanligini bilamizku, ammo web-sayt tushunchasi, uning asl mohiyati, nima uchun kerakligi, nega bu qadar ommalashib borayotganligi va balki o‘zimiz ham saytimizga ega bo‘lishimiz kerakligi haqida o‘ylab ko‘rmaymiz. Sayt yoki web-sayt inglizcha website: web – «o‘rgimchak to‘ri, tarmoq» va site – «joy, segment, tarmoqning bir qismi» degan ma‘nolarni anglatadi. Sayt – bu bitta domain nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog‘langan web-sahifalar to‘plami. Web-saytlar shaxs, guruh, korxonaga yoki tashkilot tomonidan turli maqsadlarda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy web-saytlar butun dunyodagi internet to‘rini tashkil qiladi.

Oddiy qilib aytganda, sayt – bu Internetda joylashgan, ba‘zi ma’lumotlarni (matn, video, fotosuratlar, hujjatlar, musiqa va hk) o‘z ichiga olgan manzil. Internet esa ushbu manzillar to‘plamidir.

Metodika. CERN (Yadro tadqiqotlari bo‘yicha Yevropa kengashi) uchun Tim Berners-Li tomonidan ishlab chiqilgan internetdagi birinchi veb-sayt 25 yoshga to‘ldi. 20-dekabrda dastlab ommaviy bo‘lmagan, biroq internet-kommunikatsiya va global tarmoqlarning keyingi rivoji uchun asos bo‘lgan birinchi veb-sahifa ishga tushgan edi [7]. Uni ishlab chiqarish g‘oyasi endilikda global tarmoqning “otasi” hisoblanuvchi Tim Berners-Liga tegishli bo‘lib, u veb-sahifa uchun HTML tilini ham ishlab chiqargan. U, shuningdek, hozirgi kunga qadar istalgan veb-brauzer ma‘lum bir internet manzilga o‘tish uchun foydalanuvchi URL identifikatori va HTTP protokolini ham yaratgan. Berners-Li o‘z faoliyatini davom ettirib, WorldWideWeb nomli birinchi veb-brauzerini, shuningdek, server uchun dasturiy ta‘minotni ishlab chiqdi. Bularni yaratishda u Stiv Jobsning kompaniyasi tomonidan chiqarilgan NeXT kompyuterida ishlagan. Berners-Lining birinchi

veb-saytdagi sahifasi “info.cern.ch” manzili bo'yicha joylashgan (u hamon amal qilmoqda). Ayni paytda turli xil web-saytlar mavjud: ta'lim, yangiliklar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat saytlari (onlayn-do'konlar), bloglar, lendinglar va h.k.[8]

Hozirda mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi va o'z mahsulotlarini taklif etuvchi shaxslar, kompaniya va tashkilotlar o'z web-saytlariga egalar. Xo'sh, internetdagi sayt ular uchun nega kerak? Sayt mijozlaringizni xizmat yoki mahsulotlaringiz haqida yil bo'yi, kecha-yu kunduz xabardor qiladi.

Siz o'z saytingizga havolaning takliflari, suhbat davomida, reklama materiallari va kataloglarda, qidiruv tizimlarida va shu kabi turli ma'lumotnomalarda taqdim etishingiz mumkin [1].

Qolaversa saytdagi ma'lumotlarni o'zgartirish va yangilash ham juda oson.

1. Bu avvalgi reklama bukletni modellashtirish, chop etish va mijozlarga yuborish kabi sarf-xarajatlarning oldini oladi.

2. Mijozlarni jalb qilish – web-sayt – xizmatlaringiz va mahsulotlaringizga buyurtma berish jarayonini soddalashtirish va mijozlarni jalb qilishda yordam beradi.

Potensial mijozlar kataloglar va internet orqali qidiruvda kalit so'zlarni kiritib sizning saytingizni topadilar, xizmat, mahsulotlar va shartlar bilan tanishadilar.

3. Mijozlarga xizmat ko'rsatish – web-sayt mavjud mijozlar bilan ishlash vositasidir. Uning yordamida internet orqali mijozlarga turli xil ma'lumotlarni taqdim etishingiz mumkin.

4. Axborot almashish – web-sayt kompaniya xodimlari va rahbarlarining o'zaro axborot almashinuv vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Agar siz hujjatlar, topshiriqlar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlarni saytga joylashtirsangiz, kompaniya rahbariyati va boshqa xodimlari kerakli ma'lumotlarni dunyoning istalgan nuqtasidan internet orqali olishlari mumkin bo'ladi.

5. Kompaniya imiji – sayt mavjudligi kompaniyaning taraqqiyoti va uning zamon talablariga muvofiqligidan dalolat beradi.

Domain ma'nosi – manzil, masalan: web-oqila.uz, bu yerda uz – domen zonasidir.

Server (xosting) – internetga ulangan, web-resurs fayllari joylashgan kompyuterlar/serverlar.

Hozirgi kunda sayt ochish sirlari degan tushuncha eskirgan. Endilikda turli internet xizmatlari va CMS tizimidan foydalangan holda hatto 3-sinf o'quvchisi ham o'zi mustaqil ravishda sayt yaratishi mumkin. Buning uchun hech qanday maxsus bilimlar talab etilmaydi, qolaversa saytni yaratish bepul.

Ammo shuni ham unutmaslik kerakki mustaqil ravishda yaratiladigan saytlarning barchasi odatiy shablon saytlar, ya'ni lending, tashrif sahifalari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, internet-do'konlar faqat eng asosiy funksional imkoniyatlarga ega bo'ladi, xolos. Agar sizga nostandart echimlarga ega eksklyuziv va mukammal web-sayt kerak bo'lsa, u holda mutaxassislariga murojaat qilishingiz zarur [2].

Musiqiy guruh web sayti yaratish uchun sayt quyidagi tuzilishga ega bo'lishi kerak. Saytning bosh sahifasida, musiqiy guruh haqida umumiy ma'lumot, so'nggi yangiliklar, konsertlar va yangi albomlar bilan ta'riflangan yangi xabarlar mavjud bo'lishi kerak. Web saytingizda guruhingizning musiqasi bilan tanishtirishga imkon beradigan sahifa bo'lishi mumkin. Bu sahifa yordamida odamlar musiqa yuklab olishlari mumkin, yangi taronalarni tinglashlari mumkin. Guruhingizning konsert jadvali va joylashuvi haqida ma'lumotlarni taqdim etadigan sahifa juda muhim. Bu joyda foydalanuvchilar konsertlar va shov biznes yangiliklari bo'yicha ma'lumot olishlari mumkin.

Web saytingizda guruh haqida yangi xabarlarini taqdim etadigan sahifa kerak bo'ladi. Yangi albomlar, musiqalar, konsertlar yoki xit musiqa yangiliklari bilan ta'riflangan yangi xabarlar foydalanuvchilarga qiziqarli bo'ladi. Bu sahifa yordamida foydalanuvchilar guruhingizning rasmiy videolari, fotosuratlarini va albomlarini yuklab olishlari mumkin [3].

Web-saytingizda guruhingiz a'zolari haqida ma'lumotlar bilan tanishtiradigan sahifa juda muhimdir. Bu sahifa yordamida guruhning a'zolari va ularning biografiyasi, ta'limoti haqida ma'lumotlar foydalanuvchilarga qiziqarli bo'ladi.

Foydalanuvchilar siz bilan aloqaga chiqishlari, savollarini yuborishlari yoki yangi takliflarni taqdim etishlari uchun web saytingizda aloqa sahifasi bo'lishi juda muhim. Bu elementlar musiqiy guruh web saytingizning asosiy qismlari bo'lib, eng muhim shuni tushunish kerakki, qiziqishni oshiradigan, mavzuni to'liq ifodalaydigan va qulay navigatsiyaga ega bo'lishi kerak. Musiqa guruhlarining web saytlari har bir guruh a'zosi uchun ko'plab imkoniyatlar va ma'lumotlar taqdim etadi. Bu loyihalarga obuna bo'lish, guruh haqida yangiliklarni olish va yangi mahsulotlarga ega bo'lish mumkin [4].

Musiqiy guruh web saytini yaratishda qo'llanilgan texnologiyalar. Musiqa guruh web saytini yaratishda tajribiy muhandislar va web dizaynerlar tomonidan musiqa guruhlari uchun maxsus texnologiyalarni qo'llash orqali tuzildi:

1. HTML/CSS/JavaScript: Bu temel texnologiyalar web saytining asosi bo'ladi. HTML ma'lumotlarni tuzish, CSS shakllarni tuzish, JavaScript esa saytga interaktiv funksiyalarni qo'shishga imkon beradi.

2. CMS sistemalar: CMS (Mazkur Kontent Tizimi) mazkur saytlarni oson tuzish, ushbu saytlarga ma'lumotlarni tezkor qo'shish va boshqarish imkoniyatini beradi. Bu CMS ga Wordpress, Drupal, Joomla va boshqa CMS lar misollar bo'ladi.

3. Responsive Dizayn: G'oyaviy guruh saytlari ko'p qurilmalar va qurilmalardagi turli ekranga moslashtiriladi. Bunday muhim bo'lib, ularga moslaydigan yoki kutilmagan dizayn yaratish imkonini beradi.

4. Multimediya Integratsiyasi: Musiqa va videolarni qo'shish uchun uyali integratsiya texnologiyalari, masalan, SoundCloud, YouTube va boshqa platformalar bilan integratsiya qo'llashimiz mumkin.

5. Sotsial Tarmoq Integratsiyasi: Bu guruh a'zolari bilan aloqa qilish va saytni sotsial tarmoqlarda bo'lish imkonini beradi.


6. Analitika va Statistika: Sayt foydalanishini nazorat qilish va boshqa analitik ma'lumotlarni to'plash uchun Google Analytics va boshqa vositalar qo'llanilishi.

7. Bu texnologiyalar yordamida musiqa guruhlarining rasmiy web saytlari tuziladi va ularga foydali funksiyalar qo'shiladi [5].

Musiqiy guruh web saytining afzalliklari va qulayliklari.

Musiqiy guruh web sahifalari katta imkoniyatni taklif etamiz, ular orqali guruh a'zolari har xil imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Bu quydagi bo'limlardan iborat:

- **Bosh sahifa:** Musiqa guruh web sahifalari o'zgaruvchan va imkoniyatli bo'lishi kerak. Aytmoqchi, siz musiqa guruh web sahifasining ularni xursand qilishga qaratilgan tushunchalarini olovliroq ko'rsatish uchun uning foydali asosiy xususiyatlarini keltirib olishimiz kerak.




1-rasm. Bosh sahifa

Bu oynada saytda qanday bo'limlar borligini ko'rishingiz mumkin va obunachilarni qiziqtirish maqsadida so'zlar yozilgan.

Musiqiy guruh web saytimizning asosiy sahifasi orqali eng so'nggi musiqalarni tinglashingiz mumkin.


- **Eng so'nggi xit musiqalar:** Musiqiy guruh web saytni yaratish, ma'lumotlar bazasini yaratish, qidiruvni osonlashtirish, interfeysni tuzish va boshqarishni osonlashtirish jarayonlari orqali foydalanuvchilarga tez va qulay kirish imkoniyatini beradi. Bu esa musiqa tinglash uchun tezlik va samarali boshqarish imkoniyatlarini oshiradi [10].



2-rasm. 1-bo'lim Eng so'nggi xit musiqalar

Bu bo'limda 2023-2024-yillardagi eng ko'p ko'rilgan va like yig'gan musiqalarni tinglashingiz mumkin.

- **Eng ko'p eshitilgan musiqalar to'plami:** Bu bo'limda albomlar, san'atkorlar haqida ma'lumot yoki boshqalar tomonidan kuchli tavsiya qilinganlarga ega bo'lgan musiqalar to'plamidir. Foydalanuvchilar bu musiqalarni eshitib eshitish, qiziqarli va o'zgarimas hislar ega bo'lishi mumkin.



3-rasm. YouTube tarmog'idagi eng ko'p ko'rilgan musiqalar va ijrochilarining rasmlari keltirilgan

- **Shou biznes vakillari:** Bu bo'limda shou biznes vakillari haqida ma'lumot olishingiz mumkin va ularning rasmlarini ko'rishingiz mumkin.



4-rasm. Shou biznes olamidagi qaynoq yangiliklar

INFORMATICS

● **Biz kimmiz bo'limi:** Bu bo'limda daturchilar haqida ma'lumot olish mumkin. Va bu saytning qulayliklar shu bilan birga sayt qayerga joylashganligi haqida ma'lumot olish mumkin. Bundan tashqari sayt haqida izohlar va xabar ham yuborish mumkin.

BIZ KIMMIZ?

Biz nima qilamiz?
BIZ SIZGA MP3 MUSIQA'LARNING ENG YAXSHILARINI TAKLIF QILAMIZ

Nega bizni tanlaysiz?
SIZ YOQIRGAN SHOU BIZNES VAKILLARINING SANATDAGI YANGILIKLARINI TAQDIM QILAMIZ

Biz qayerdamiz?
DUNYONING ISTALGAN MAMLAKATLARIDAN TURIB BIZNI TINGLASHINGIZ MUMKIN

TAKLIF VA E'TIROZLAR UCHUN

ISM FAMILIYA
Ism Familiyaningizni yozing

Electron pochta
Electron pochtagizni kiriting

Telefon raqam
Telefon raqamizni kiriting

YOZIB QOLDIRING
Xatingizni kiriting

Xabarni yuborish

5-rasm. Bog'lanish bo'limi

Bu bo'limda qanday taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa yozib qoldirsangiz bo'ladi.

● **Ro'yxatdan o'tish oynasi:** Agar foydalanuvchilar ro'yxatdan avval o'tgan bo'lsa, username va parollari orqali tizimga kirishlari mumkin. Agar ro'yxatdan o'tmagan bo'lsalar Sign up yozuvi ustiga bosib ro'yxatdan o'tishlari kerak bo'ladi. Foydalanuvchi parolni yoki loginni xato kiritsalar "login yoki parol xato" degan yozuv chiqadi.

Registratsiya Oynasi

Username

Password

Login

Forget password? Or Sign up

6-rasm. Ro'yxatdan o'tish oynasi

Xulosa. Ushbu maqolada musiqiy sayt yaratishda yordam beradigan dizaynga ega bo'lgan elementlar asosida sayt yaratilgan. Foydalanuvchilar musiqa dasturlarini ketma-ketlikda musiqiy guruhlariga bo'lingan holda yaratilgan saytlar orqali raqamli texnologiyalar asosida erkin va qulay foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Харрис Э. PHP/MySQL для начинающих. Пер с англ. –М.:КУДИЦ-ОБРАЗ, 2005. -364с.
2. Харрис Э. PHP/MySQL для начинающих. Пер с англ. –М.:КУДИЦ-ОБРАЗ, 2005. -384с.
3. Похоренок Н.А. HTML, JavaScript, PHP и MySQL. Дженгльменский набор Web-мастера. 3-е изд., перераб. и доп. –СПб.: БХВ-Петербург, 2010. -912 с.
4. Aripov., S. Dottoyev., M. Fayziyeva. Web texnologiyalari. Toshkent 2013yil. -280 bet.
5. Maxarov T.A., Maxarov Q.T., Rahimova M.A. Web dasturlash bo'yicha uslubiy qo'llanma. O'zMU, 2017y. -160b.
6. Robin Nixon. Learning PHP, MySQL&JavaScript with jQuery, CSS & HTML5, 4th Edition. O'Reilly Media. United States of America. 2015.
7. [7.https://www.w3schools.com](https://www.w3schools.com)
8. [8.https://www.free-css.com/free-css-templates?start=72](https://www.free-css.com/free-css-templates?start=72)
9. [9.https://wordpress.com/](https://wordpress.com/)
10. [10.https://github.com/Dilnora05/melodi](https://github.com/Dilnora05/melodi)

BIRJA NARXLARNING O‘ZGARISHLARINI BASHORATLOVCHI SUN‘IY INTELLEKT ALGORITMLARINING TATBIG‘I

*Mirzoyev Rajab Qahramon o‘g‘li,
Buxoro davlat universiteti magistranti
r.q.mirzoyev@buxdu.uz*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy dasturlash tillaridan foydalangan holda aksiyalar narxidagi o‘zgarishlarni bashorat qilish uchun sun‘iy intellekt algoritmlaridan foydalanish muhokama qilinadi. Qimmatli qog‘ozlar narxlarining o‘zgarishini bashoratlashni amalga oshirishning asosiy bosqichlari ham misol sifatida python tilidan foydalangan holda tasvirlangan.

Birja narxlari bashorati uchun sun‘iy intellekt algoritmlarining foydalanilishi, bashoratlash sohasidagi muhim muammolarni yechish va sifatli prognozlash uchun kritik muhimdir. Bu algoritmlar tahlil, bashoratlash jarayonlarini optimallashtiradi va muvaffaqiyatli ishlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Birja narxlari o‘zgarishlarini bashorat qilish uchun sun‘iy intellekt algoritmlaridan foydalanishning muhimligi va ularning amaliyotda qanday ishlayotganligi ko‘rib chiqilgan. Dasturda TensorFlow va NeuralProphet kutubxonalaridan foydalanilganligi, ularning aksiyalar narxlari tahliliy bashoratini aniqlash haqida ma‘lumotlar taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: AI algoritmlari, birja narxlari, bashoratlash, ko‘rsatkichlar, ma‘lumotlar, tahlil qilish, NumPy, Pandas, Matplotlib, Scikit-learn, Yfinance, Keras, streamlit, NeuralProphet.

ПРИМЕНЕНИЕ АЛГОРИТМОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ИЗМЕНЕНИЯ БИРЖЕВЫХ ЦЕН

Аннотация. В этой статье обсуждается использование алгоритмов искусственного интеллекта для прогнозирования изменений цен на акции с использованием современных языков программирования. Основные этапы реализации алгоритмов прогнозирования изменения цен на акции описаны с использованием языка Python.

Использование алгоритмов искусственного интеллекта для прогнозирования цен на акции имеет решающее значение для решения важных проблем в области качественного прогнозирования. Эти алгоритмы оптимизируют процессы анализа, прогнозирования и создают большие возможности для успешной работы.

Рассмотрена важность использования алгоритмов искусственного интеллекта для прогнозирования изменений цен на акции и того, как они работают на практике. Программа предоставляет информацию об использовании библиотек TensorFlow и Neuralprophet для определения их аналитических прогнозов цен на акции.

Ключевые слова: алгоритмы ИИ, цены на акции, прогнозы, индикаторы, данные, анализ, NumPy, Pandas, Matplotlib, Scikit-learn, Yfinance, Keras, Streamlit, NeuralProphet.

APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ALGORITHMS FOR PREDICTING CHANGES IN STOCK PRICES

Abstract. This article discusses the use of artificial intelligence algorithms to predict changes in share prices using modern programming languages. The main stages in the implementation of securities price change prediction algorithms have also been described using the python language as an example.

The use of artificial intelligence algorithms to predict stock prices is critical to solving important problems in the field of forecasting and qualitative forecasting. These algorithms optimize the processes of analysis, forecasting and create greater opportunities for successful work.

The importance of using artificial intelligence algorithms to predict changes in stock prices and how they work in practice is discussed. The program provides information on using the TensorFlow and neuralprophet libraries to determine their analytical stock price forecasts.

Keywords: AI algorithms, stock prices, forecasts, indicators, data, analysis, NumPy, Pandas, Matplotlib, Scikit-learn, Yfinance, Keras, Streamlit, NeuralProphet.

Kirish. Moliya bozori iqtisodiyotning eng dinamik va murakkab tarmoqlaridan biri bo'lib, u yerda birja narxlari bir necha soniya ichida o'zgarishi mumkin. Bunday noaniqlik sharoitida aksiyalarning narxini bashorat qilish o'z investitsiyalaridan maksimal foyda olishga intilayotgan investorlar va treyderlar uchun juda muhim vazifadir.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyasining rivojlanishi bilan ko'plab kompaniyalar aksiya bahosi o'zgarishini bashorat qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanishni boshladilar. Bu ularga katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida aniqroq va ishonchli bashoratlar olish imkonini beradi.

Mashinani o'rganish algoritmlari yordamida aksiyalar narxi o'zgarishini bashorat qilish uchun turli usullar qo'llaniladi. Ulardan ba'zilari foyda, daromad, dividendlar va boshqalar kabi kompaniyalarning fundamental ko'rsatkichlarini tahlil qilishga asoslangan. Boshqa usullarda texnik tahlildan foydalaniladi, u aksiya bahosi jadvallarini va boshqa texnik ko'rsatkichlarni tahlil qilishga asoslanadi.

Mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llash uchun bashoratlash amalga oshiriladigan ma'lumotlar to'plamiga ega bo'lish kerak. Ushbu ma'lumotlar to'plami qimmatli qog'ozlar narxlari bo'yicha tarixiy ma'lumotlar, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kabi narx o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillar bo'lishi mumkin.

Asosiy qism. Moliyaviy ma'lumotlar bilan bog'liq ilovalarni ishlab chiqish uchun turli kutubxonalar qo'llaniladi. Eng mashhur kutubxonalardan biri NeuralProphet kutubxonasidir. U Python dasturlash tilida mashinani o'rganish modellarini yaratish imkoniyatini beradi. Scikit-learn, NumPy, TensorFlow va Keras kabi boshqa kutubxonalar ham mavjud.[1]

Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlar narxini bashorat qilish uchun quyidagi usullardan keng foydalanib kelinmoqda:

1. Qimmatli qog'ozlar narxlari va narx o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillar bo'yicha tarixiy ma'lumotlarni to'plash.
2. Ma'lumotni tayyorlash: chegaralarni olib tashlash, etishmayotgan qiymatlarni to'ldirish, ma'lumotlarni masshtablash.
3. Ma'lumotlarni o'quv va test to'plamlariga bo'lish.
4. Mashinani o'rganish modelini tanlash: regressiya, neyron tarmoq yoki qaror daraxti.
5. Modelni o'quv majmuasida o'rgatish.
6. Sinov namunasi bo'yicha model sifatini baholash.
7. Aksiya bahosidagi o'zgarishlarni bashorat qilish uchun modelni qo'llash.

Sun'iy intellektga asoslangan mashinani o'rganish texnikasi aksiyalar narxi o'zgarishini bashorat qilishning aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shunday tadqiqotlardan birida mualliflar [2] tarixiy ma'lumotlarga asoslangan aksiyalar narxi o'zgarishini bashorat qilish uchun chuqur o'rganish algoritmlaridan foydalanganlar. Natijalar tavsiya etilgan algoritm yuqori bashorat aniqligiga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Yana bir tadqiqot ishida mualliflar [3] daromadlar, bozor kapitallashuvi va dividendlar kabi fundamental omillarga asoslangan aksiyalar narxining o'zgarishini bashorat qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanganlar. Natijalar tavsiya etilgan algoritm yuqori bashorat aniqligiga erishish mumkinligini ko'rsatdi.


Bir guruh mualliflarning tadqiqot ishlarida yangiliklar [4] maqolalari asosida aksiyalar narxining o'zgarishini bashorat qilish uchun konvolyutsion neyron tarmoqlari va takroriy neyron tarmoqlari kabi chuqur o'rganish usullaridan foydalanish asoslari keltirilgan. Tadqiqotchilar tomonidan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, konvolyutsion neyron tarmoqlari va takroriy neyron tarmoqlaridan foydalanish aksiyalar narxini bashorat qilishning aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin ekanligi qayd qilingan.

Shuningdek, aksiya bahosini bashorat qilish uchun turli xil mashinani o'rganish usullarini taqqoslagan tadqiqotlar ham mavjud. Misol uchun, mualliflar [5] aksiya bahosini bashorat qilish uchun chiziqli regressiya, tasodifiy o'rmon va gradient kuchayish samaradorligini taqqosladilar. Natijalar shuni ko'rsatdiki, gradientni kuchaytirish eng yaxshi bashorat aniqligiga ega.

Umuman olganda, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektga asoslangan mashinani o'rganish texnikasi aksiyalar narxi o'zgarishini bashorat qilishning aniqligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bundan tashqari, turli xil mashinani o'rganish usullari o'zlarining afzalliklari va kamchiliklariga ega va usulni tanlash aniq bashorat qilish vazifasiga bog'liq.

Bu tadqiqotning maqsadi birja narxlarining o'zgarishlarini bashoratlovchi sun'iy intellekt algoritmlarini o'rganish va ularning amaliyotda qo'llanilishi haqida ma'lum qilishdir. Maqola, birja narxlari bashoratlash sohasidagi muhim muammolarni tahlil qiladi va ularni hal qilishda sun'iy intellekt algoritmlarining qanday yordam berishi mumkinligini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy

sabablari, birja narxlarini prognostikasi sohasidagi muammolarning e'tirozlarini yechish va sifatli prognozlash uchun sun'iy intellekt algoritmlarining potentsialini tahlil qilishdir.



1-rasm. TensorFlow kutubxonasining ishlash algoritmining ko'rinishi


TensorFlow va NeuralProphet kutubxolaridan foydalanish yordamida birja narxlarini bashoratlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish mumkin.

TensorFlow, Google tomonidan ishlab chiqilgan, kuchli ma'lumotlar tahlilini va masofaviy o'qitish uchun maxsus yadro kutubxona. Bu platforma, katta miqdordagi axborotlar bilan ishlash, sinov o'tkazish va dasturlarni yaratishga imkon beradi. TensorFlow, katta miqdordagi matematik hisoblash operatsiyalarini bajarish uchun juda mashhurdir va katta kompaniyalar va sohalarda keng qo'llaniladi. [6]

Birja narxlarini prognostikasi uchun TensorFlow kutubxonasidan foydalanilganda, odatda neyron tarmoqlar (neural networks), qo'shma ma'lumotlar tahlili (deep learning), va bayesiy tuzumlar (Bayesian methods) kabi turli turdagi modellarni yaratish mumkin.

TensorFlow kutubxonasi yordamida birja narxlarini prognostikasi uchun moslashtirilgan neyron tarmoqlarini yaratish, ularga axborotlar to'plash, tahlil qilish va natijalarni olishda ishlatish mumkin.

NeuralProphet kutubxonasi zamon model (time-series model) o'rgatish va prognostikasi uchun yaratilgan Python kutubxonasi. NeuralProphet kutubxonasi Prophet modelining asosiy imkoniyatlariga qo'shimcha ko'p-yordamchi bir qatlamli neyron tarmoqni (multi-layer neural network) qo'shadi. [7]



2-rasm. NeuralProphet kutubxonasining ishlash algoritmining ko'rinishi

NeuralProphet kutubxonasidan foydalanish orqali, birja narxlarini prognostikasi uchun o'z vaqtli variantli modellarni yaratish mumkin. NeuralProphet kutubxonasidan Prophet modelining ustida ishlovchi, lekin ko'p qatlamlilikni qo'shib, prognostikatsiyada yuqori darajada aniqlik ta'minlaydi.

NeuralProphet kutubxonasini qo'llab-quvvatlash orqali, birja narxlarini tarixiy ma'lumotlariga asoslangan, eng so'nggi boshlang'ich ma'lumotlar orqali natijalarni olish mumkin. Bu zamonli model va neyron tarmoqlarning kombinatsiyasidan foydalanib, birja narxlarini prognostikasi uchun eng yaxshi natijalarni olishni ta'minlaydi.

Shunga ko'ra, TensorFlow va NeuralProphet kutubxolari, birja narxlarini prognostikasi uchun moslashtirilgan turli modellarni yaratish va amaliyotda ularni o'rganishda yaxshi vosita bo'lib, ko'p to'lovli natijalarni olish mumkin.

Natijalar. Loyiha doirasida, birja narxlarini o'zgarishlarini bashorat qilish uchun TensorFlow va NeuralProphet kutubxolaridan foydalanib, sun'iy intellekt algoritmlarini ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi dastlabki natijalar qo'lga kiritildi:




3-rasm. Bitcoin kriptovalyutasining usd valyutasiga nisbati. Haqiqiy qiymati

• TensorFlow yordamida LSTM modeli: Uzun qisqa muddatli xotira (LSTM) modeli yordamida o'tmishdagi ma'lumotlardan foydalanib, kelajakdagi narxlarni aniq bashorat qilishda muvaffaqiyatga erishildi (4-rasm). Modelning o'rtacha kvadratik xatoligi (MSE) va ildiz o'rtacha kvadratik xatoligi (RMSE) kutilgan darajadan past bo'ldi, bu modelning yuqori aniqlikdagi bashoratlarni taqdim etish qobiliyatini ko'rsatadi.

NeuralProphet kutubxonasi orqali bashorat: NeuralProphet kutubxonasi yordamida amalga oshirilgan tahlillar ham o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligi va yaxshi bashorat qilish qobiliyati bilan ajralib turdi (5-rasm). Bu kutubxona vaqt seriyalarini tahlil qilishda yangi yondashuvlarni taqdim etdi va bashorat aniqligini yaxshilashda muhim rol o'ynadi. 6-rasmda neuralprophet kutubxonasining 2023-yilning mart oyining oxirigacha bo'lgan bashorati

• Ma'lumotlar to'plamining tahlili: Birja narxlarini ma'lumotlar to'plami ustida olib borgan tahlillarimiz, muayyan naqshlarni va trendlarni aniqlashga yordam berdi. Bu naqshlar va trendlar kelajakdagi narx o'zgarishlarini bashorat qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.



4-rasm. Tensorflow kutubxonasi orqali aniqlangan bashorat



5-rasm. Neuralprophet kutubxonasi orqali aniqlangan bashorat



6-rasm. Bitcoin kriptovalyutasining usd valyutasiga nisbati 2023-yilgacha

Dastlabki natijalar asosida quyidagi qarorlarga kelindi:

- Modelni optimallashtirish: LSTM modelining aniqligini yanada oshirish uchun parametrlarini va arxitekturasini optimallashtirish rejalashtirilmogda. Shuningdek, NeuralProphet modelini yanada sozlash orqali bashoratlar sifatini yaxshilash koʻzda tutilgan.

- Yangi maʼlumotlar toʻplamlarini qoʻshish: Koʻproq maʼlumotlar toʻplamini tahlil qilish orqali modelning umumiy bashorat qilish qobiliyatini yaxshilash rejalashtirilmogda. Bu, turli bozor sharoitlari va iqtisodiy oʻzgarishlarga modelning moslashuvchanligini oshiradi.

Bu qarorlar kelgusi bosqichlarda loyihani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida qabul qilindi.

Xulosa. Vaqt seriyalarini tahlil qilish algoritmlari yordamida aksiyalar narxini bashorat qilishga urinishlar boʻlgan, ammo ulardan real bozorda pul tikish uchun hali ham foydalanish mumkin emas. Bu shunchaki oʻquv maqolasi boʻlib, u hech qanday tarzda odamlarni aksiyalarni sotib olishga yoʻnaltirishni maqsad qilmaydi. [8]

Birja narxlari nafaqat vaqt seriyalari bilan, balki jahon yangiliklari, siyosiy oʻzgarishlar va bozor yangiliklari kabi tashqi omillarga ham sezgir. Bu shuni anglatadiki, birja narxlari koʻplab omillar taʼsirida oʻzgaruvchan boʻlib, ularni oldindan aytib boʻlmaydi yoki faqat vaqtga bogʻliq holda prognoz qilish mumkin emas. Mening dasturimda esa, bu kabi tashqi omillarni hisobga olmaydi, bu esa dastur samaradorligini cheklashi mumkin. Bu, birja bozorlarida muvaffaqiyatli ishlash uchun dasturlar yoki tahlil vositalarining atrof-muhitdagi oʻzgarishlarga moslashuvchan va koʻp oʻlchovli yondashuvlarni qoʻllashi zarurligini taʼkidlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirzoyev Rajab Qahramon oʻgʻli. SamDUKF. "Taʼlimda sunʼiy intellektning roli" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi." // Birja narxlarning oʻzgarishlarini bashoratlovchi sunʼiy intellekt algoritmlarining tadbir'i. Samarqand, 2023. P. 437–439.
2. Shaker H. et al. Stock price prediction using machine learning algorithms // Expert Syst. Appl. 2018.
3. Piter J., Shimid Y. Lazy Prices // J. Finance. 2019.
4. Manzurul I., Muhammad A. M. M.S.A. Predicting stock prices using deep learning-based model // IEEE Access. 2019.
5. Pantelous A., Giannopoulos E.I., Drosos G. Comparative Analysis of Machine Learning Methods for Predicting Stock Prices // J. Bus. Res. 2020.
6. TensorFlow [Electronic resource] // Google company. P. predict_colab. URL: https://www.tensorflow.org/decision_forests/tutorials/predict_colab.
7. NeuralProphet [Electronic resource]. 2024. P. tutorials/tutorial01.html. URL: <https://neuralprophet.com/tutorials/tutorial01.html>.
8. Loukas S. NeuralProphet For Time-Series Forecasting: Predicting Stock Prices Using Facebook's New Model [Electronic resource]. 2021. URL: <https://medium.com/mllearning-ai/neuralprophet-for-time-series-forecasting-predicting-stock-prices-using-facebooks-new-model-a88ca146261c>.

MOODLE TIZIMIDA VIDEOKONFERENSIYA PLAGINLARI TAHLILI

*Saidov Umedjon Yusuf o'g'li,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
u.y.saidov@buxdu.uz*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimida masofaviy ta'lim dasturlarining ahamiyati, BigBlueButton va Zoom Meeting plaginlarining imkoniyatlari, amaliy afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Dasturlarning maqsadi o'quv materialining katta qismini talaba bilan ta'minlash va o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarning asosiy qismi zamonaviy axborot texnologiyalari orqali baholashdan iborat. Bundan tashqari, dasturlarning kamchiliklari, yutuqlari haqida ham ma'lumotlar, diagrammalar keltirilib, uning kelajakdagi imkoniyatlari xususida takliflar kiritiladi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, dasturlar, plugin, moodle, BigBlueButton, Zoom Meeting, videomuloqot.

АНАЛИЗ ПЛАГИНОВ ВИДЕОКОНФЕРЕНЦСВЯЗИ В СИСТЕМЕ MOODLE

Аннотация. В статье рассматривается важность программ дистанционного обучения в системе образования, практические преимущества возможностей плагинов BigBlueButton и Zoom meeting. Целью программ является предоставление учащемуся большей части учебного материала, а основная часть взаимодействия с преподавателем - оценка с помощью современных информационных технологий. Кроме того, приводится информация о недостатках, достижениях программ, приводятся схемы и вносятся предложения в отношении их будущих возможностей.

Ключевые слова: дистанционное обучение, приложения, плагин, Moodle, BigBlueButton, Zoom meeting, видео-чат.

ANALYSIS OF VIDEO CONFERENCING PLUGINS IN THE MOODLE SYSTEM

Abstract. The article will talk about the importance of distance learning programs in the educational system, the practical advantages of the capabilities of the bigbluebutton and Zoom Meeting plugins. The purpose of the programs is to provide a large part of the educational material to the student, and the main part of the interaction with the teacher is to evaluate through modern information technology. In addition, information about the shortcomings, achievements of programs are also presented, diagrams are presented and suggestions are made about its future capabilities.

Keywords: distance learning, applications, plug-in, moodle, BigBlueButton, Zoom meeting, video-chat.

Kirish. Hozirgi zamonda ta'lim olishning istiqbolli usullaridan biri bu zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalangan holda masofaviy ta'lim olishdir. Zamonaviy o'quv jarayoni ta'limning barcha bosqichlarida sifat, mazmun va texnologiyaning yuqori standartlariga yo'naltirilgan. Foydalanish mumkin bo'lgan ishonchli va moslashuvchan ta'limni boshqarish tizimlaridan foydalanishga alohida ehtiyoj bor.

Masofaviy ta'lim - bu o'quv materialining katta qismini talaba bilan ta'minlash va o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlarning asosiy qismi zamonaviy axborot texnologiyalari: Internet, kompyuter telekommunikatsiyalari, multimedia, ta'lim tizimlaridir. Masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyati tinglovchilarga zamonaviy axborot texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan ishlab chiqilgan axborot resurslaridan foydalangan holda kerakli bilimlarni o'zlariga egallash imkoniyatini berishdir. Axborot resurslarima'lumotlar bazalari va bilimlar, kompyuter, jumladan, multimedia, o'quv va monitoring tizimlari, video va audio yozuvlar, elektron kutubxonalar an'anaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan birgalikda keng auditoriya uchun ochiq bo'lgan yangicha o'quv muhitini yaratadi. Chat va forumlar, video va televideniya konferensiyalarini o'tkazish, kompyuter aloqalari orqali o'qituvchilar bilan tez-tez, har kuni maslahatlashish imkoniyati talabalarining o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarni an'anaviy ta'lim shakliga qaraganda ancha qizg'in bo'ladi. Masofaviy ta'lim yangi axborot texnologiyalari va multimedia tizimlariga asoslangan kunduzgi, sirtqi ta'lim elementlarini o'zida mujassam etgan maxsus, mukammal shakldir.

Asosiy qism. Masofaviy ta'limga har qanday yondashuv ta'lim subyektlari o'rtasidagi interaktiv o'zaro ta'sirni va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydigan axborot va pedagogik texnologiyalarning integratsiyasini o'z ichiga oladi. Bunda esa, ma'lumot almashish va uzatish talabalarning samarali ta'lim faoliyatini tashkil etish uchun asosiy vosita rolini o'ynaydi[1]. Masofaviy ta'limning asosiy xususiyatlari bu uning ma'lum masofadagi o'quvchining ijodiy o'zini namoyon qilishidir. Ta'lim real vaqtda sinxron tarzda (chat, videomuloqot, masofaviy talabalar va o'qituvchi uchun umumiy grafikli ko'rinish va boshqalar), shuningdek asinxron amalga oshiriladi[2]. Internet ta'limi va masofaviy ta'lim bevosita chambarchas bog'liq, ammo bir xil emas, ya'ni global resurslardan foydalangan holda o'qitishning texnik va texnologik xususiyatlari qat'iy tartibi farqlanadi.

Moodle butun dunyo bo'ylab 68 milliondan ortiq foydalanuvchilardan iborat turli va o'sib borayotgan hamjamiyat tomonidan foydalaniladigan ko'p qirrali va keng qamrovli ta'limni boshqarish tizimi (LMS) bo'lib xizmat qiluvchi raqamli ta'lim landshaftida muhim platforma sifatida mustahkam o'rin egalladi[3]. Kuchli, moslashuvchan platformani taklif qiluvchi, ta'lim muassasalari moslashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etish imkonini beradi. Biroq Moodle-ning haqiqiy kuchi uning plaginlar orqali kengaytirilishidir. Avtomobildagi dvigatel singari, Moodle plaginlari ishlash va foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Moodle plaginlari asosiy Moodle sozlamalarini kuchaytirib, uni yanada ko'p qirrali va kuchli ta'limni boshqarish tizimiga aylantiradi. Masofaviy ta'lim bugungi kunda o'zining nafaqat ijobiy, balki salbiy tomonlariga ega. Bu esa o'quv jarayonining texnologik samaradorligi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanishga bog'liq hisoblanadi. Masofaviy ta'lim nafaqat talabalar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham qo'llaniladi va nafaqat malaka oshirish maqsadida, balki masofaviy pedagogik konferentsiyalar va tanlovlar uchun muhim rol o'ynaydi. Videokonferentsaloqa platformalari aniq sabablarga ko'ra so'nggi uch yil ichida ommaviy ravishda ommalashib ketdi. Hozirgi vaqtga kelib videokonferentsaloqa platformalaridan foydalanish odamlar hayoti va umuman elektron ta'limning muhim qismi bo'lib qoldi. Talaba va o'qituvchini dars jarayonini Zoom Meeting va Bigbluebutton yuqori saviyada tashkil qilishda xizmat qiladi. ZOOM va BigBlueButton platformasining yutuqlaridan biri bu o'qituvchilarining rolini oshiradi, chunki telekommunikatsiyalar yordamida ularning ta'sir zonasi odatdagi o'quv jarayoniga nisbatan bir necha barobar ortadi[4]. Bu ikki plaginlarni xususiyatlarini kengroq qarab chiqadigan bo'lsak (1-jadval):

1-jadval.

Zoom va BigBluebutton xususiyatlarining qiyosiy tahlili

Xususiyatlar	Zoom	BigBlueButton
Ekran almashish	Mavjud	Mavjud
Oq doska	Mavjud	Mavjud
Ovoz berish	Mavjud	Mavjud
Video opsiyalari	HD Video	Past, O'rta, Yuqori Aniqlik
Chat	Mavjud	Mavjud
Hujjatni yuklash	Mavjud emas	Mavjud
Ko'p foydalanuvchili doska	Mavjud emas	Mavjud
Qaydlarni ulashish	Mavjud emas	Mavjud
Qo'lni ko'tarish	Mavjud	Mavjud
Emojilar	Mavjud	Mavjud
Maxsus fonlar	Mavjud	Mavjud emas
Learning Analytics boshqaruv paneli	Mavjud emas	Mavjud
Har bir uchrashuv uchun telefon raqamlari	Mavjud	Mavjud
Ta'limni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalashgan	Mavjud	<u>Mavjud – chuqur integratsiya</u>

Xususiyatlar jadvalini tahlil qiladigan bo'lsak hujjat yuklash, ko'p foydalanuvchili doska, ta'lim olish tahlili va qaydlarni ulashishda Bigbluebutton mavjud, lekin zoom plaginida bunday xususiyatlar mavjud emas. Video xususiyatida Bigbluebutton plagini 3 xil video turlarini taklif qilsa, zoom plagini bu tur faqat 1 ta topiladi. Shundan ko'rinib turibdiki, Bigbluebutton plagin Moodle platformasi uchun ko'p xususiyatli plagin bo'lib chiqdi. Har bir plaginni o'rganib chiqish natijasida quyidagicha natijalar olindi.


1. BigBlueButtonBN: Video konferentsiya va real vaqtda almashish xizmati. BigBlueButtonBN Moodle bilan uzluksiz integratsiyani taklif etadi, bu esa jonli video konferentsiyalarni o'tkazish imkonini beradi. Slaydlarni real vaqt rejimida almashish, chat va hatto virtual doska kabi funksiyalarga ega.

BigBlueButton masofaviy o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqqan moodle tizimda chuqur integratsiya bo‘lgan plagin hisoblanadi.

Haqiqiy vaqtda ishtirok etish, jonli video va chat funksiyalari orqali faol ishtirokni rag‘batlantiradi.

Doskaning xususiyatlari esa real vaqt rejimida izohlash imkonini beradi, bu murakkab mavzularni tushuntirishni osonlashtiradi.

Moodle platformasida BigBlueButton plaginidan oxirgi 3 yilda foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilindi [5].




1-rasm. BigBlueButtondan foydalanish statistikasi [5] 2021-2024

BigBlueButton plaginidan foydalanish statistikasidan ko‘rinib turibdiki(1-rasm):

1. 2021-yil may, iyul oylarida yuqori o‘shish kuzatilgan
2. 2023-yil yanvar oyidan hozirgi 2024-yil yanvar oyigacha pasayish kuzatilgan.

2. **Zoom** - Moodle uchun eng tejamkor va funksiyalarga boy plaginlardan biridir. Bu ajoyib interfeys bilan tez va oson foydalanish imkonini beradi. Zoom yordamida siz bir vaqtning o‘zida ikki xil konfrensiyada bo‘lishingiz mumkin. Bu video konferentsiya orqali ko‘p odamlar bilan muhokama qilishdan oldin kichikroq guruhlarda muhokamalarni osonlashtiradi. Zoom Meeting plaginidan oxirgi 3 yilda foydalanish statistikasi[6]:




2-rasm. Zoom Meeting foydalanish statistikasi 2021-2024

Zoom plaginidan foydalanish statistikasidan[6] o'rganish natijasida(2-rasm):

1. 2021-yil iyul va 2022-yil may oylarida foydalanishda yuqori o'sish kuzatilgan.
2. 2021-yil yanvar oyida eng kam foydalanish ko'rsatkichi qayd etilgan.
3. 2023-yil oktabr oyidan 2024-yil yanvar oyigacha pasayish kuzatilgan.

Moodle platformasi rasmiy saytidan olingan natijalarni solishtirsak quyidagicha diagramma hosil bo'ladi.



3-rasm. Plagindan foydalanish qiyosiy statistikasi(Zoom va Bigbluebutton)

Qiyosiy statistikadan o'rganib chiqadigan bo'lsak, 2021-yildan 2023-yil iyul oyigacha Bigbluebutton plagini Zoom plaginidan ko'ra ko'proq foydalanilgan. 2023-yil iyul oyidan 2024-yil yanvar oyigacha zoom plagini yuqori foydalanish ko'rsatkichiga ega. Zoom va Bigbluebutton plaginlari tahlil qilishda moodle platformasi rasmiy saytidan foydalanildi.[7] Natijalar shuni ko'rsatadiki, zoom plagini moodle tizimi foydalanuvchilari o'rtasida mashhur va eng ko'p foydalanuvchiga ega. Bundan tashqari plaginni yuklab olish ko'rsatkichi Bigbluebuttondan ko'ra ko'proq hisoblanadi. Lekin shuni aytish kerakki, xususiyatlari va

integratsiya bo'lishi jihatidan Bigbluebutton foydaliroq bo'lib chiqdi. Zoom foydalanuvchilarga qulay interfeys va katta va kichik konfrensiyalar, Bigblubutton esa online ta'lim va virtual talim uchun xususiyatlar taklif qiladi. Bu plaginlarni o'rnatish esa moodle.org sayti orqali amalga oshiriladi[7]. Kerakli plagin yuklab olinadi va moodle tizimiga admin tomonidan plaginlar o'rnatish qismiga yuklanadi.

Xulosa. Zoom ham, BigBlueButton ham kuchli videokonferens aloqa platformalaridir, lekin ular turli ehtiyojlar va foydalanish holatlariga javob beradi. Zoom turli ssenariylar uchun mos keladigan turli xususiyatlarni taklif etadi, kichik jamoaviy uchrashuvlardan tortib keng ko'lamli konferentsiyalargacha xizmat qiladi. U mahsuldorlik vositalari bilan yaxshi integratsiyalashgan va foydalanuvchilarga qulay interfeysni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, BigBlueButton onlayn ta'limga e'tibor qaratadi va virtual sinflar uchun maxsus mo'ljallangan xususiyatlarni taqdim etadi. U mashhur ta'limni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalashgan va o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Zoom va BigBlueButton o'rtasida qaror qabul qilishda o'ziga xos talablaringizni, byudjetingizni, texnik tajribangizni va foydalanish holatlaringizning xususiyatini hisobga olishingiz kerak.

ADABIYOTLAR:

1 Parpiyev A., Maraximov A., Xamdamov R., Begimqulov U., Bekmuradov M., Toyloqov N. *Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti.* –T.:2008,196b.

2. *Теория и практика дистанционного обучения: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учебн. заведений / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева; Под ред. Е. С. Полат // М.: Издательский центр "Академия", 2004. - 416 с.- стр. 17*

3. *The pedagogy of the Massive Open Online Course: the UK view. Siân Bayne and Jen Ross, the University of Edinburgh. The Higher Education Academy, 2013.*

4. *Буриев, К. С. Роль дистанционного обучения в современном образовании / К. С. Буриев. Текст: непосредственный // Образование и воспитание. —2016*

5. https://moodle.org/plugins/mod_bigbluebuttonbn

6. https://moodle.org/plugins/mod_zoom

7. <https://moodle.org/>



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
29.04.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344